Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish tarixi shuni ko'rsatadiki, ovchilik bilan shug'ullanish uchun chaqqonlik, egiluvchan va jismonan sog'lomlik, tez harakat qilish talab etiladi. Inson ov qilish, mehnat qilish, urushlar uchun maxsus jismoniy mashqlar bilan tayyorgarlik ko'rgan. Shunday qilib, jismoniy tarbiyaning vujudga kelishi va dastlabki rivojlanishida mehnat faoliyati, ya'ni yig'inlar va ov qilish jamiyat hodisasi bo'lib, katta ahamiyatga ega bo'lgan.. Bunday mehnat faoliyati jarayonida jismoniy madaniyat va tarbiya alohida o'rin tutadi. Qadimgi xalqlarning jismoniy fazilatlari: kuchi, chaqqonligi, chidamliligi, jasurligi va mardligi haqida o'zbek xalqining bir qator yozma va og'zaki asarlari "Farhod va Shirin", "Tohir va Zuhra", "Go'ro'gli", "Alpomish" va boshqalarda aytib o'tilgan.

Jismoniy tarbiya jamiyat tarixining barcha bosqichlarida xalq madaniyatining tarkibiy va muhim qismi bo'lib kelgan. Xususan, unga O'zbekiston hududida yashayotgan xalqlarning ma'naviy va jismoniy barkamollikka yetishish mezoni sifatida qaralgan.

Jismoniy tarbiya va harbiy san'at XIV-XV asrlarda ham ancha rivoj topgan. Sohibqiron, buyuk sarkarda Amir Temur olib borgan siyosat

jamiyatning hamma sohalarida bo'lgani kabi jismoniy tarbiyaning mohiyatini yuqori bosqichga ko'targan. Temuriylar davrida harbiylarni jismoniy tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Kurash, kamondan o'q otish, qilichbozlik, ot sporti o'yinlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasida sobiq ittifoq davrida jismoniy tarbiya katta qiyunchiliklardan o'tishga majburlandi. Kuch, tezkorlik, chiniqish maktabi bo'lgan milliy o'yinlarga e'tibor susaydi. Bu mahalliy aholining jismoniy tarbiyadan uzoqlashishga olib keldi, hamda jismoniy rivojlanishiga, jismoniy tayyorgarligiga va salomatligiga putur yetqazdi. Ayniqsa, yosh o'gil, qiz bolalarning jismoniy tayyorgarligi ancha pasaydi.

Zamon nafasiga emas balki xalq ta'limining barcha tarmoqlarida ta'lim metodini bir qolibchilikda qotib qolgan, eski yo'nalishdan voz kechib, yangicha ta'limni joriy etishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Bu borada, ayniqsa, milliy mакtab yaratish va shu bilan ta'lim hamda tarbiyaning yangi qirralariga asos solish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Endilikda ro'y berayotgan barcha ishlar har jihatdan sifat o'zgarishlarini taqozo etmoqda.

Barcha sohalar qatorida respublika xalq ta'limi tarmog'i, jumladan, uning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy tarbiya va sport mutaxasislari oldiga ham muhim vazifalarni ko'ndalang qo'yemoqda. Bunday vazifalar yillar davomida to'planib qolgan muammolarni bosqichma-bosqich hal qilishga kirishish, uning moddiy bazasini yanada mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni Jismoniy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, mazkur sohani yangi davr talablaridan kelib chiqib, ularni shart-sharoitlarga moslashtirish, uni iloji boricha milliyashtirishdan iborat. Mamlakatimizda sog'lom avlod uchun keng ko'lamli chuqur o'ylab chiqilgan, o'ta hayrli ish xalq tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Bu harakatning mohiyati hammamizga ayon.

Davlatimizning hozirgi kuni va istiqboli yoshlarni sog'lom qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Biz maorif xodimlari sog'lom avlodni shakllantirishda, eng mas'uliyatlari vazifani bajarishda kasb-korimiz bilan javobgarmiz. Chunki yoshlarni sog'lom qilib tarbiyalash, eng avvalo, asosan o'quv-tarbiyaviy jarayonini mukammalligiga bog'liq.

Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarni tabiat va inson-salomatligiga

bog'liq ekani tushuntirib o'rgatilganda, uning bolalar ongiga ta'siri kuchli bo'ladi. Maktab faoliyatining bu sohadagi samaradorligi ota-onalar va keng jamoatchilik bilan birgalikda bamaslahat olib borishga bog'liq va maqsadga muvofiqdir. Sog'lom avlodning yetishtirish bir qancha omillarga: atrof – muhitni tozaligi, ota-onaning sihat-salomatligi, ovqatlanish, to'g'ri tibbiy yordam ko'rsatish va hokazolarga bog'liqdir. Bunda maktabgacha tarbiya muassasalarining o'rni ham kam emas. Shu yoshdan bolalarga jismoniy mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish, uning mohiyatini tushuntirish, mustaqil shug'llanishni tarbiyalab borish maqsadga muvofiqdir.

Har bir insonda, ayniqsa, bolalarda tejamkorlikni tarbiyalash, o'z tanasining tozaligini, mashg'ulot joyining tozaligini saqlash va o'z ustidan nazorat olib borish ko'nikmalarini shakllantirish, iqtisodiy vazifalarni samarador yechishga ko'maklashadi. Jismoniy tarbiyani kasalliklardan faqat davolash sifatida ko'ribgina qolmay, balki undan ham muhimrog'i shu kasaliklarni oldini olish, ogohlantirish va salomatlikni saqlash, yanada yaxshilashga qaratilgan, uzoq umr ko'rishga imkoniyat yaratish, tana, qaddiqomatni nafisligini tarbiyalashga yo'naltirilgan tarzda jismoniy tarbiya o'z o'rnni topshi lozim. "Sog' tanada-sog'lom aql" maqoliga rioya qilish kerak.

Mamlakatimizda ta'lif tizimini takomillashtirish va Vatan ravnaqini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun turli tadbirlarni o'tkazish ko'zda tutilishi lozim. O'quvchilarining jismoniy jihatdan nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularni bu boradagi ko'nikma va malakalar bilan oshno qilish mazkur fanning assosiy vazifalaridir. O'quvchilarining sog'ligini yaxshilash, ularni jismonan rivojlantirish, bolalarni jismoniy chiniqtirish va sport bo'yicha bilim berish maktabdagi jismoniy tarbiya darslarida, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirislishi kerak..

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish, bolalar sog'ligini asrash, ularni har tomonlama garmonik rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash, eng kichik yoshdan - boshlang'ich sinfdan boshlanadi. Hozirgi sharoitda boshlang'ich sind o'quvchilarini harakat faoliyatini o'rganishda Respublikamizning tabiiy iqlim va boshqa ijtimoiy omillari, fasl almashinuv, quyosh radiatsiyasida ekologiya, milliy urf-odatlar va hokazolalarni hisobga olish kerak.

Ma'lumki o'qituvchilar jismoniy tarbiyaning mustahkam poydevorini quiy sinflardan boshlashi kerak. Maktabda bu boradagi o'quv-tarbiya ishini tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblanadi. Afsuski, jismoniy tarbiya darslarini ko'p maktablarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari olib boradilar. Xalq ta'limi Vazirligining qarori bo'yicha boshlang'ich sinfda jismoniy tarbiyaga ajratilgan soatlar mutaxassislarga topshirilishi kerak, chunki jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarning o'rni katta. Ular o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi to'grisidagi qonun-qoidalarni hamda maxsus vositalar va metodlardan to'g'ri, unumli foydalanish bilimlariga ega. Lekin, har xil obyektiv va subyektiv sabablar tufayli hozirgacha boshlangich sinf jismoniy tarbiya darslari to'la mutaxassis o'qituvchilar qo'liga topshirilmadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya dasturida talab me'yorlari bugungi zamon talabiga javob bera olmaydi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ich ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда o'quvchilarni jismoniy tarbiyasini hamda mezon- talablarining o'zaro uzviyligi asosida bolalarni sportga jalb qilish, qiziqish uyg'otish va ularni dastlabki nazariy va harakat ko'nikma, malakalar alifbosini shakllantirish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagи bolalarni jismoniy tarbiyalashning masalalarini asoslashda va mutaxassislar tayyorlashda P.F. Lesgaft, V.V Gorinevskiy, Ye.A. Arkin<sup>10</sup> kabi buyuk olimlarning hissasi katta. Shunday qilib, kishilarning ijtimoiy hayot sharoitlari jismoniy rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bular orasida mehnat bilan tarbiya, chunonchi, jismoniy tarbiya eng muhim rol o'ynaydi.

<sup>10</sup> Лесгафт Петр Францевич (1837-1909) (Российский биолог)..Воспитание ребенка.1893. Гориневский Валентин Владиславович (1857—1937) — советский гигиенист и педиатр, один из первых отечественных ученых в области врачебного контроля за физическим развитием и воспитанием, деятель советской физической культуры.. Алан Вольф Аркин — американский актёр, режиссёр и сценарист. Лауреат премий «Золотой глобус» (1967), «Оскар» (2007) и BAFTA (2007).

### 2.3.Sport va ko'ngilochar tadbirlar rivojlanishining zamonaviy tamoyillari.

**Jismoniy tarbiya** – bu odamni jismoniy sifatlarini tarbiyalash, umumiy jismoniy harakatlarga o'rgatish va maxsus jismoniy tarbiyalash turidani borat. Shuningdek, jismoniy kamolatga erishish uchun yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi munosabat bo'lib, harakat, ko'nikma va malakalarni shakkantirishga qaratilgan. O'rgatish va tarbiyalash jarayonida aqliy, axloqiy, ma'naviy va mehnat tarbiyasi ham bir vaqtida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya tizimi deganda, jismoniy tarbiyaning ilmiy- metodik va pedagogik asoslari tushuniladi.

Mamlakatimizda bu tizimning yaratilishi mutaxassislarining jismoniy tarbiya sohasida olib borgan ishlarining samarasidir. Jismoniy tarbiyaning maqsadi mamlakatimiz kelajagi bo'lgan bolalarni barkamol, jismonan baquvvat qilish, Vatan mudofaasiga, hayotga va mehnatga tayyorlashdir. O'zbekistonda jismoniy tarbiyani amalga oshiruvchi hamma muassasa va tashkilotlar uchun bu maqsad yagonadir. Shu maqsad asosida sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishdagi muammolar hal etilib, o'z yechimini topadi. Nazariya orqali erishilgan va amaliyotda tasdiqlangan hamma qimmatbaho ma'lumotlar jismoniy tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Jismoniy tarbiya tizimi** deganda biz uning tarkibiy qismlari bo'yicha jismoniy tarbiya vazifalarini, vositalarini, ish shakllarini, metodlarini, mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llarini hamda oiladagi jismoniy tarbiyani, kadrlar tayyorlashni va sport inshootlarini qurilishini tushunamiz. Jismoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismlariga:

- 1) Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar jismoniy tarbiyasi;
- 2) Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi;
- 3) Oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya;
- 4) Armiya va harbiy flotdagi jismoniy tarbiya;
- 5) Ko'ngilli jismoniy tarbiya jamiyatidagi jismoniy tarbiya kiradi.

**"Jismoniy rivojlanish"** – bu inson organizmida sodir bo'layotgan shakl va funksiyalarning tabiiy o'zgarish jarayonidir. Bu funksiyalarning namoyon bo'lish turlaridan biri-jismoniy sifatlar: egiluvchanlik, chaqqonlik, tezkorlik, kuch va chidamlilikdir. "Jismoniy rivojlanish" tushunchasi tor

ma'noda antropometrik va biometrik ko'rsatkichlar (bo'y, tana massasi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pkaning hayotiy sig'imi va h.k) bilan aniqlanuvchi organizmning rivojlanishi saviyasi sifatida ham ta'riflanadi.

**"Jismoniy kamolot"** – bu odamming har tomonlama rivojlanishni va harakat qilishga tayyor bo'lib turishini tarixiy vujudga kelgan darajasi bo'lib, ishlab chiqarish, harbiy va ijtimoiy turmush sharoitlariga yaxshi moslashish imkoniyati, yuksak ish qobiliyatini va hayotiy muhim funksiyalarning normal o'sishi tushuniladi.

Jismoniy kamolot to'liq salomatlik bilan xarakterlanib kishining uzoq vaqt faol hayotiy va boshqa bir qancha ko'rsatkichlarni, har qanday tashqi muhit sharoitida jismoniy, aqliy ish qobiliyatini yuqori darajada irodaviy sifatlarni, katta masshtabdagi harakat ko'nikmalarini va tana shakllarini garmonik rivojlanishidan iboratdir.

Bu ta'rif munosabati bilan uch holni ta'kidlab o'tish kerak.

1 – Kamolotning tarixiy darajasi, jismoniy rivojlanishning o'ziga xoc xarakterli, eng yuksak, insonparvar, jamiyatning chinakam taraqqiyotini, butun xalqning jismoniy kuchlari va salomatligi ravnaqini ifodalovchi daraja.

2 – Jismoniy barkamollik turli yoshdagi, turli jinsdagি kishilarning kamol topib, o'z xususiyatiga ega bo'lishi.

3 - Jismoniy barkamollikni yuqoridagi ta'rifida bevosita "Salomatlik" so'zi bo'limasa ham, aslida ana shu ta'rifda insonning normal salomatligini xarakterlab beradigan jamiki muhim sifatlar ko'zda tutiladi.

**Jismoniy barkamollik** – inson intilishi zarur bo'lgan ideal daraja.

**"Jismoniy madaniyat"** – tabiat in'omidan olingan inson hayoti uchun zarur sifatlariga, imkoniyatlariga va qobiliyatlariga ta'sir etadiki, ular dars sifatida hayot, harakat va tarbiya sharoitlari ta'sirida avlodlararo rivojlanadi, "jismoniy madaniyat" butun hayot davomida tabiiy va morfo funktsional xususiyatlarning o'zgarishi va shakllanish jarayoni bilan chambarchas bog'langan bo'lib, jismoniy sifat va qobiliyatga asoslanadi.

"Jismoniy madaniyat" tarixan insonning birinchi va muhim sharti bo'lmish mehnatga bo'lgan amaliy ehtiyoj ta'sirida vujudga kelgan. "Jismoniy madaniyat" umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, insonning jamoa tarixiy amaliyotida to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklar to'plamidir. Moddiy boyliklarga sport inshootlari (o'yingohlar, sport xonalari, maydonchalar,

tirlar, havzalar va h.k), jismoniy jihozlar, buyumlar, maxsus sport kiyimlari va boshqalar kiradi.

Ma'naviy boyliklarga jismoniy madaniyat haqidagi fan va san'at asarlari (adabiyot, haykaltaroshlik, grafika, musiqa va boshqalar kiradi). Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiya nazariyasining eng keng tushunchasidir. U hamma tushunchalarni o'z ichiga oladi.

“Sport” – bu maxsus faoliyat bo‘lib, musobaqalar jarayonida namoyon bo‘ladigan, jismoniy mashqlarning qaysi bir turlarida yuqori natijalarga erishish uchun yo‘naltirilgan maxsus faoliyat bo‘lib hisoblanadi.

### **O‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish uchun savollar:**

1. Respublikamizda ommaviy sportni rivojlantirish borasida qanday islohotlar olib borilgan?
2. Ommaviy sport tadbirlarini hozirgi kunda qanday ahamiyati bor ?
3. Jismoniy kamolot nima?
4. Sport va ko‘ngilochar tadbirlarning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy tarixiy bosqichlar nimadan iborat?

### 3-MODUL.O'ZBEKISTONDA JISMONIY-TARBIYA VA OMMAVIY SPORT-HARAKATINING MILLIY KONSEPSIYASI



#### 3.1. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini davlat boshqaruva tuzilmasi.

Bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida respublikada olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, va ma'naviy-ma'rifiy hayotdagi tub islohotlar ta'lim-tarbiya va sport-sog'lomlashtirish ishlarini ham mutlaqo yangicha mazmun, shakl va vositalarda tashkil etish, aholi uchun yaratilgan mislsiz imkoniyatlardan yanada to'laroq foydalanib, o'sib kelayotgan yoshlarni Vatanga munosib farzandlar qilib tarbiyalashdek, o'ta muhim vazifalarni hal qilishga undaydi. Respublika hukumati tomonidan o'quvchi-yoshlarni jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni sport-sog'lomlashtirish ishlariga keng jalb qilish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish, sog'lom turmush tarziga yo'naltirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'naliшlardan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, sport turlari bo'yicha iste'dodli sportchilarini tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sportni to'g'risida"gi<sup>11</sup> O'RQ-394-sonli Qonuni,

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni/ O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 24-iyulda qabul qilingan Senat tomoni-



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3031-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi<sup>12</sup> "PF-5368-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagи "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi 658-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldaги "Davlat ta’lim muassasalarini huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 542-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagи "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 118-sonli qarolarning ijro mohiyati bilan Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy-sport tadbirlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sportni to‘g‘risida"gi 2015-yil 4-sentyabr O'RQ-394-sonli (yangi tahrirdagi) Qonunning maqsadi –jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonun sakkiz bobdan iborat: 1-bob. Umumiy qoidalar,

2-bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat tomonidan tartibga solish.

3-bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni tashkil etish.

---

dan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan/

<sup>12</sup> Mazkur qaror O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-avgustdagи 481-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2019-yil 26-avgustdagи PF-5787-son Farmoni)"gi qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan.

4-bob. Ta'lim tizimida, fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida jismoniy tarbiya va sport.

5-bob. Sport zaxirasini tayyorlash.

6-bob. O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari va ularni shakllantirish.

7-bob. Jismoniy tarbiya va sportning moddiy, tibbiy, moliyaviy hamda boshqa ta'minoti.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: - o'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etadi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi; jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtiroy etadi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari («Barkamol avlod») hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari («Universiada») o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etishda ishtiroy etadi;

- oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda tashkilotlari sport inshootlarining moddiy-texnika va resurs bazasi saqlanishi hamda rivojlantirilishini ta'minlaydi;

- o'quvchilar va talabalarga sog'lom turmush tarzini, sport bilan shug'ullanishning muhimligi, jismoniy va ma'naviy komillikkha intilish tushunchasini singdirishga, ularni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga hamda zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtiroy etadi;

- o'quvchilar va talabalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari hamda usullarini, jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko'nikmalarini singdirishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni hamda joriy etishga ko'maklashishni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

20-modda. O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari - O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro'-e'tiborini yuksaltirishga intilish tuyg'ularini tarbiyalash poydevoridir.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar:

- O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashadi hamda ularni aholi o'rtasida targ'ib qilishga zarur shart-sharoitlar yaratadi;

- O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlarining xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga ko'maklashadi;

- O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlarini Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritish tartibilari qonun hujjatlarida belgilanadi.

21-modda. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazish- Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tashkilotchilari bu tadbirlarni o'tkazish shartlarini, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazishni moliyalashtirish shartlarini belgilaydi.Bunday tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'ladi, ushbu tadbirlarni to'xtatish va bekor qilish, ularni o'tkazish vaqtini o'zgartirish va ularning yakunlarini tasdiqlash huquqiga ega.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari quyidagi mutlaq huquqlarga ega:

- jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining nomi va ramzlaridan foydalanish;

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish joyida tovarlar, ishlar va xizmatlar reklamasini joylashtirish;

## **Ommaviy sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish**

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida foydalaniladigan sport ekipirovkasi, sport uskunalarini va anjomlarini ishlab chiqaruvchilarni belgilash;
- jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tasvirini, ovozini har qanday usullar bilan turli texnologiyalar yordamida translyatsiya qilish orqali mazkur translyatsiyani yozuvi bolishini, tadbirni foto suratga hamda video tasvirga tushirishni amalga oshirish orqali yoritish;
- Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining nomlaridan, ular asosida tuzilgan so'z birikmalaridan hamda mazkur tadbirlar ramzlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishi jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari bilan yozma shaklda tuziladigan kelishuv shartnomalari asosida amalga oshiriladi, bunday nomlardan, ular asosida tuzilgan so'z birikmalaridan va mazkur tadbirlar ramzlaridan axborot maqsadida yoki ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqini olgan uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning foydalanish hollari bundan mustasno.

Ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari tashkilotchilari tomonidan tasdiqlangan, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining to‘g‘ri ko‘rsatilgan nomlaridan foydalanimishi kerak. Bunda mazkur nomlar reklama hisoblanmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqidan uchinchi shaxslar faqat jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilarining yozma ruxsatlari bilan yoxud uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning bunday tadbirlar tashkilotchilaridan sotib olinganligi to‘g‘risidagi yozma shakldagi shartnomaga asosida foydalanishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalarning, nizomlarning (reglamentlarning) mazmuniga doir alohida sport turlarining xususiyatlarini nazarda tutadigan umumiy talablar maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. Faqat rasmiy sport musobaqalarigina O‘zbekiston Respublikasi championati, kubogi yoki birinchiligi maqomiga va nomiga ega bo‘lishi mumkin. Rasmiy sport musobaqalarini o‘tkazishga “Jismoniy tarbiya va sport to‘risida”gi Qonunning 26-moddasiga muvofiq tasdiqlangan sport turlarining qoidalari asosidagina yo‘l qo‘yiladi. Xalqaro sport tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi hududida faqat bunday tadbirlarni

o'tkazish to'g'risidagi qarorning tegishli sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishib olinishi sharti bilan o'tkazilishi mumkin.

24-modda. Xalqaro va respublika miqiyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalender rejasи.

- Xalqaro va respublika miqiyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalender rejasи O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqiyosidagi rasmiy sport yoki ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari ro'yxatini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarini xalqaro sport tadbirlariga tayyorlash va ularning ishtirot etishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar ro'yxatini belgilovchi hujjatdir. Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari xalqaro va respublika miqiyosidagi tadbirlarining kalender rejasiga sport turlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritiladi.

Xalqaro va respublika miqiyosidagi sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalender rejasи tegishli kalendar yil boshlanguniga qadar tasdiqlanadi. Kalendar rejaga kiritilgan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari rasmiy tadbirlardir.

29-modda. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish.

Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Asosiy ta'lim dasturlari doirasida davlat ta'lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha majburiy mashg'ulotlarni, shuningdek, qo'shimcha ta'lim dasturlari doirasida qo'shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlarini o'tkazish;

- ta'lim oluvchilarни jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalg etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo'yicha tadbirlar majmuini o'tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarda individual qobiliyatni va sog'lig'i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quv mashg'ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish;

- ta'lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish;
- ota-onalarda yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog'ligi va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish;
- bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish;
- ta'lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan, xalq ta'limi tizimining ta'lim muassasalari o'quvchilari («Umid nihollari»), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari («Barkamol avlod») hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari («Universiada») ishtirokida uch bosqichli sport musobaqalari tashkil etilishi va o'tkazilishiga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-sonli qarorining maqsadi - O'zbekiston Respublikasi hududida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirishdan iborat. Quyidagilar Dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin: Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'illanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, ona vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarning aniqlanishi, ta'lim dasturining mazmun-mohiyati va uni amalga oshirish jarayoni to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish. Dasturning moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlanirish jamg'armasi mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyat muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlanirish jamg'armasi mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahar

mahalliy byudjetlari, jamg'armalar, sport federatsiyalari (uyushmalari), klublari, xorijiy investorlar, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari mablag'ları, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

- Qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari aholi, o'quvchi va talabalarni sport musobaqalariga, respublika sport tadbirlariga yuborish uchun mablag'lar Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq ajratilishini ta'minlansin.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligiga dastur va uning asosida ishlab chiqilgan hududiy dasturlarda belgilangan barcha choratadbirlarni ijrosini o'z muddatida, sifatli amalga oshirilishi yuzasidan tegishli vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va hududiy ishchi guruhlarga tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatiladi.

O'zbekiston terma jamoalari sportchilarining o'quv-mashg'ulot yig'inlari, jahon birinchiliklari, Osiyo o'yinlari va championatlari, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida musobaqalar yakunlarida erishilgan natijalarni chuqur tahlil qilish va tizimli monitoringini olib borish ta'minlanadi.

Yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan sport maktablariga, ta'lim muassasalari va sport klublariga iqtidorli sportchilarni qabul qilish jarayonlarining shaffofligi va xolisligini ta'minlash yuzasidan doimiy ravishda ta'sirchan choralar ko'rish hamda har chorak yakunlari bo'yicha vazirlikning majlislarida tanqidiy-tahliliy muhokamadan o'tkazish vazifalari yuklansin. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari:

- sport inshootlari yil davomida uzlusiz faoliyat yuritishini ta'minlash, ulardan samarali foydalanish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ehtiyoja ko'ra sport inshootlarini muqobil energiya manbalarini bilan jihozlash choralarini ko'rsin;

- tegishli hududda sport federatsiyalariga (uyushmalariga) biriktiriladigan homiy tashkilotlarning amaliy yordam berish turlari (bino va inshootlardan bepul foydalanish, mablag'lar hamda sport anjomlari bilan ta'minlash va

## **Ommaviy sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish**

h.k.) bo'yicha takliflari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga doir barcha masalalar hal etilishi ta'minlasin;

- sport ta'lim muassasalari va majmualari ixtiyoridagi yer maydonlarini (ochiq va yopiq turdag'i sport inshootlarini) tasarruf etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida amalga oshirilishiga qat'iy rioya qilinsin.

Mazkur qaror bilan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi tasdiqlanib, unga muvofiq keng ko'lamli, aniq maqsadli ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, dasturga muvofiq:

- jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport komplekslarini qurish, ularni zamonaviy sport uskunalarini va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash;

- ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o'rtasida sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarни saralab olish hamda ularni maqsadli tayyorlash kabi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Dastur ijrosi doirasida sport turlari bo'yicha Respublika oliv sport mahorati maktablari va bolalar-o'smirlar sport maktablarining shtatlar jadvaliga «Sportchi» lavozimini joriy etilishi O'zbekiston milliy terma jamoalari a'zolarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan muhim qadam vazifasini o'taydi. Dasturda, shuningdek, ta'lim muassasalari sport inshootlarida darsdan so'ng o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun sport to'garaklari hamda sport klublari faoliyatini tizimli tashkil etish va boshqarishni yo'lga qo'yish maqsadida sport turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport

maktablarida hamda bolalar-o'smirlar sport maktablarida «Sport to'garagi va seleksiya bo'yicha trener» lavozimini kiritish belgilangan. Mazkur lavozimni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan sport to'garaklari bilan qo'shimcha ravishda minglab o'quvchi va talabalarni qamrab olishga erishiladi hamda ularga sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Bundan tashqari, dasturda jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashirilgan ta'lim muassasalari hamda sport klublari faoliyatini olimpiya, milliy va boshqa sport turlari kesimida reyting baholash tizimini joriy etish belgilangani ularning –faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, Turizm va sport vazirligi tomonidan «Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi» ko'krak nishonining ta'sis etilishi esa soha fidoyilar mehnatini yanada munosib rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Dasturga ko'ra, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtaida o'tkaziladigan uch bosqichdan iborat «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va "Universiada" sport o'yinlari dasturlarini sportning ommaviy turlari hisobiga kengaytirish, nufuzini oshirish va musobaqa g'oliblarini munosib rag'batlantirish tizimini tubdan takomillashtirish nazarda tutilgan. Qaror chora-tadbirlarining amalga oshirilishi pirovardida xalqaro musobaqalarda sportchilarimiz yutuqlari salmog'ini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Qarorda o'z yechimini topgan muhim masalalardan yana biri — hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida sport tibbiyoti bo'limlarining tashkil etilishi va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash belgilab qo'yilganidir. Dastur doirasida rejajashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida jami 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi nazarda tutilgan bo'lib, shundan 706,2 milliard so'mdan ortiq qismi ushbu yillarda jami 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi hamda 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash hamda jihozlash va qayta jihozlashga yo'naltiriladi.

Qaror va dastur doirasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jismoniy tarbiya va ommaviy sportning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirish, aholining barcha qatlami orasida sog'lom turmush

tarzini shakllantirish, yoshlarga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitni yaratish orqali ularni ommaviy tarzda sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish, qolaversa, nufuzli xalqaro maydonlarda Vatan bayrog‘ini baland ko‘tarib kelayotgan mashhur sportchilar saflarini tobora kengaytirishga xizmat qiladi.

### **3.2. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarining huquqiy asoslari.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagи “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>13</sup>PF-5368-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligining asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

- Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalg etish, jismonan sog‘lom o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtirokini ta’minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalgalash oshirish;

- mahalliy davlat hokimiyyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni ommalashtirish borasida keng ko‘lamli ishlarni tashkillashtirish;

- bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalg etish, bolalar sport ta’limi sifatini oshirish, barcha hududlarda, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda bolalar sport inshootlari tarmog‘ini yanada kengaytirish orqali bolalar sportini yanada rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tashkilotlari, inshootlari va inshootlarining ommaviy sport, bolalar sporti va professional sport yo‘nalishlari bo‘yicha moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, ulardan maksimal darajada va samarali foydalanishni

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni.Toshkent sh.,2018-yil 5-mart,PF-5368-son

ta'minlash, sport asbob-uskunalarini hamda inventarlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilishini tashkil etish va kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashish.

Quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo'naliishlari etib belgilansin: maktabgacha ta'lim muassasalarida — boshlang'ich gimnastika va harakatli o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirish; umumta'lim maktablarida o'quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o'qituvchilarini jalb qilgan holda iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o'smirlar sport makteblari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtiroy etish uchun darsdan tashqari sport to'garaklari va seksiyalari mashg'ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 4 soatdan); o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida — o'quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport turi bo'yicha trenerlarni jalb qilgan holda iste'dodli yoshlarni saralash va ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport makteblari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida, keyinchalik mintaqaviy hamda respublika sport musobaqalarida ishtiroy etish uchun olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha sinfdan tashqari sport to'garaklari hamda seksiyalari mashg'ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 6 soatdan); oliy ta'lim muassasalarida — iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari hamda respublika oliy sport mahorati makteblari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida, keyinchalik respublika va xalqaro sport musobaqalarida olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha talabalar sport klublari hamda jamoalarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Muayyan tartib asosida tuman (shahar) sport va ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlarining yagona kalendar rejalarini tegishli tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi; umumta'lim makteblari, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida o'tkaziladigan sport va ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlarining ishtiroychilarini kiyim-kechak bilan ta'minlashni moliyalashtirish tegishlili sport jamiyatlari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 20 sentyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ishtirot etdi. Mazkur yig'ilishda vazirliklar, idora va tashkilotlarga jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha istiqboldagi muhim vazifalari belgilab berildi.

Aholi, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanirish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish, darsdan tashqari vaqtarda ta'lim muassasalaridagi sport inshootlaridan barcha yoshdagi aholining foydalanishini tashkil etish, bundan tashqari, joylardagi bo'sh turgan xususiy inshootlar negizida aholini ommaviy sportga jalb qilish uchun imtiyozli xizmat ko'rsatuvchi sport markazlarini tashkil etish lozim. Shu bois Turizm va sport vazirligi Yoshlar kengashi, tegishli vazirliklar bilan birgalikda ta'lim muassasalaridagi sport inshootlari hamda bo'sh turgan inshootlarda sport seksiyalarini ochish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rishi kerak. Tuman, shahar, viloyat va respublika miqiyosida sport musobaqlari sonini keskin ko'paytirish, g'olib va sovrindorlarni Yoshlar kengashi mablag'lari hisobidan pullik mukofotlar bilan rag'batlantirish belgilandi.

Aholining turli qatlamlarini sportga keng jalb qilish uchun "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarini musobaqa tarzida o'tkazish hamda g'oliblarni uch darajadagi ko'krak nishonlari bilan taqdirlanishi ko'zdautilgan. Korxonalar, ta'lim muassasalari, istirohat bog'larida ommaviy badantarbiya va gimnastika mashg'ulotlarini o'tkazilishining inson salomatligi uchun foydalilagini targ'ib qilish maqsadida doimiy ko'rsatuv va ijtimoiy-roliklar tayyorlab, televideniya orqali namoyish etish kerak. Mamlakatda sportni ommalashtirish bo'yicha besh yillik milliy konsepsiya ishlab chiqish zaruriyati bor.

Aholini jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib, sog'lom turmush kechirishga jalb etish, shu orqali kasalliklarning oldini olib, odamlarning umrini uzaytirish konsepsiyaning asosiy yo'nalishi va natijasi bo'lishi kerak,— degan edilar Prezidentimiz M.Mirziyoyev.

**O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:**

1. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini qanday huquqiy asoslari mavjud?
2. Ommaviy sport harakatining milliy konsepsiyasi nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Ommaviy sport tadbirlarini hozirgi kunda qanday ahamiyati bor ?
4. Jismoniy kamolot nima?
5. Sport va ko'ngilochar tadbirlarning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy tarixiy bosqichlari nimadan iborat?
6. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini qanday huquqiy asoslari mavjud?

## 4-MODUL. OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI O'TKAZISH NIZOMI.



### 4.1. “Soglon avlod uchun” ordeni - Prezident farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki davridan bolalar jismoniy tarbiyasiga va bolalar sportiga katta e’tibor berilmoqda: “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi<sup>14</sup> I-qonun (1992 yil), “Sog‘lom avlod uchun” ordeni (1993 yil)- Prezident farmoni, “O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish” (1995 yil)- Vazirlar Mahkamasining qarori va shu kabilar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga kuch-quvvat, iroda, intilish beradi.

Davlat direktiv hujjatlарини amalgа oshirish uchun soha mutaxassislariga bor shijoati bilan, o‘quvhilarning salomatligini mustahkamlash yo‘llarini izlab, bolajonlarda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ularni sog‘lom, jismonan baquvvat qilib kamolga yetkazish mas’uliyati tushadi.

Jismoniy tayyorgarlik va “Salomatlik” poydevorini eng kichik yoshdan qurishni boshlash kerak. Bu yoshdagи bolalarda harakat ko‘nikmalarini shakllanishi shiddatli bo‘ladi. Ularning bo‘yi va muskul kuchlari ortadi, harakat koordinatsiyalari yaxshilanadi. Harakat amplitudiyasini, tezligini, yo‘nalishini, ritmi va ifodaliligini ajrata bilish ko‘nikmasi takomillashadi, harakatni tahlil qilish qobiliyati ma’lum fazalarga ajratilgan holda rivojlanadi.

O‘z-o‘zini nazorat etish va o‘zining hamda o‘rtoqlarining harakatlarini

<sup>14</sup> “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi Qonun – 1992 y. 14 yanvarda 513-XII - sonli Qonuni b-n tasdiqlangan. Yangi tahriri 2000 y. 26 mayda 76-II- sonli Qonuni b-n tasdiqlangan. 27 – moddadan iborat. Ohirgi tahriri 2015 yil 4 sentyabrda tasdiqlangan. 8 bob 47 moddadan iborat. Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini, Davlat va jamoat tashkilotlarini sohadagi vakolatlarini belgilab beradi. .



baholash qobiliyatlari rivojlanadi. Bola harakat natijalarini bajarish sifatiga bog'liqligini tushunadi, yaxshi natijalarga erishish uchun harakat qiladi. Boshlang'ich ta'limda bolalar faoliyatining asosiy bo'limlaridan birini jismoniy tarbiya bo'yicha olib boriladigan ishlar tashkil etadi. Bu ish o'qituvchilar tomonidan hamda shifokor, musiqa rahbarlari, mutaxassislar va boshqalar qatnashgan holda maxsus dastur bo'yicha amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi bolalarни har tomonlama garmonik rivojlangan, jismonan baquvvat, hayotga, mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyor qilib kamolga yetkazishdir.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash vazifalari O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya tizimining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib 3-ta asosiy guruhlarga bo'linadi:a) sog'lomlashtirish; b) ta'lim; v) tarbiyaviy. Bolaning sog'ligini aks ettiruvchi ko'rsatgichlaridan biri tana bo'limlari o'zaro nisbatining to'griligidir: yoshi o'sishi bilan og'irligi, bo'yi va ko'krak qafasining aylanasi o'zgarishi lozim. Oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilishi tufayli bolalar uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda: sport majmuasi, alohida stadionlar, sport zallar, suv havzalari, tennis maydonchalari,sport anjomlari, uskunalar va boshqalar.

Shunday imkoniyatlardan yetarli foydalanmaslik natijasida ba'zi maktab yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligining pastligini, dastur talablariga yetarlichcha javob bera olmasligi kuzatiladi. Eng kichik yoshdan boshlab harakatsizlik oshib bormoqda. Buning asosiy sababi maktabgacha tarbiya muassasalarida ham, boshlang'ich sinflarda ham jismoniy tarbiya masalalari yuqori darajaga ko'tarilmaganligidir.

Bog'cha tarbiyachilari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu masala bo'yicha nazariy va amaliy bilimi yetarli darajada emas. Jismoniy tarbiyaning hamma shakllari amalga oshirilmaydi, bajarilsa ham yetarli darajada emas. Jismoniy tarbiya mashhg'ulotidan tashqari muntazam kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari qat'iy tartibda olib borilishi lozim.

## **2. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish nizomi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PQ-3583-son «O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini

tashkil etish to‘g‘risida»gi<sup>15</sup> qaroriga muvofiq ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazish Nizomi umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilaridan iborat sport jamoalari o‘rtasida (sport turlari bo‘yicha) ushbu muassasalar, tuman(shahar)lar, viloyatlar va respublika darajasida ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar keltiriladi:

- ommaviy sport tadbirlari — 100 va undan ko‘p kishilarning ishtirotkida sport musobaqalarini, o‘quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirotkida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha boshqa tadbirlar (xalq sayillari, festivallar, milliy namoyishlar va o‘yinlar, ko‘rik-tanlovlari, ko‘rgazmali chiqishlar)ni o‘tkazish maqsadida sport inshootlarida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlari;

- sport jamoalari — ommaviy sport tadbirlarida qatnashayotgan umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, akademik litsey va professional ta’lim muassasalarini o‘quvchilaridan iborat turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, tibbiyot mutaxassislari va boshqa mutaxassislardan iborat ommaviy sport tadbirlariga tayyorlanish va ularda O‘zbekiston Respublikasining hududida qatnashish maqsadida tashkil etiladigan jamoalar;

- ommaviy sport tadbiri tashkilotchilari — o‘z tashabbusi bilan sport tadbiri o‘tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o‘tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta’minalashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs(lar);

- ommaviy sport tadbiri ishtirokchilari — ommaviy sport tadbirlari tashkilotchilari, sport jamoalari, sportchilar va boshqa shaxslar, shuningdek, tomoshabinlar;

- sport inshooti — sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo‘yicha o‘quv-mashq mashg‘ulotlari va o‘quv-mashq yig‘inlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, o‘ziga qo‘yiladigan norma va talablarga javob beradigan hamda tegishli pasportga ega bo‘lgan yopiq yoki ochiq

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.Qarori .O‘zbekiston respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdag‘i “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni Toshkent sh.,2018-yil 5-mart, PQ-3583-son

tipdag'i ixtisoslashtirilgan inshoot.

Ommaviy sport tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (bundan buyon matnda tegishli vazirliklar deb yuritiladi) va ularning hududiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldag'i 205-son qarori bilan tasdiqlangan Ommaviy tadbirlarni o'tkazish talablariga muvofiq tegishli ruxsatnoma olinganidan so'ng boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi ta'kidlandi.

Ommaviy sport tadbirlari tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan musobaqa qoidalariga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari o'quvchilar o'rtasida o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Ommaviy sport tadbirlari jarayonlari video tasvirga tushirilishi lozim. Ommaviy sport tadbirlarini fototasvirga tushirish, audio va videoyozuvini amalga oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida translyatsiya qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mazkur nizomda belgilab qo'yildi.

### **O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:**

1. Ommaviy sport tadbirlari qanday tartibda o'tqaziladi?
2. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish nizomi mazmunida nimalar belgilangan?
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ommaviy tadbirlarni o'tkazish talablariga tegishli qaror nechanchi yilda qabul qilingan?
4. Ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish nizomi borasida qanday tushunchaga egasiz?

**5 -MODUL. OMMAVIY SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH  
ISHLARINI TASHKIL ETISH PREDMETINING MAQSAD VA  
VAZIFASI HAMDA UMUMIY TUSHUNCHALARI TO'G'RISIDA.**



**5.1. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini inson  
organizmiga ta'sir etuvchi mexanizmlari.**

Jismoniy tarbiya yo'nalishi inson organizmining yoshta xos (maktabgacha, kichik, o'rta, katta) jismoniy rivojlanishiga, ya'ni ontogenezning o'zgarib turuvchi davrlariga mos ravishda izchil o'zgartirish majburiyatini qo'yadi. Jismoniy tarbiya jarayoni yoshta xos yetilish davrigacha shug'ullanuvchilar organizmiga umumiy jismoniy ta'sir qilishni nazarda tutishi kerak.

Bu harakat ko'nikmalari va malakalarining keng doirasini shakllantirishda va har tomonlama jismoniy rivojlanishda o'z ifodasini topadi. Maktab davrida bu tamoyil jismoniy sifatlarni tarbiyalashda insonning u yoki bu jismoniy sifatlari rivojlanishi uchun eng qulay imkoniyatlar paydo bo'ladigan sezgi zonalarini e'tiborga olishni taqozo etadi. O'smirlilik va birinchi yetuklik yoshi (taxminan 35 yoshgacha) organizmning funksional imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatlarni ochib beradi.

Ko'pchilik uchun jismoniy tarbiya yo'nalishi uzaytirilgan umumiy jismoniy tayyorgarlik shaklida bo'ladi. O'smirlilik yoshi uchun sport bilan faol shug'ullanish hamda uning asosida yuksak natijalarga erishish xosdir. Ikkinci yetuklik yoshida funksional imkoniyatlarning barqarorlashuvi davrida jismoniy tarbiya yo'nalishi erishilgan yaxshi ish qobiliyatini, erishilgan jismoniy tayyorgarlik darajasini saqlab turish sifatida qatnashadi. Ancha kechroq davrlarda (ayollar - 55 yoshdan, erkaklar - 60 yoshdan) jismoniy tarbiya turli xil salbiy omillarning inson sog'lig'iiga ta'sir qilishiga qarshilik ko'rsatishga yordam beradi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish xususiyatiga ega bo'ladi.

Umuman aytish mumkinki, jismoniy tarbiya yo'nalişlarining yoshta mosligi tamoyili jismoniy mashqlar bilan ko'p yillik shug'ullanishlar jarayoni jismoniy tarbiyadan foydalanishda muhim hisoblanadi. Ko'rib chiqilgan tamoyillar yaxlit jismoniy tarbiya jarayonining turli xil qonuniyatları va tomonlarini aks ettiradi. Ular bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'langan printsipial metodik qoidalar yig'indisini emas, balki birligini tashkil etadi. Biron-bir tamoyildan chekinish jismoniy tarbiyaning butun murakkab jarayoni buzilishiga va o'qituvchi hamda o'quvchining katta mehnati deyarli samarasiz bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

O'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasi ularning yoshi va jinsiga bog'liqdir. Chunonchi, 8-9 yoshli o'g'il bolalar tanasining og'irligi va bo'yining uzunligi qizlardan bir muncha farq qiladi. 11 yoshda o'g'il bolalarda jismoniy rivojlanishning eng kam jadalligi kuzatiladi. O'g'il bolalarda jinsiy yetilish boshlanishi bilan (12 yosh) bo'yining o'sishi yiliga 6-10 sm ga yetadi. Gavda og'irligi 4,0 kg, ko'krak qafasining aylanasi esa 3-5 sm dan o'sadi, 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda gavda vazni o'rtacha 25 kg dan 45 kg ga yetib, jadal rivojlanish ro'y beradi. Shunday qilib, o'smirlar va yoshlarning notekis jismoniy rivojlanish davri boshlanadi. Gavda vazni, bo'yi va ko'krak qafasi aylanasining o'sishi tengsiz qaramaqarshiliklarda namoyon bo'ladi. Barcha yoshdagi guruhlarda vaznning o'sishi ko'krak qafasining o'sishidan ko'ra ancha yuqori. O'g'il bolalarda mushaklarning ko'ndalang o'lchamlari va og'irligining o'sishidan gavda uzunligini oshishi ustunroq. Mushaklar og'irligining tana og'irligiga nisbati 15 yoshda taxminan 33 foizga yetadi, 17-18 yoshda esa 44 foizni tashkil qiladi.

Qizlarning jinsi yetilishi davrida yigitlarga nisbatan organizmda aniq o'zgarishlar ko'proq kuzatiladi. U o'rtacha 1-2 yil ilgari pubertat sakrash ko'rinishida: gavda o'lchamlarining (bo'y, ko'krak kengligi) jadal o'sishi bilan boshlanadi. Ammo bu o'zgarish notekis ro'y beradi: 10-12 yoshda gavda uzunligining o'sish ustunligi kuzatiladi, 13 yoshda esa vaznning o'sishi yaxshilanadi. Tibbiy kuzatishlar shundan dalolat beradiki, hayz ko'rish davrida jismoniy faollik pasayadi, 80 foiz hollarda yolg'izlikka intilish namoyon bo'ladi, 60 foiz qizlarda o'ziga bo'lgan ishonch pasayadi, 47 foizda mashg'ulotlarga qiziqish susayadi. Bularning hammasini jismoniy

tarbiya o'qituvchisi darslar o'tkazish amaliyotida, mashg'ulotlar, o'yinlar va musobaqlarda e'tiborga olishi kerak. O'quvchilarda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarining hali to'la rivojlanmaganligi mushaklar faoliyatiga ta'sir qiladi.

Chunonchi, maksimal kislorod iste'moli (MKI) yugurish vaqtida 7-9 yoshli bolalarda 55-57sm 3kg, 12-13 yoshlarda – 56-58sm 3kg, 14-17 yoshlarda – 59sm 3kg, 18-19 yoshlarda – 61,6sm 3kg ni tashkil etadi. Kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilar qonida kislorodning yetishmasligi o'zgarishsiz bo'lishi tufayli mashg'ulotlar joyi va vositalarni tanlash vaqtida ularni hisobga olish juda muhim.

Bu yoshdagi bolalarda, energiyadan foydalanish koefitsienti past va ularning umumiy energetik sarfi kattalarnikidan ancha yuqori. Ruhshunoslarning fikricha, kichik maktab yoshida bola atrofdagilar orasida o'zining o'rnini anglay boshlaydi va unda faoliyatga intilish vujudga keladi. Bu nafaqat uning o'zi uchun muhim, balki boshqa odamlar uchun ham zarur. O'smirlilik yoshida o'z-o'zini namoyish qilish va o'zligini tasdiqlashga ehtiyoj tug'iladi. O'smirlarning o'ziga xos belgisi musobaqaga intilish, o'zining jismoniy qobiliyatini namoyish qilishdan iboratdir.

O'smirlar har doim ham o'zining kuchini obyektiv baholay olishmaydi, ko'pincha o'zlariga ortiqcha baho beradilar. Katta yoshdagi maktab o'quvchilariga jamiyatda jamoaning a'zosi sifatida o'zining o'rnini aniqlashga ehtiyoji xosdir. Ular uchun gavdaning tashqi ko'rinishi (qaddi-qomati) muhim. Yigitlar kuchli va yaxshi rivojlangan mushaklarga ega bo'lishga intiladilar.

## **5.2. Inson kapitali va uning elementlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya, ommaviy sportning o'rni va ahamiyati.**

Maktab yoshi inson hayotining katta va juda muhim davrini qamrab oladi. Kichik, o'rta va katta yoshdagi maktab bolalari, yigitlar va qizlar jismoniy imkoniyatlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bu, ayniqsa, jismoniy sifatlarning notekis o'sishida ko'zga tashlanadi. Qizlarni chiroyligavda, xipcha bel va boshqa omillar jalb qiladi. O'qituvchi ularni mustaqil jismoniy mashg'ulotlarga jalb qilishda bu intilishlardan foydalanishi kerak.

Maktab yoshida tezkorlik sakrab-sakrab, sensitiv o'sishning ikki davri

orqali o'tadi: birinchisi davri - 8-10 yoshda; ikkinchisi 13-15 yoshda. 15-17 yoshda yugurishning tezkorlik darajasi hatto bir muncha pasayishi, masofadan o'tish tezligi esa o'sishi mumkin. Bu faqat qadamlar uzunligi va oyoqlar kuchining ko'payishi hisobiga yuz beradi. Bunday tabiiy qonuniyat aynan o'sha yoshga mos uslublar va vositalarni tanlashni talab qiladi. Mushak kuchi bola organizmi rivojlanishining ilgarilab borishi bilan oshadi, ammo bu to'g'ri chiziqli o'sish bo'lmaydi.

Sust o'sish davrlari nihoyatda jadal o'sish ko'rsatkichlari bilan almashinib turadi. Sensitiv davrda qizlar va bolalardagi rivojlanish, odatdagidek, bir-biriga mos kelmaydi. Qizlarda mushak kuchining sakrab-sakrab o'sishi 10 dan 13 yoshgacha davrda kuzatiladi. 14 yoshda ularda kuchning tabiiy o'sishi sekinlashadi, 14-16 yoshlar o'rtaida esa hatto pasayishi mumkin. 17 yoshda qizlarda kuch ko'rsatkichlari yana bir oz ortadi.

O'g'il bolalarda 8 dan 15 yoshgacha kuchning ravon o'sishi ro'y beradi. 15 dan 17 yoshgacha esa barcha mushak guruhlarining mutlaq kuch ko'rsatkichlari keskin sakraydi, 18 yoshda mushak kuchining jadal o'sishi ancha pasayadi, ba'zida esa batamom to'xtaydi ham. Ko'pchilik mushaklarning nisbiy kuchi (bir kilogramm og'irlikka) 13-14 yoshdayoq kattalar darajasiga yaqinlashadi, bu dalil jismoniy tarbiya amaliyoti uchun qiziqarlidir.

Aynan shuning uchun bolalarda jismoniy mashqlarning hal qiluvchi omili mutlaq emas, balki nisbiy kuchdir. Shunga qaramasdan, jinsiy yetilish davrining oxirida mushaklar o'zining funksional xususiyatlari bo'yicha katta odamning mushaklaridan kam farq qiladi, kuchning maksimal ko'rsatkichlariga faqat 16-20 yoshda erishiladi. Bu katta miqdordagi harakatlantiruvchi birliklarni tez safarbar qilish qobiliyati va koordinatsiyaning yaxshilanishi bilan, uzoq muddatli statik taranglashish va qisqarish qobiliyatlarining o'sishi bilan, mushaklar og'irligining ancha ortishi bilan bog'liq.

Chaqqonlik (yoki koordinatsion qobiliyat) sifatini tarbiyalashga 7 dan 12-13 yoshgacha eng ko'p darajada e'tibor beriladi. Lekin koordinatsiyaga ega passiv o'smirlar yuqori koordinatsiyali chaqqon tengqurlaridan farq qiladi. Bolalarda to'qimalarning qayishqoqligi yuqori darajada bo'lganligi tufayli egiluvchanlik yetarlicha muvaffaqiyatli ravishda rivojlanadi. O'qituvchining

vazifasi bolalarning egiluvchanligini optimal ko'rsatkichlarga olib borib, yoshiga qarab pasayishiga yo'l bermay, bu sifatning rivojlanishini boshqarishdan iborat.

Demak, uy vazifasi sifatida ko'p topshiriqlar berish, keyin esa ulardagi o'zgarishlarni santimetrik yoki graduslarda o'chlab nazorat qilish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, chidamlilik qizlarda 8 yoshdan 13 yoshgacha, ayniqsa, 11-13 yoshda tez rivojlanadi, 14 yoshdan keyin esa ko'rsatkichlar pasaya boradi. Chidamlilikning o'sishi eng ko'p sakrash mashqlarida kuzatiladi. Funktsional imkoniyatlarning bunchalik katta o'sishi keyingi yillarda ko'zga tashlanmaydi. O'g'il bolalarda chidamlilik ko'rsatkichlarining o'sishi 9 yoshdan 17 yoshgacha qayd etiladi. Chidamlilikning ahamiyatli o'sishi tufayli gavdaning jadal o'sishi vaqtiga bilan pasayib turadi.

Chidamlilik ko'rsatkichlari rivojlanishining eng sezilarli davri 11-14 va 17 yoshlardir, 14 yoshda eng yuqori darajaga ko'tariladi. Maktab yoshidagi bolalar organizmi ikkita muhim xususiyatga ega, ularni bilish mifik o'qituvchisiga jismoniy sifatlarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli yechish imkonini beradi. Birinchidan, bu davrda yuklama va mashqlarning samaradorlik darajasi juda yuqori. Taxminan 17-18 yoshgacha jismoniy sifatlarning ko'rsatkichlari berilayotgan yuklamaga to'g'ri nisbatda o'sadi. Chunki 18 yoshdan keyin foydali harakat koeffitsienti pasayadi, o'sha samarani olish uchun nihoyatda katta zo'r berish talab qilinadi.

Ikkinchidan, bu yoshda bir sifatning rivojlanish diapazoni boshqalarining rivojlanishiga ko'maklashadi. Binobarin, mashg'ulotlarni olib borishda jismoniy mashqlar jismoniy sifatlarni tarbiyalashga majmuali yondashish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ilmiylik vazifalari boshlang'ich ta'lim yoshida harakat ko'nikma va malakalarini egallash, shuningdek, chiniqish, shaxsiy gigiyena, harakat tartibi to'g'risida, inson salomatligi uchun jismoniy mashqlar ahamiyati haqidagi bilimlarni egallash bilan bog'langan.

Bu yoshda vujudga kelgan shartli aloqlar tizimi ancha mustahkamligi bilan farq qiladi va kelajak hayotda harakat sifatlariga ta'sir ko'rsatadi. Harakat ko'nikma va malakalarning tashkil topishi bilan bog'liq davrda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun bu qulaylikni qo'lidan chiqarib yubormaslik muhim. Chunki ularning oqibatini tuzatish uchun nihoyatda ko'p kuch va ko'p vaqt sarflashga to'g'ri keladi, chunonchi, 7-9 yoshda

suzish texnikasini o'rgatish 17-19 yoshdagiga qaraganda ancha oson bo'ladi. Bolalarni harakatlarga o'rgatish davomida muayyan harakat tajribasi to'planadi. Bu uddalay bilish va mahoratlarni egallashning murakkab jarayonini ancha yengillashtiradi.

Sog'lomlashtirish vazifalari bolalar organizmining tabiiy ravishda rivojlanishiga ko'maklashadi, uning funksional imkoniyatlari o'sishini ta'minlaydi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, bu tezkorlik va chaqqonlik sifatlariga tegishlidir, chunki quyi sinflarda o'rgatish aynan shu sifatlarning jadal rivojlanishi uchun eng qulay bo'lgan davr hisoblanadi.

Chidamlilikni rivojlantirishda asosiy vazifa bolalar organizmining aerob imkoniyatlarini oshirishga ko'maklashish va shu asosda umumiy chidamlilikni ta'minlashdan iboratdir. Kuchni rivojlantirish vazifasi, eng avvalo, gavdani shakllantirish va rivojlantirish, qoloq mushak guruhlarini mustahkamlash bilan bog'langan. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida egiluvchanlikni yoshga muvofiq ravishda, to'qimalar qayishqoqligining kamayishi va mushaklar massasining oshishi ko'rsatkichlari pasaymasligi uchun, optimal chegaralarda saqlab turish kerak.

O'yinlar, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish axloqiy tarbiya vazifalarini yechish uchunsharoit yaratadi. Muayyan qoidalar mavjudligiga qaramasdan, o'yinda har doim har xil vaziyatlar paydo bo'ladi, ular misolida "bunisi yaxshi, bunisi yomonligi" ni ko'rsatish mumkin. Jismoniy tarbiya va sportga qiziqish uyg'otish vazifasiga boshlang'ich ta'limda e'tibor qaratish kerak. Chunki bolalikda o'rganilgan odat juda mustahkamdir. Bolalarda jismoniy mashqlarga doimiy qiziqishni faqat ularga quvonch olib kelgan mashg'ulotlardagina orttirish mumkin.

### O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:

1. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning axloqiy jihatlari nimada?
2. Inson kapitali va uning elementlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning roli?
3. Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya oldida turgan muhim vazifalar nimalardan iborat?
4. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini inson organizmiga ta'siri qanday?

**Ommaviy sport-sog'lomlashtirish  
tadbirlarini tashkillashtirish**

5. Jismoniy tarbiya fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
6. Chidamlilik ko'rsatkichlari rivojlanishining eng sezilarli davri necha yoshga to'g'ri keladi?

## 6-MODUL. MAMLAKATDA OMMAVIY SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR



### 6.1. Uzluksiz ta'limda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini tashkiliy - boshqaruv asoslari.

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab o'linishini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanadirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublika vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon championatlari, Osiyo o'yinlari va xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-e'tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, mamlakat hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba yoshlar o'rtaida uch bosqichdan iborat sport o'yinlari ommalashib borayotgani e'tiborlidir. Shu bilan birga, mamlakatning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodollarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy



sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishda quyidagilar Dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

- jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport komplekslarini qurish, ularni zamonaviy sport uskunalarini va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash;

- ta'lim muassasalarini o'quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o'rtasida sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash;

- ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, Dasturning mazmun-mohiyati hamda uni amalga oshirish jarayoni to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish.

2. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi bajarilishini muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi tarkibi etib quyidagilar:

Dasturda nazarda tutilgan barcha chora-tadbirlarni to'liq amalga oshirilishi yuzasidan mas'ul vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish; belgilangan muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Dastur ijrosini ta'minlash bo'yicha hududiy ishchi guruhlar tashkil etilishini ta'minlash; belgilangan muddatda Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman hokimliklari tomonidan ushbu qaror va dasturdan kelib chiqqan holda hududiy dasturlarni ishlab chiqilishini ta'minlash; belgilangan muddatda yoshlар orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, ularni maqsadli tayyorlashishlarini tizimli tashkillashtirish va nazorat qilish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. Respublika komissiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning natijalari hisobotini tinglash muntazam ravishda hukumatning yarim yillik majlislarida muhokama qilib borilishi belgilangan.

3. Dasturning moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari ta'lim va tibbiyat muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari; O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, jamg'armalar, sport federatsiyalari (uyushmalari), klublari, xorijiy investorlar, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari; qonun hujjatlarida taqilangan boshqa manbalar.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari aholi, o'quvchi va talabalarni sport musobaqalariga, respublika sport tadbirlariga yuborish uchun mablag'lar Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq ajratilishini ta'minlagan.

5.O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi: sport inshootlarini yangidan qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlashishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlashi; Dasturni amalga oshirish doirasida bajariladigan loyihibiy va qurilish-montaj ishlari sifati, shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini o'rnatishi hamda buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar tomonidan tuzilgan shartnomalar shartlari bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishi

belgilangan.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tomonidan bildirilgan hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida sport tibbiyoti bo'limlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risidagi takliflar ma'qullangan.

7. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligiga:

Dastur va uning asosida ishlab chiqilgan hududiy dasturlarda belgilangan barcha chora-tadbirlarni ijrosini o'z muddatida sifatli amalga oshirilishi yuzasidan tegishli vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va hududiy ishchi guruhlarga tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

O'zbekiston terma jamoalari sportchilarining o'quv-mashg'ulot yig'inlari, jahon birinchiliklari, Osiyo o'yinlari va championatlari, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida musobaqalar yakunlarida erishilgan natijalarni chuqur tahlil qilish va tizimli monitoringini olib borish; yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan sport maktablariga, ta'lim muassasalari va sport klublariga iqtidorli sportchilarni qabul qilish jarayonlarining shaffofligi va xolisligini ta'minlash yuzasidan doimiy ravishda ta'sirchan choralar ko'rish hamda har chorak yakunlari bo'yicha qo'mitaning majlislarida tanqidiy-tahliliy muhokamadan o'tkazish vazifalari yuklangan.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklariga esa sport inshootlarining yil davomida uzlusiz faoliyat yuritishini ta'minlash, ulardan samarali foydalanish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ehtiyojga ko'ra sport inshootlarini muqobil energiya manbalari bilan jihozlash choralarini ko'rishi, tegishli hududda sport federatsiyalariga (uyushmalariga) biriktiriladigan homiy tashkilotlarning amaliy yordam berish turlari (bino va inshootlardan bepul foydalanish, mablag'lar hamda sport anjomlari bilan ta'minlash va h.k.) bo'yicha takliflari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga doir barcha masalalar hal etilishini ta'minlashi yuklatilgan.

9. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini

rivojlantirish vazirligi Dasturning mazmun-mohiyati hamda uning doirasida tashkillashtiriladigan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog'i orqali aholi orasida muntazam va keng yoritilishini ta'minlashi belgilangan.

**O‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish uchun savollar:**

1. Mamlakatda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar doirasiga nimalar kiradi ?
2. Uzluksiz ta'lim sohasi necha bosqichga bo'linadi?
3. Uzluksiz ta'limda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini tashkiliy va boshqaruv asoslari nimalardan iborat ?
4. Inson kapitali va uning elementlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni o'rni qanday?
- 5.Ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini boshqaruv asoslari nimalardan iborat?



## 7-MODUL. OMMAVIY SPORT – SOGLOMLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI



7.1. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarining maqsadi va vazifalari, vositalari va muammolari.

7.2. Sog‘lomlashtirish jismoniy mashg‘ulotlarda qo‘yiladigan pedagogik -gigienik talablar.

7.3. Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari yo‘nalishlari (gigiyenik,s og‘lomlashtiruvchi,tiklovchi, umumtayyorgarlik, amaliy - kasbiy).

7.4. Ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlari.

7.5. Sog‘lomlashtirish jismoniy mashqlarni amaliy kasbga yo‘naltirilgan tamoyili (jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili)

O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da oliy va o‘rta - maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanadi hamda bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

**Bakalavriat** – mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallangandan so‘ng bitiruvchilarga bakalavr darajasi berilib, diplom topshiriladi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo‘nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga talablar:

Dunyoqarashi, xarakterida tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi va jarayonlarini mustaqil tahlil qila olishi, Vatan tarixini bilishi, ma’naviy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar masalalarida o‘z fikrini

bayon qilish, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi, insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini bilishi va uni kasb faoliyatida hisobga olishi, sog‘lom hayat tarzini yuritishi, o‘z-o‘zini chiniqtirishi, raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va o‘z mehnatinini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

O‘zbekiston davlat ta’lim standartida bakalavr tayyorgarligi bo‘yicha o‘tiladigan har bir fan bloklari bo‘yicha bilim va malakalarga talablar belgilangan, shuningdek, ta’lim dasturining mazmuni va tuzilmasi asosida o‘quv yili davomida o‘tiladigan blok fanlariga o‘quv soatlari ajratilgan va uning mazmuni belgilab berilgan. Masalan: kasbga oid fanlar, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo‘yicha davlat ta’lim talablari asosida talabalarni o‘rganishi zarur bo‘lgan bilim hajmi fanda mavzular bo‘yicha berilgan.

**Magistratura** – aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta’limdir. 2 bosqichli oliy ta’lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni: Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, professor-o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash, chet el yetakchi o‘quv va ilmiy markazlarida kadrlarni tayyorlash, oliy o‘quv muassasalariga o‘zgartirishlar kiritish, yangi pedagogik va axborot texnologiyatlarni joriy qilishni amalga oshirish kerak.

**Universitet va institutlarning jismoniy madaniyat fakultetlarining vazifasi** – xalq ta’limi tizimida pedagogik faoliyat qilish uchun raqobatga bardosh bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik malakasidan kelib chiqqan holda mutaxassis yuqori kasbiy tayyorgarlik darajaga ega bo‘lishi, fuqarolik va yuqori axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi, topshirilgan vazifaga ijodiy yondashish va javobgarlikni sezishi kerak.

Talabalarning jismoniy tarbiyasi bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisini tayyorlashda asosiy va ko‘p qirrali bo‘limdir. U mutaxassisning nazariy va amaliy o‘quv tarbiya jarayonida pedagogik malakalarni amalga

oshirishni ta'minlaydi.

Jismoniy tayyorgarlik sport pedagogik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda, sport pedagogik takomillashtirish guruhlarida, o'qishdan tashqari tadbirlar shaklida amalga oshiriladi.

Jismoniy madaniyat fakultetining o'quv rejasi sport pedagogik fanlar maktab dasturidagi jismoniy mashqlarning turlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Sport pedagogik fanlarining dastur materiallarini o'zlashtirib olish jarayonida harakat malakalarini va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni shakllantirish umumta'lim maktablarida qo'llaniladigan jismoniy tarbiya shakllarini o'tkazish uchun talabalarda bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy pedagogik malakalarni shakllantirish orqali olib boriladi.

Egallangan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini va aniq pedagogik vazifalarni yechishdagi malakalarni pedagogik ma'lumotning bosqichlarida jismoniy madaniyat o'qituvchisi, pedagog-tarbiyachi rolida sinovdan o'tkaziladi.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining jismoniy tayyorgarlik darajasi kasbiy faoliyati davomida pasayishi aniqlangan. Birinchi besh yillik ish davomida tezkorlik va tezlik – kuchlilik tayyorgarligi pasayadi. 6-10 yilgacha ish davomida kuchlilik tayyorgarligi, 11-16 yil ish davomida tezkorlik, tezlik - kuchlilik, 16 yildan keyin barcha sifatlar darajasi kamayadi.

Bu talabalarda jismoniy tayyorgarlikning pasayish davrlarida metodik usullar bilan o'rnni to'ldirishni, qayta shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayon jismoniy tayyorgarlikning zaruriy darajada mustaqil saqlab turish qobiliyatlarini talab qiladi.

## **7.2. Sog'lomlashtirish jismoniy mashg'ulotlariga qo'yiladigan pedagogik -gigiyenik talablar.**

Pedagogika yo'nalashida tahsil olayotgan talabalarga me'yoriy talablar kundan kunga oshib bormoqda. O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirish – ularning tarbiyaviy ishlardagi mahoratini, bolalar faoliyatini tashkil qilish, bolalar ishiga rahbarlik qilish, ular bilan shaxsiy ishlashida ko'rindi.

O'qituvchi tayyorgarligining pedagogik takomillashuvi asosiy kasbiy

yo‘nalishga bog‘liq va u kasbga shaxsni qat’iy qiziqishini shakllantiradi va zarur sifatlarni rivojlantiradi.

**Kasbiy yo‘naltirishga o‘rgatish** – o‘qituvchini maktabdagi ish xususiatlarini qat’iy hisobga olinishini talab qiladi. U talabalar jamoasida tarbiyaviy ishlarni va talabalarning jamoat – pedagogik faoliyatini aniqlaydi.

Pedagogika instituti talabalarini jismoniy (shaxsiy takomillashtirish), jismoniy tarbiya sohasidagi o‘qituvchilarni kasb yo‘nalishiga tayyorgarligi kelgusida ularni shakllantirish jarayoni uchun tarbiya haqida maxsus bilimlarni va harakat malakalarini aniq egallab olishini taqozo etadi. Shunga asosan, pedagogika instituti talabalarini jismoniy tarbiya jarayonidagi ayrim holatlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi vazifasini bajarishga yordam beradigan metodik tayyorgarlikni ham o‘zlashtirishi zarur.

Jismoniy tarbiyaning kasbga yo‘nalishlari bo‘yicha ishlarning mazmuni o‘quv yilda maxsus ishlab chiqilgan o‘quv dasturida belgilangan. Jismoniy tarbiyada kasbiy tayyorgarlik mazmuni o‘qituvchilarning barcha mutaxassisligiga zarur bo‘lgan, jismoniy tarbiya talablarining to‘la amalga oshishi uchun jismoniy tarbiya malaka va ma’lumotlar hajmini ko‘zda tutadi.

Nazariy ma’lumotlar hajmi quyidagicha: jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakllari, tashkil qilish asoslari, metodlari, tibbiy nazorat va boshqalar;

Malakalarini egallah hajmi quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) o‘quvchilarning jismoniy mashqlar mashg‘ulotiga muntaзам jalb qilish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish malakalarini o‘zlashtirish;

b) maktabda umumiylar tarbiyaviy ishlarni tizimida jismoniy madaniyat tadbirlarini rejalashtirish;

v) jismoniy vositalarni tanlay bilish;

g) ertalabki gigiyenik gimnastika, gigiyenik talablarni, harakatli o‘yinlarni kundalik turmushga singdirish.

## **I. Tashkilotchilik malakalari**

Jismoniy madaniyat ishlari rejasi bo‘yicha sinf faollarini ishini tashkil qilish va pedagogik vazifalardan kelib chiqib jismoniy madaniyat vositalarini qo‘llash, o‘quv kun tartibidada jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkillashtirish va sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar, ota-onalarni jalb qilish malakalarini egallah.

## **II.Kommunikativ malakalar.**

O‘quvchilar bilan muomala qila bilish, mustaqil jismoniy mashqlar mashg‘ulotida tashabbuskorlikni rivojlantirish, jamoani tashkil qilish uchun jismoniy tarbiya vositalarini qo‘llash, jismoniy madaniyatni o‘quvchilar, ota – onalar orasida targ‘ibot qilish malakalarini egallah.

## **III.Gnostik (bilim) malakalari**

O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini nazariy bilimlarga tayanib tahlil qila bilish,o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish vositalarini qo‘llay bilish malakalarini egallah.

Bulardan tashqari, pedagogika oliygohlari bitiruvchilarining shaxsiy jismoniy tayyorgarligini saqlab turish va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarini tarbiyalash uchun kundalik turmushda jismoniy tarbiya vositalarini qo‘llay bilish malakalarini egallashi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan bilim va malakalarni sport takomillashtirish guruhrarida, sport to‘garaklarida mustahkamlash mumkin (hakamlik qilish, jamoatchi murabbiy sifatida va boshqalar). Jismoniy tarbiya bo‘yicha kasbiy yo‘nalishdagi talabalar fakulteti turlari bo‘yicha aniqlanadi. Misalan: muktabgacha yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasi «Bolalar bog‘chasida jismoniy tarbiya dasturi» bo‘yicha olib boriladi.

### **Pedagogika institutlarida talabalarning kasbiy – pedagogik jismoniy tayyorgarligi.**

O‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligi bolalar bilan jismoniy tarbiyani kichik shakllarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan harakat ko‘nikma va malakalarni egallab olishi shartdir. Bunday shakllarga quydagilar kiradi: Ertalabgi gigiyenik gimnastika, jismoniy madaniyat daqiqalari, harakat o‘yinlari, sayohat, sayr qilish va boshqa har xil sport tadbirlari.

Talabalar pedagogik amaliyot jarayonida maktabda har xil ish faoliyati bilan tanishadilar. Misalan: sinf rahbarini vazifasini bajarish, tashkilotchilik ishlari .

Shunga asosan talabalarning kasbiy-pedagogik jismoniy tayyorgarligida tubandagi vazifalar yechiladi:

1. Yosh avlodga ta’lim berish va tarbiyalashning umumiy tizimida jismoniy tarbiyaning ahamiyatini ochib berish;
2. O‘qituvchilarni vosita, metodlar va jismoniy tarbiyasining har

xil shakllaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish. Buning uchun sog‘ligini mustahkamlash, chiniqtirish, to‘g‘ri qad-qomatni shakllantirishga, jismoniy sifatlarni tarbiyalashga ko‘maklashish, jismoniy mashqlarga muntazam qiziqtirish uchun ta‘sir qilish.

Jismoniy tarbiya bo‘yicha talabalarning kasbiy yo‘nalishi fakultet yo‘nalishlari asosida aniqlanadi.

Boshlangich ta’lim metodikasi fakultetlarida talabalarning mashg‘ulot mazmuni va shakli jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi dasturida belgilangan.

### O‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish uchun savollar:

1. Pedagogika institutlarida talabalarning kasbiy – pedagogik jismoniy tayyorgarligi nimalarga asoslanadi?
2. Sog‘lomlashtirish jismoniy mashg‘ulotlarida qo‘yiladigan pedagogik -gigiyenik talablar nimalardan iborat?
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmuni haqida qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?
4. Ommaviy sport-sog‘lomlashtirish ishlarini rivojlanish bosqichlarini aytib bering?.
5. Sog‘lomlashtirish jismoniy mashg‘ulotlariga qanday gigiyenik talablar qo‘yiladi?
6. Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining qanday yo‘nalishlari mavjud?

## **8- MODUL. DARSDAN TASHQARI SPORT – SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

### **8.1.Sport-sog'lomlashtirish ishlarining mazmuni va metodikasi.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldaggi “Davlat ta'lif muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati Qarorning maqsadi- o‘quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish tizimini takomillashtirish, iste’dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoalar zahirasini shakllantirish, shuningdek, sportchilarni tibbiy ta’minalash ishlarini tashkil etish.

Qarorning 3-bandida. Quyidagilar sport klublarining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ‘ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida sport turlari bo‘yicha jamoalar tashkil etish, ular o‘rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, xususan, “maktab ligasi”, “talabalar ligasi” tashkil etish orqali iste’dodli yosh sportchilarni aniqlash;

- umumta’lim maktablarida-o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalg qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish, sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sport to‘garaklari bo‘yicha haftasiga kamida 4 soatdan sinfdan tashqari sport to‘garaklari mashhg‘ulotlarini tashkil etish;

- jismoniy tarbiya va sport jarayoniga mashhg‘ulotlar o‘tkazish uchun malakali trenerlar va mutaxassislarni jalg etish, shuningdek, ilg‘or tajribani joriy qilish.

Qarorning 5-bandida qo‘yidagilar sport klublarining moliyalashtirish manbalari etib belgilangan:

Sport jamiyatning byudjetidan tashqari mablag'lari (umumta'lim maktablari huzurida tashkil qilingan sport klublari uchun);

Assotsatsiya mablag'lari (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarini huzurida tashkil qilingan sport klublari uchun);

Yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

Xorijiy va xalqaro tashkilotlar hamda homiylik davlat grantlari;

Qonun hujjatlarida ta'qilganmagan boshqa manbalar. Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, millat genofondini asrash, oilada, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport turida yuqori natija ko'rsata oladigan qobiliyatli, iste'dodli sportchilarni qidirib topish, sport turlarini rivojlantirish hamda ularning ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni saralash va yuqori malakali murabbiylarni tayyorlash, sport inshootlari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida respublikamiz hududlarida barpo etilgan barcha sport inshootlari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, ta'lim muassasalarida talabalarni sog'lomlashtirish va muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun sport seksiyalarini tashkil etish, talabalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun oliy ta'lim muassasalarini sport zallarida ular bilan o'tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko'lamini kengaytirish, qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarida "Sog'lomlashtirish" sport klubi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Talabalarni sport tayyorgarligi, ularni respublika va xalqaro musobaqalarga tayyorlashlari oliy va umumta'lim muassasalarida tashkil etilgan sport klublari orqali yo'lga qo'yiladi.

Oliy ta'lim muassasalarini qoshida "Talaba" sport klublari (keyingi o'rnlarda "Talaba" sport klubi deb yuritiladi) ni tuzish orqali talaba-yoshlarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari

zaxirasini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarining pedagog va boshqa xodimlarini sportga jalb qilish, shuningdek, sport klublari faoliyatini samarali yo'nga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, faollashtirishga hamda uning moddiy-texnik bazasini tubdan takomillashtirishga qaratiladi.

Ushbu "Talaba" sport klubini tuzish va faoliyat olib borishida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

- sport klubi –bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqasi va tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish, talaba-yoshlarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari zaxirasini shakllantirishga ko'maklashuvchi a'zolik asosida tuzilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti;

- nodavlat notijorat tashkiloti–jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydan) o'z qatnashchilarini (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkilotidir;

- **ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari**–aholini jismoniy-tarbiya mashg'ulotlariga jalb etishga va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;

- **sport musobaqasi**–sportchilar o'rtasida yoki sportchilar jamoalari o'rtasida har xil sport turlari (sport ditsiplinalari–sport tartib-intizomi) bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtiroychisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo'yicha o'tkaziladigan bellashuv.

## **8.2.Musobaqalar o'tkazish Nizomi**

**Sport inshooti**–sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari, o'quv-mashq yig'inlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan, o'ziga qo'yiladigan normativ talablarga javob beradigan hamda tegishli pasportga ega bo'lgan yopiq yoki ochiq tipdag'i ixtisoslashtirilgan inshoot.

**Sport tadbirlari** – sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorlarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar.

Sport federatsiya, jamiyat, assotsiatsiya (uyushmasi) – bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek, sport tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish hamda sportchilarni – O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a'zolarini sportning tegishli turi bo'yicha tayyorlash uchun a'zolik asosida tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat, notijorat tashkilot.

I."Talaba" sport klubining umumiy qoidalari.

1.1. Mazkur Nizom "Ta'lim to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Nodavlat, notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq sport klubini tuzish, uning maqomi, faoliyat olib borishi va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

1.2. Sport klubi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, o'z Nizomiga amal qiladi.

1.3. Sport klubi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z Nizomiga, bank muassasalarida hisob raqamlariga, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan o'z nomi ko'rsatilgan muhr va shtamplarga hamda o'z faoliyatida zarur bo'lgan atributiga va rekvizitlarga ega bo'lish huquqiga ega.

1.4. Sport klubi bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramziy belgilarga ega bo'lishi mumkin. Sport klubining ramziy belgilari davlat ramziy belgilari o'xshamasligi kerak. Sport klubining ramziy belgilari Nizomga muvofiq uning rahbar organi tomonidan tasdiqlanadi hamda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

1.5. Sport klubiga nom yoki maqom berish va ta'sis hujjatlarini tasdiqlash tegishliligi bo'yicha O'zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

1.6. Sport klub o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

### **8.3.O‘quv muassasa sport kengashi. Sport klubining maqsad va vazifalari.**

II. O‘quv muassasa sport kengashi. Sport klubining maqsad va vazifalari.

2.1. **Sport klubining asosiy maqsadi:** Oliy ta’lim muassasalarini talaba-yoshlari, professor-o‘qituvchilari, magistrantlari, ilmiy xodimizlanuvchilari, ishchi-xizmatchilar va pedagog murabbiylarini ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish orqali ularning salomatligini mustahkamlash, bo‘sh vaqtarni mazmunli o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzini shakkantirish, talabalar va o‘quvchi-yoshlarni sport musobaqalarga keng jalb etish; - talabalar va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida Xalqaro olimpiada qadriyatlarini hamda umuminsoniy qadriyatlarni, insonparvarlik,adolatparvarlik, halollik va halol sport kurashini ulug‘lash, hurmat qilish hissini tarbiyalash; - sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sport mashg‘ulotlari va musobaqalarni o‘tkazish orqali OITS va giyohvandlikka qarshi kurash, shuningdek, chekish va spirtli ichimliklari iste’mol qilish kabi turli zararli illatlarni oldini olish.

Sport klubining vazifalari va faoliyat sohasi quyidagilardan iborat:

-oliy ta’lim muassasasi tizimidagi sport seksiyalari va sport to‘garaklaridagi mashg‘ulotlar jadvalini ma’qullashtirishga ko‘maklashish, har bir sport turlari, eng avvalo, sportning Olimpiya va milliy turlari bo‘yicha yangi qo‘sishma seksiya va guruuhlar tashkil etish hisobiga yoshlarni, shu jumladan, qizlarni sport bilan shug‘ullanishga yanada kengroq jalb etish;

- oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida iste’dodli yosh sportchilarni aniqlash, yuksak mahoratli sportchilar zaxirasini tayyorlash va sport turlarini rivojlantirish ishlarini olib borish;

- oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlar o‘rtasida turli sport musobaqalar, tadbirlarini o‘tkazish orqali seleksiya ishlarini doimiy tarzda yo‘lga qo‘sishmini hamda yuqori mahoratli sportchilarni tanlab olinishini ta’minlashga ko‘maklashish; - sport, tinchlik, hamkorlik va o‘zaro totuvlik g‘oyalarini targ‘ib qilish;

- yuksak mahoratli sportchilar zaxirasini tayyorlash barobarida sport turlari bo‘yicha tashkilotlar, sport turlari bo‘yicha federatsiyalar bilan

hamkorlikda iqtidorli o'quvchi sportchilar uchun o'quv-mashg'ulot yig'inalarini tashkil etish;

- sport, tinchlik, hamkorlik va o'zaro totuvlik g'oyalarini hamda yuqori natijalarga erishgan yosh sportchi va trenerlarning yutuqlarini talaba va o'quvchilar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida davra suhbatlari, seminarlar hamda master-klasslarni uyushtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida tizimli ravishda Respublikaning yetakchi sportchilari, Olimpiya va Osiyo o'yinlari, Jahon championatlari va boshqa xalqaro musobaqalar championlari hamda sovrindorlari ishtirotkida ko'rgazmali mahorat saboqlari o'tkazilishini tashkil etish;

-sport klubi o'z faoliyatini rivojlantirish bo'yicha dastur va loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun sarmoyador va homiylar bilan hamkorlik qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ko'magida "Universiada" sport musobaqalarini o'tkazish orqali talaba yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ular o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish;

- "Universiada" sport musobaqalarining quiyi bosqichlarini sifatli o'tishini ta'minlash maqsadida taqvim rejalarini ishlab chiqish hamda musobaqalarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish;

- oliy ta'lim muassasalarida sport sohasidagi o'sish darajasini monitoringini olib borishni yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yuqori sport natijalariga erishgan sportchi va murabbiylarni sport klubni tomonidan rag'batlantirish;

- oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlari orasidan sport turlari bo'yicha Respublika terma jamoalari uchun asosiy va zaxira tarkibiga malakali sportchilarni tayyorlash hamda turli darajadagi musobaqalarda ishtirot etishini ta'minlash;

- sport klubni tomonidan sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoa a'zolari hisoblangan talaba-yoshlarni zaruriy anjom, jihoz, sport kiyimi (epikirovka), tibbiy-biologik, farmakalogik, farmatsevtik va boshqa taqiqlanmagan tiklash vositalari bilan ta'minlashni amalga oshirish shart-sharoitlarini yaratish; Sport klubni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan ta'qilganmagan va mazkur Nizom maqsad va vazifalariga zid bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ishlarni olib borishi

mumkin.

**O‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish uchun savollar:**

1. “Universiada” sport musobaqalarini sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati nimadan iborat?
2. “Universiada” sport musobaqasi birinchi marta qayerda va nechanchi yili o‘tqazilgan?
3. Sport klubining vazifalari va faoliyat sohasi nimalardan iborat?
4. .“Talaba” sport klubining umumiyligini qoidalari nimalardan iborat?



## 9- MODUL. OMMAVIY SPORT – SOG'LOMLASHTIRISH MUSOBAQALARI TIZIMI

### 9.1.Uzluksiz sport harakati umumo'zbek tizimi.

Milliy modelning eng asosiy tarkibiy qismi O'zbekiston o'quvchi-yoshlarining uch bo'g'inli uzluksiz sport musobaqalari tizimi bo'lib, u o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida sportga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirish, ularning jismoniy qobiliyatlarini namoyish etish, sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy talablar darajasidagi shart-sharoitlarni yaratish orqali ommaviy sportni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bu tizim o'quvchi yoshlarni sportga ommaviy jalb qilishda uzviylik va doimiylik, maqsadlilik va samaradorlik tamoyillariga asoslanib, quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

- sog'lom turmush tamoyillarini yoshlarning qalbi va ongiga singdirish hamda kundalik ehtiyojiga aylantirishga yo'naltirilgan tegishli tuzilma va boshqaruv mexanizmini yaratish, ular orqali hududlarda ommaviy sport harakatlarini shakllantirish;

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari doirasida o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga uzluksiz jalb qila oladigan yagona milliy model sifatida, umumiyo'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quvchilarini hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan havas va intilishini, qobiliyatini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'zлari tanlagan sport turlari bo'yicha muntazam shug'ullanishini ta'minlash. Boshlang'ich davrda tizim tarkibidagi «Umid nihollari» har yili, «Barkamol avlod» bellashuvlari toq yillarda va «Universiada» musobaqalari juft yillarda o'tkazilishi maqsadga muvofiq deb belgilandi.

Tashkiliy jihatdan qator qiyinchilik va muammolarga qaramasdan musobaqalarni o'tkazish shunday belgilanadiki, ta'lim tizimidagi o'quvchi yoshlarni qisqa muddatda uzluksiz sport harakatiga jalb etish va mazkur musobaqalar orqali joylarda ommaviy sport turlarini rivojlantirish, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlari, shuningdek, tuman, viloyat sport bazalarini talab darajasida tashkil etish, jihozlash va sport mutaxassislarining ishlarini yanada faollashtirish ko'zda tutildi.

Tizim musobaqalari ilk bor 1999-yilda mamlakat universitetlari jamoalari o'rtasida sportning yengil atletika va o'yin turlari bo'yicha o'tkazildi. Tajriba tarzida o'tkazilgan bu musobaqada tizimning barcha tashkiliy va boshqaruv jihatlari amalda har tomonlama ko'rilib, uning ishslash mexanizmlari o'rganildi.

Modelni mamlakat darajasida keng joriy qilishdan oldin, avvalgi yillarda o'tkazilgan o'quvchi va talabalar o'rtasidagi barcha musobaqalarning tashkiliy va boshqaruv mexanizmlari hamda universitetlararo sport bellashuvlarida talabalarning ko'rsatgan natijalari tahlil qilinib, tegishli xulosalar asosida uzlusiz ta'limdagi sport harakatining uch bo'g'inli sport musobaqalarini tashkil etish, o'tkazish va olov yoqish ritualini boshqarish tartibi, uning boshqaruv tizimiga xos tashkiliy mexanizm hamda mezonlari ishlab chiqildi.

Tizim musobaqalarining final bosqichlariga tayyorgarlik ko'rish, ularni joylarda hokimliklar, davlat va jamoa tashkilotlari ishtirokida o'tkazish bilan bog'liq boshqaruv va amaliy masalalarni tezkorlik bilan hal qilish hamda muvofiqlashtirish maqsadida respublika darajasida tashkiliy qo'mita tuzilishi belgilandi. Bundan tashqari, tashkiliy qo'mitaning sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalarida o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun joylarda ishchi guruhalining tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Amaliy ishlarni operativ darajada hal qilish maqsadida tashkiliy qo'mitaga hakamlar hay'atining tarkibi, belgilangan sport turlari bo'yicha va musobaqalar final bosqichlarini o'tkazish to'g'risidagi jadvallar va 1-2-bosqich musobaqalarining hisobotini hamda sport turlari bo'yicha musobaqalar qoidasi, ularni o'tkazish to'g'risidagi shartlarni tasdiqlash huquqi berildi. Mazkur tizimning birinchi Respublika final musobaqalari «Universiada» o'yinlaridan boshlanishi har tomonlama o'rganildi. Musobaqalarda o'ynaladigan ettita sport turini belgilashda milliy va olimpiya o'yinlari dasturidan o'rin olgan sport turlariga alohida e'tibor qilinib, o'quvchi-yoshlarning mazkur sport turlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularni bu o'yinlarga keng jalb etishga ahamiyat berildi.

Tizim musobaqalarining aynan uchinchi bo'g'indan joriy qilinishidan maqsad, ikkinchi-o'rta maxsus, kasb-hunar va birinchi-umumiy o'rta ta'lim

bo‘g‘inda respublika final musobaqalarini o‘tkazgunga qadar o‘quvchilarni bosqich o‘yinlari orqali ommaviy sport harakatiga keltirib olish, ularning sport turlariga bo‘lgan qobiliyati, ko‘nikma hamda mahoratini uzlusiz bellashuvlar orqali rivojlantirib olish edi.

## **9.2. Tizim sport musobaqalarining tashkiliy tamoyillari va o‘tkazish tartiblari.**

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qiydigan o‘quvchi yoshlarni qisqa muddatda respublika miqyosida uzlusiz sport harakatiga jalg etish maqsadida «Umid nihollari» sport musobaqalarini har yili, «Barkamol avlod» o‘yinlarini toq yillarda, «Universiada» musobaqalarini esa juft yillarda may va iyun oylarida final bosqichi sifatida o‘tkazish tartibi asoslanib, joriy etila boshlandi. Musobaqalarni uchinchi bo‘g‘indan ikkinchisiga va undan birinchisiga ketma-ketlikda izchil o‘tkazilishi mazkur modelning boshqaruva mexanizmlarini amalda bosqichma bosqich sinovdan o‘tkazish imkonini berdi.

Chunki tizimning uchinchi bo‘g‘ini barcha bosqich musobaqalarida faqat 100 mingdan ziyod talaba ishtirok etishi, uning millionlab o‘quvchilarni qamrab oladigan ikkinchi va birinchi bo‘g‘inlaridan ko‘ra boshqaruva va tashkiliy mexanizmlarini bu bo‘g‘inda amalda qo‘llab ko‘rish hamda zarur hollarda ularga tezkorlik bilan o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatini berdi.

Modelning ikkinchi bo‘g‘ini – «Barkamol avlod» sport musobaqalarida tashkiliy va boshqaruva mexanizmlari yanada takomillashtirilib, millionlab o‘quvchilarni qamrab oladigan eng asosiy bo‘g‘in – «Umid nihollari» o‘yinlari uchun mustahkam zamin yaratildi. Tizimni joriy etishdagi boshlang‘ich davrda «Umid nihollari» sport musobaqalarining final bosqichini har yili o‘tkazish maqsadga muvofiqligi asoslanib, ushbu tartib belgilandi.

Bunday tartib orqali umumiy o‘rta ta’limdagisi olti milliondan ortiq jismoniy tarbiya va sportga qiziqishi va ko‘nikmasi bo‘lmagan o‘g‘il-qizlarni qisqa vaqtida, sport turlaridan o‘tkaziladigan bosqich musobaqalariga jalg etish hamda uzlusiz musobaqalar, ommaviy sport bilan qamrab olish, tajriba va mahorati bo‘lganlarni keyingi bosqichga olib chiqib, bellashtirish imkonini tug‘ildi.

Shu tariqa 2000 yilda «Universiada» o‘yinlari final bosqichini o‘tkazish

bilan bog'liq barcha me'yoriy hujjatlar va ularni amalga oshirishga doir ko'rsatmalar hamda tegishli qoidalar belgilangan tamoyillar asosida yaratildi. Musobaqa o'tadigan joylarda yil davomida barcha tashkiliy ishlar jahon andozalari darajasiga yetkazilganidan keyin musobaqlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish respublika tashkiliy qo'mitasining qarori bilan "Universiada" belashuvlari Namangan viloyatida o'tkazildi.

Musobaqlarda mamlakatning 61 ta oliy ta'lif muassasalaridan faqat 42 tasi qatnasha oldi, lekin ular ham belgilangan 7 ta sport turining barchasida talabalar ishtirokini ta'minlay olmadidi. Musobaqa dasturiga kiritilgan sportning yengil atletika, o'yin turlari talabalar orasida rivoj topmagani sababli 15 oliy o'quv muassasasi sportning yengil atletika, 30 tasi voleybol, 28 tasi basketbol, 26 tasi futbol, 28 tasi shaxmat, 27 tasi stol tennisi, 27 tasi katta tennis, 29 tasi kurash turlarida qatnasha olmadilar. Belgilangan tartib asosida tizimning ikkinchi bo'g'ini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalari o'quvchilarining "Barkamol avlod" sport musobaqlari finali 2001-yilda sportning 9 turi bo'yicha Jizzax viloyatida o'tkazildi. 2000-2001 yillar davomida tizimning birinchi va asosiy bo'g'ini – "Umid nihollari" musobaqlari finaliga juda katta tayyorgarlik ko'rilib, 2002- yilda Farg'ona viloyatida muvaffaqiyatli o'tkazildi. Mazkur tizim musobaqlari doirasida 9672 ta umumiy o'rta ta'lif maktabi, 860 ta akademik-litsey va kasb-hunar kolleji hamda oliy o'quv yurtlarining olti milliondan ortiq o'quvchi va talaba yoshlari bosqich o'yinlarida ishtirok etib, Namangan, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida o'tkazilgan final musobaqlarida 6977 sportchi belgilangan sport turlari bo'yicha o'zaro bellashdi. O'quvchi va talabalarining final musobaqlarida ko'rsatgan natijalaridan ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport ishlariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi oqibatida aksariyat yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmayotganliklari, joylarda esa mazkur sohaga bo'lgan munosabat yuzakiligi namoyon bo'ldi.

Barcha bo'g'inxuning final musobaqlarida birinchi o'rinni egallagan Toshkent shahri, ikkinchi va yettinchi o'rinnlarni egallagan Namangan, Buxoro, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Toshkent viloyati jamoalarining sportchilari yengil atletika, suzish, sport o'yinlari va boshqa sportning murakkab turlari bo'yicha ko'rsatgan natijalari kichik razryadli sportchilar normativi talabi darajasida yoki undan ham past bo'ldi. Xorazm,

Qoraqalpog'iston, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo viloyati jamoalarining sportchilari yengil atletika, suzish, stol tennisi va boshqa sport turlaridan musobaqada ishtirok eta oldi va oxirgi o'rnlardan joy egalladi.

Tizim musobaqalarining natijalari orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ta'lim, sport muassasalari hamda joylardagi jismoniy tarbiya va sportdagi mavjud kamchiliklarning sabablari tahlil qilinib, quyidagi xulosalar olindi:

- joylarda o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalg qilishishlari dasturiy asosda emas, balki yuzaki, mavsumiy tadbirlar sifatida olib borilayotgani;
- jismoniy tarbiya va sportning normativ bazasining asosi bo'lgan "Barchinoy va "Alpomish" kompleks normativi joylarda yuzaki joriy qilingani;
- sportning faqat yakka kurash turlarini rivojlantirish, olimpiya va milliy sport turlariga yetarli ahamiyat qilinmagani;
- jismoniy tarbiya va sport darsliklarining zamon talabi darajasida yaratilmagani, o'g'il va qiz bolalarning yoshiga ko'ra o'yin va sport turlari belgilanmagani;
- ta'lim muassasalarining 5-9-sinflarida jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilarining yetishmasligi, boshlang'ich 1 - 4-sinflarning ustozlarida jismoniy tarbiyadan dars berish ko'nikmalar yo'qligi, yuqori sinf o'qituvchilarining professional darajasi talabga javob bermasligi;
- maktab va uning tashqarisidagi sport va sog'lomlashtirish ishlarining qonaqarsiz tashkil etilgani;
- ta'lim tizimida yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishi va ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan tegishli amaliy ishlar olib borilmasligi;
- mактаблардаги мавjud спорт базалари ахволининг ўомонлиги, спорт жиҳозларининг yetishmasligi, formal ravishda ochilgan sport sho'balarining samarasizligi;
- o'quv muassasalaridagi jismoniy tarbiya darslarining aniq maqsadga qaratilmagani, bosqich musobaqalari nomigagina o'tkazilayotgani;
- bolalar va o'smirlar sport maktablarining ta'lim yo'nalishlari ratsional belgilanmagani, ularda tayyorlanayotgan sportchilar mahorati

talab darajasida emasligi;

– ta'lim tizimida mehnat qilayotgan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining mehnat samaradorligi talab darajasida emasligi;

– olimpiya sport turlarini joylarda ommaviy rivojlantirish orqali yosh iqtidorli sportchilarni saralash, ularni tuman, viloyat musobaqalarida mahoratini oshirib, katta shijoat bilan mamlakat sharafi uchun bellasha oladigan darajada tarbiyalash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagani;

– hakamlar malakasini sport federatsiyalari bilan birqalikda oshirish tashkil etilmagani, ular yetarli tajribaga ega emasligi;

– joylarda asosiy e'tiborni yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tayyorlashga emas, balki hakamlarning baholashdagi kamchiliklaridan foydalanib, yengil g'alabaga erishishga qaratilishi kuzatildi.

Mayjud kamchiliklarni bartaraf etish, joylarda sportni ayniqsa, bolalar sportining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yanada rivojlantirish maqsadida mamlakat rahbarining tashabbusi bilan O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Jamg'armaning faoliyati joylarda bolalar sportining moddiy bazasini shakllantirish, qishloq va shaharlarda zamonaviy bolalar sport majmualarini barpo etish, sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun zarur moliviyiy va moddiy mablag'larni tashkillashtirishga qaratildi.

### **9.3.Tizim musobaqalarini tashkiliy va boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish to'g'risida.**

Mamlakatda joriy qilingan jahonda yagona, uch bo'g'inli yangi tizim jismoniy tarbiya va sportni ta'lim muassasalarida ommaviy rivojlantirish hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda katta burilish bo'ldi .

Mazkur tizim ta'lim muassasalarida ommaviy sportni yuqori pog'onalarga ko'tarishga turki bo'lib:

– joylardagi tarqoq, o'zaro bog'liq bo'lмаган va aniq maqsadga qaratilmagan musobaqalarni tartibga keltirdi;

– ta'lim tizimidagi o'quvchi va talabalarning sport jamiyatlarini tashkil etilishiga hamda joylarda yildan-yilga mavqeyi tushib ketayotgan sportning

suzish, yengil va og'ir atletika kabi turlarini rivojlantirishga sabab bo'ldi;

– bo'g'in bosqichlari o'yinlarida sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarning ma'lumotlar banki shakllantirildi, sportning nafis turi badiiy gimnastika musobaqalar dasturiga kiritildi va viloyatlarda keng rivojlantirildi;

– Namangan, Jizzax, Farg'ona, Buxoro, Xorazm Andijon va Toshkent viloyatlarida hamda ularning 30 dan ortiq tumanlarida markaziy stadionlar, o'quvchi-talabalar yotoqxonalari va boshqa inshootlar jahon andozalariga mos ravishda qaytadan ta'mirlandi yoki qayta qurildi;

– umumiy o'rta, o'rta maxus, oliv o'quv yurtlarida voleybol, basketbol, qo'l to'pi va boshqa sport turlaridan yuqori malakali sportchilar yetishib chiqishiga va ularning oliv liga musobaqalarida jamoa bo'lib qatnashishiga hamda mamlakat miqyosida mazkur sport turlaridan musobaqalarning qaytadan tiklanishiga, super ligalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi;

– mamlakat sport federatsiyalari va oliv sport mahorati maktablarining mutaxassislarini o'quvchi yoshlarning sport musobaqalariga jalb qilinishi, yurtimizda bosh hakamlar va hakamlar hay'atlarining shakllanishiga omil bo'ldi;

– viloyat hokimliklari va tegishli ta'lim vazirliklari hamda sport tashkilotlarining o'quvchi-yoshlarni sportga keng jalb qilish borasidagi harakatlarini birlashtirdi. Jismoniy tarbiya va sportni ta'lim bosqichlarida maqsadli rivojlantirish, sportning moddiy texnika bazasini talab darajasida qayta tiklash, yangi yangi sport majmualarini qurish va musobaqalarning yangi davrasi aylanib kelgunga qadar ularning uzliksiz ishlab turishi va yanada rivojlanishiga asos bo'ldi.

Tizim musobaqalarini mamlakatda jismoniy tarbiya va sport harakatini faollashishiga ko'rsatgan ijobjiy ta'siri orqali erishilgan natijalar bilan birgalikda, joylarda quyi-birlamchi bosqich o'yinlariga o'quvchi-yoshlarni ommaviy ravishda jalb qilishda kamchilik va nuqsonlar bo'ldi. Ayniqsa, viloyat sport tashkilotchilarining tizim musobaqalarini asosiy maqsad va mohiyatiga yetmaganligi sababli joylarda barcha harakat «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqalarining final bosqichida o'rinciga egallashga qaratildi. Masalaga bunday bir tomonlama yondashuv natijasida millionlab o'quvchi-yoshlar sport harakatiga ommaviy ravishda

jalb qilinmasdan, chetda qolib ketdi.

Bosqich musobaqlarida kamchiliklarning quyidagi sabablari qayd etildi:

- musobaqlarda qatnashadigan o‘g‘il-qizlar «Barchinoy» va «Alpomish» kompleks test me’yorlarini topshirmasligi, topshirganlari ham talabga javob bermasligi;
- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliv o‘quv muassasasi darajasidagi eng asosiylar, sinflar va guruhlilararo bosqich musobaqlarini o‘tkazish muddatining ikki oy (sentyabr-oktyabr) davomida belgilanishi;
- sinflar va guruhlilararo musobaqalarni yil davomida uzlusiz o‘tkazmaslik va ularni monitoring qilish mexanizmi ishlab chiqilmagani;
- har bitta o‘quv maskanida musobaqlar nizomida belgilangan sport turlarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmagani;
- tuman darajasida barcha BO‘SM, MBO‘SM va ROZKlar mutaxassislaridan tashkil topgan o‘quv muassasalarida sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan markaziy sport klub shakllantirilmagani.

Mazkur tizim musobaqlarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 3-iyunda «O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzlusiz sport musobaqlari tizimini tashkil etish to‘g‘risida»gi<sup>16</sup> 244-sonli qarorini qabul qildi. Qarorga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yoshlarda sportga bo‘lgan havas va intilishni, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o‘quvchi va talabalarni sport mashg‘ulotlariga uzlusiz jalb qilishga qaratilgan sport musobaqlarini tizimini Kadrlar tayyorlash milliy modeli dasturiga muvofiq tashkil qilish hamda uning samarali ishlashini ta’minalash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzlusiz sport musobaqlari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. 2003-yil 3-iyun.

 lexuz sharhi: Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-oktabrdagi 864-sonli “O‘quvchi va talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqlari tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qtgan.

Qarorda o‘quvchi va talaba-yoshlarning «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqalarining respublika finalini hududlarda o‘tkazishr ejasi belgilandi. Rejaga binoan, final musobaqlari 2004- yildan boshlab uch yilda bir marotaba o‘tkazilib, birinchi davra 2011-yilda yakunlanadi, ikkinchi davra esa 2012-yildan boshlanadi . Respublika final musobaqalarining uch yilda bir marotaba o‘tkazilishi barcha bo‘g‘in musobaqa bosqichlarining tartibini ushbu davrga moslashni va ularni yangidan ishlab chiqishni talab qildi.

«Umid nihollari» sport musobaqalari bo‘g‘ini mazkur tizimning eng asosiy bosqichi bo‘lgani uchun, dastlab uning harakat modeli tuzilmasini shakllantirishga kirishildi. Uch yil davomida bosqichma-bosqich bo‘g‘in musobaqalarida 6,5 milliondan ortiq o‘quvchi yoshlarning uzlusiz ishtiroy etishi tartibini tuzishda oldingi yillarda o‘tkazilgan tizim musobaqalarining xulosalari asos sifatida olindi.

Musobaqalar tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi homiylik kengashining yig‘ilishlarida bergen ko‘rsatmalarini asosida shakllantirildi:

1. Mamlakat o‘quvchi-yoshlarining barchasini o‘quv yili davomida ommaviy ravishda sport harakatiga keltirilishi va mazkur harakat orqali, har bir bosqich pog‘onasiga mos ravishda yuqori mahoratlari sportchilar yetishib chiqishini ta’minlanishi;
2. Tizim musobaqalarining final o‘yinlarigacha o‘tkaziladigan bosqich o‘yinlari bir-biriga mantiqiy bog‘langan bo‘lishi;
3. Musobaqlarning birinchi bosqich o‘yinlari yoshlarni sport harakatiga keltira oladigan asos bo‘lib, ularda yetarlicha ko‘nikma va biron bir sport turiga qiziqish hosil bo‘lishiga erishish;
4. O‘quvchilarni ommaviy harakat bosqichida ko‘rsatgan qobiliyati va mahoratiga qarab ikkinchi, keyingi bosqichlarga yo‘naltirish;
5. O‘quvchi-yoshlarni maktab, litsey va kollej, oliy ta’lim muassasalarida hamda undan tashqari o‘tadigan sport musobaqalariga ommaviy ravishda jalg qilinishi, sport turlari bo‘yicha sinflararo, guruhlararo bellashuvlarni yil davomida uzlusiz o‘tkazilishining me’yoriy asosda ta’minlanishi;
6. Yengil atletika, suzish va boshqa sport turlariga barcha o‘quvchilarni musobaqalar orqali uzlusiz jalg qilinishi, ular orasidan iste’dodli bolalarni

saralash va sport seksiyalariga hamda maktablariga jalg etilishi;

7. Har bir bosqich musobaqlari o'zining Nizomi asosida o'tkazilishi, o'quvchilarning musobaqlarda ko'rsatayotgan natijalarini jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tomonidan monitoring qilinishi;

8. Musobaqalar mamlakat darajasida birinchi yildan boshlab kompleks ravishda, joylarda bosqich o'yinlari finalini esa, ta'tilda o'tkazilishi;

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya va harakatlari sport bellashuvlarida uzlusiz qatnashishini ta'minlash orqali ularda kurashda g'alabaga intilish fazilatlarining shakllanishi;

10. Uch yil davomida bosqich musobaqalarini o'tkazish tuzilmasini belgilashda, asosan, yoshlarning ommaviy ravishda sport harakatiga qamrab olinishi. Tuzilma ichidagi o'zaro bellashuvlar tartibining kompleks musobaqalar asosida belgilanishi;

11. Bosqich o'yinlarida kuchli va sport mahorati yuqori bo'lgan jamoalarning sovrinli pog'onalarga chiqishlari va hududlarning eng kuchli jamoalari bilan uchrashuvlarini tashkil etish. Bunday tartib sport bellashuvlarida mahorati yetarli darajada bo'lмаган jamoalarning kuchlilarga teng bo'lishga harakat qilishi uchun turki bo'lishi va hakamlarni musobaqalarni obyektiv ravishda o'tkazishlari, «tasodifiy» holatlarning cheklanishi. «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalarining bosqichlarini uch yil davomida belgilangan tamoyillar asosida, tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish tartibi va modelini shakllantirishda oldingi yillarda o'tkazilgan musobaqalarning salbiy va ijobjiy natijalarini har tomonlama chuqur tahlil etib, oqilona ish tutish muvaffaqiyatlar omili bo'ladi.

**O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:**

1. «Barkamol avlod» sport-sog'lomlashtirish musobaqasi nechanchi yildan boshlab o'tqazilib kelinadi?

2. Sport musobaqalarini tashkiliy tamoyillari va uni o'tkazish qanday tartibda amalga oshiriladi?

3. «Umid nihollari» sport-sog'lomlashtirish musobaqasi nechanchi yildan boshlab o'tqazilib kelinadi?

4. Musobaqalarni o'tqazish nizomi haqida aytib bering.

5. Uch bosqichli musobaqa faoliyati haqida gapiring.

6. Tizim musobaqalari nima?

**10- MODUL: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY  
TARBIYA VA OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH  
SIFATINI OSHIRISHDA SPORT KLUBLARINING O'RNI VA  
AHAMIYATI**



**10.1. Sport klublarining o'rni va ahamyati. Sport klubi Nizomi.**

Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, millat genofondini asrash, oilada, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport turida yuqori natija ko'rsata oladigan qobiliyatli, iste'dodli sportchilarni qidirib topish, sport turlarini rivojlantirish hamda ularning ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni saralash va yuqori malakali murabbiylarni tayyorlash, sport inshootlari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida respublikamiz hududlarida barpo etilgan barcha sport inshootlari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, ta'lim muassasalarida talabalarni sog'lomlashtirish va muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun sport sektsiyalarini tashkil etish, talabalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun oliy ta'lim muassasalari sport zallarida ular bilan o'tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqlar ko'lamini kengaytirish, qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarida "Sog'lomlashtirish" Sport klubi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Talabalarni sport tayyorgarligi va ularni respublika va xalqaro musobaqalarga tayyorlash ishlari oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan sport klublari orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalar qoshida "Talaba" sport klublari (keyingi o'rirlarda "Talaba" sport klubi deb yuritiladi)ni tuzish orqali talaba-yoshlarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari zaxirasini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarining pedagog va boshqa xodimlarini sportga jalb qilish, shuningdek, Sport klublari faoliyatini samarali yo'lda qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, faollashtirishga hamda uning moddiy-texnik bazasini tubdan takomillashtirishga qaratiladi.

Ushbu "Talaba" sport klubini tuzish va faoliyat olib borishda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan: sport klubi—bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqasi va tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish, talaba-yoshlarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport –sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalari zaxirasini shakllantirishga ko'maklashuvchi a'zolik asosida tuzilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti;

**Nodavlat notijorat tashkiloti** – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilar (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir;

**Ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari**—aholini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb etishga va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;

**Sport musobaqasi**—sportchilar o'rtasida yoki sportchilar jamoalari o'rtasida har xil sport turlari (sport distsiplinalari) bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo'yicha o'tkaziladigan bellashuv;

**Sport inshooti**—sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari va o'quv-mashq yig'inlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan, o'ziga qo'yiladigan norma va talablarga

javob beradigan hamda tegishli pasportga ega bo'lgan yopiq yoki ochiq tipdagi ixtisoslashtirilgan inshoot;

**Sport tadbirlari** – sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar; sport federatsiya, jamiyat, assotsiatsiya (uyushmasi) – bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek, sport tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish hamda sportchilarni – O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a'zolarini sportning tegishli turi bo'yicha tayyorlash uchun a'zolik asosida tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti.

## **10.2. Sport klubiga a'zolik badallarini shakllantirish, homiylik va boshqa turdag'i mablag'lardan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom,**

### **Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati**

#### **I.“Talaba” sport klubining umumiylig qoidalari.**

1.1. Mazkur Nizom “Ta’lim to‘g’risida”, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g’risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g’risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq sport klubini tuzish, uning maqomi, faoliyat olib borishi va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

1.2. Sport klubi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Farmoyishlariga, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjalarga va mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjalari, shuningdek, o'z Nizomiga amal qiladi

1.3. Sport klubi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z nizomiga, bank muassasalarida hisob raqamlariga, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan o'z nomi ko'rsatilgan muhr va shtamplarga hamda o'z faoliyatida zarur bo'lgan atributika va rekvizitlarga ega bo'lish huquqiga ega.

1.4. Sport klubi bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramziy belgilarga ega bo'lishi mumkin. Sport klubining ramziy belgilari davlat ramziy

belgilariga o'xshamasligi kerak. Sport klubining ramziy belgilari Nizomga muvofiq uning rahbar organi tomonidan tasdiqlanadi hamda davlat ro'yxitidan o'tkaziladi.

1.5. Sport klubiga nom yoki maqom berish va ta'sis hujjatlari tasdiqlash tegishliliqi bo'yicha O'zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

1.6. Sport klubi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

## **II. Sport klubining maqsad va vazifalari**

### **2.1. Sport klubining asosiy maqsadi:**

Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari, professor-o'qituvchilari, magistrantlari, ilmiy xodim-izlanuvchilari, ishchi-xizmatchilar va pedagog murabbiylarini ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish orqali ularning salomatligini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, talabalar va o'quvchi-yoshlarni sport musobaqalarga keng jalb etish;

- talabalar va o'quvchi-yoshlar o'rtasida Xalqaro olimpiada qadriyatlarini hamda umuminsoniy qadriyatlarni, insonparvarlik, adolatparvarlik, halollik va halol sport kurashini ulug'lash, hurmat qilish hissini tarbiyalash;

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport mashg'ulotlari va musobaqalarni o'tkazish orqali OITS va giyohvandlikka qarshi kurash, shuningdek, chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabi turli zararli illatlarni oldini olish. Sport klubining vazifalari va faoliyat sohasi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim muassasasi tizimidagi sport seksiyalari va sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar jadvaliga ko'maklashish, har xil sport turlari, eng avvalo, sportning Olimpiya va milliy turlari bo'yicha yangi qo'shimcha seksiya va guruuhlar tashkil etish hisobiga yoshlarni, shu jumladan, qizlarni sport bilan shug'ullanishiga yanada kengroq jalb etish;

- oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida iste'dodli yosh sportchilarni aniqlash, yuksak mahoratli sportchilar zaxirasini tayyorlash va sport turlarini rivojlantirish ishlarini olib borish;

- oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlar o'rtasida turli sport musobaqalari, tadbirlarini o'tkazish orqali seleksiya ishlarini doimiy tarzda

yo'lga qo'yilishini hamda yuqori mahoratli sportchilarni tanlab olinishini ta'minlashga ko'maklashish;

- sport, tinchlik, hamkorlik va o'zaro totuvlik g'oyalarini targ'ib qilish;
- yuksak mahoratli sportchilar zaxirasini tayyorlash barobarida sport turlari bo'yicha tashkilotlar, sport turlari bo'yicha federatsiyalar bilan hamkorlikda iqtidorli o'quvchi sportchilar uchun o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish;
- sport, tinchlik, hamkorlik va o'zaro totuvlik g'oyalarini hamda yuqori natijalarga erishgan yosh sportchi va trenerlarning yutuqlarini talaba va o'quvchilar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida davra suhbatlari, seminarlar hamda master-klasslarni uyushtirish;
- oly ta'lim muassasalarida tizimli ravishda Respublikaning yetakchi sportchilar, Olimpiya va Osiyo o'yinlari, Juhon championatlari va boshqa xalqaro musobaqalar championlari hamda sovrindorlari ishtirotkida ko'rgazmali mahorat saboqlari o'tkazilishini tashkil etish;
- sport klubni o'z faoliyatini rivojlantirish bo'yicha dastur va loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun sarmoyador va homiyalar bilan hamkorlik qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Olyi va o'rtá maxsus ta'lim vazirligi ko'magida "Universiada" sport musobaqalarini o'tkazish orqali talaba yoshlari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ular o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish;
- "Universiada" sport musobaqalarining quyi bosqichlarini sifatli o'tishini ta'minlash maqsadida taqvim rejalarini ishlab chiqish hamda musobaqalarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish;
- oly ta'lim muassasalarida sport sohasidagi o'sish darajasini monitoringini olib borishni yo'lga qo'yish;
- oly ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yuqori sport natijalariga erishgan sportchi va murabbiylarni sport klubni tomonidan rag'batlantirish;
- oly ta'lim muassasalari talaba yoshlari orasidan sport turlari bo'yicha Respublika terma jamoalari uchun asosiy va zaxira tarkibiga malakali sportchilarni tayyorlash hamda turli darajadagi musobaqalarda ishtirot etishini ta'minlash;
- sport klubni tomonidan sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoa a'zolari hisoblangan talaba-yoshlarni zaruriy anjom, jihoz, sport

kiyimi (epikirovka), tibbiy-biologik, farmakalogik, farmatsevtik va boshqa taqiqlanmagan tiklash vositalari bilan ta'minlashni amalga oshirishda shart-sharoitlarni yaratish;

Sport klub O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va mazkur nizom maqsad va vazifalariga zid bo'Imagan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ishlarni olib borishi mumkin.

### **III. Sport klubining huquq va majburiyatları**

3.1. Sport klub quiyidagi huquqlarga ega:

- o'z a'zolarining huquqlari va qonunyi manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

- ijtimoiy hayotning sport-sog'lomlashtirish masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, bu xususda davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga takliflar kiritish;

- ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, o'quv-mashg'ulot yig'inalarini, sport bayramlari, spartakiadalar, festivallar, sport musobaqalarida ishtirot etish va o'tkazish;

- "Universiada" sport musobaqalarining barcha bosqichlarini o'tkazish va tashkil etishda ishtirot etish;

- davlat hokimiyati va boshqaruva organlarining jismoniy tarbiya va sportga oid qaror loyihasini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirot etish;

- o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish va belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va tegishli ruxsatnomasi yoki litsenziya asosida matbaa va noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

- o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiylar va boshqa tadbirlar o'tkazadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq o'z nizom maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar, yig'imlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa to'lovlar to'lashda belgilangan imtiyozlardan foydalanadi;

- sport klub a'zosi bo'lib O'zbekiston terma jamoasi tarkibiga kirgan sportchilar va ularning trenerlariga homiylik faoliyatini amalga oshirish, o'zaro kelishuvga ko'ra ularning foto tasvirlaridan reklama maqsadlarida

foydanish;

- sport klub O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Sport klubining majburiyatlari:

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan Nizomlar, yo'riqnomalar va mazkur Nizom talablariga rioya etish va o'z mol-mulki va mablag'lardan foydanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash;

-qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlariga rioya etish;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organga Sport klub o'tkazayotgan tadbirlarga va Sport klub faoliyati bilan tanishish uchun erkin kirish imkonini berish;

- o'z faoliyatining natijalari hisobotini yuritish;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim etish;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organ vakillariga Sport klub faoliyati bilan Nizom maqsadlariga erishish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilinishi yuzasidan tanishishlariga ko'maklashish;

- litsenziya talab qilinadigan faoliyat turi bilan tegishli litsenziya olgandan so'ng shug'ullanish; Sport klub qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

#### **IV. Sport klub a'zolarining huquq va majburiyatlari**

4.1. Sport klubiga ushbu Nizomni tan olgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar, davlat ta'limi muassasalari o'quvchi va talabalari hamda Sport klub faoliyatiga xayrixohlar a'zo bo'lishlari mumkin

Barcha a'zolarning huquq va manfaatlari teng ravishda himoya qilinadi.

4.2. Sport klubiga a'zolarni qabul qilish yakka tartibda va jamoaviy tartibda amalga oshiriladi. Sport klubiga yakka tartibda a'zo bo'lganda jismoniy shaxslarning arizalari asosida, jamoaviy tartibda a'zo bo'lganda esa jamoa yig'ilishi qarori asosida amalga oshiriladi.

Davlat ta'limi muassasalari o'quvchi va talabalari Sport klubining jamoaviy a'zolari bo'lishlari mumkin.

- yakka va jamoaviy tartibda a'zolikka qabul qilish arizasi sport klub raisi nomiga yoziladi va sport klubining jamoa kengashi yig'ilishida ko'rib

chiqiladi;

- sport klubi a'zolari Sport klubi faoliyati to'g'risida yolg'on ma'lumotlarni tarqatishi, a'zolar o'rtasida nizo va majorolar chiqarishi, Sport klubi obro'sini tushiradigan ma'lumotlar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari (internet) orgali tarqatish ma'n etiladi;

4.3. sport klubi a'zoligiga qabul qilish va undan ixtiyoriy ravishda chiqarish mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan nizomga muvofiq tartibga solinadi.

4.4. Sport klubi a'zolari teng huquqli bo'lib, ularning huquqlari quyidagilardan iborat:

- sport klubi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar olishi;
- o'z xohishiga ko'ra Sport klubi a'zoligiga kirishi;
- sport klubining rahbar organlarini saylash va ularga saylanish;
- sport klubi tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashish;
- sport klubi faoliyatini yaxshilash bo'yicha rahbar organiga takliflar kiritish;

-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuni hamda muassislar tomonidan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

- o'z xohishiga ko'ra Sport klubi a'zolidan chiqishi.

4.5. Sport klubi a'zolarining majburiyatları quyidagilardan iborat:

- sport klubining normativ-huquqiy hujjatlarida va ushbu Nizomda belgilangan talablarga amal qilish hamda olgan majburiyatlarni bajarish;
- nodavlat va notijorat tashkilotlariga oid qonun hujjatlari talablariga amal qilishi;
- sport klubi mol-mulkiga zarar yetkazmaslik ;
- sport klubining boshlang'ich tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan sport seksiyalari va to'garaklariga muntazam qatnashib borish;
- sport klubi faoliyatini rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish;
- sport klubi tomonidan o'tkaziladigan ko'rgazmalar, turli tadbirlarda faol ishtirok etish;
- sport klubi a'zolari orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda faollik ko'rsatish;
- sport klubining a'zolik badallarini o'z vaqtida to'lab borish.

4.6. Sport klub Nizomining 4-5-bandida qayd qilingan majburiyatlarni qo'pol ravishda buzgan a'zolar belgilangan tartibda sport klubining umumiy yig'ilish qaroriga asosan sport klub a'zoligidan chiqarilishi mumkin.

### **V. Sport klubining tuzilmasi va rahbar organlari**

5.1. Sport klub mutasaddilari qarori asosida ta'sis hujjaligiga muvofiq tashkil etiladi. O'zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi hamda Oliy ta'lim muassasasi, mos ravishda, sport klub muassislarini hisoblanadi.

5.3. Sport klub rahbarini lavozimga tayinlash va ozod qilish sport klubini ta'sis (konferensiyasi) yoki umumiy yig'ilishi ishtirokchilarining ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sport klub rahbarligiga jamoatchilik asosida davlat ta'lim muassasasi rahbarini (direktor, rektor) saylash tavsiya qilinadi.

5.4. Sport klub faoliyatini nazorat qilish hamda samaradorligini oshirish va a'zolik badallarini shakllantirishga sport klub tuzilgan Oliy ta'lim muassasasi rahbari bevosita javobgardir.

5.5. Sport klub tuziladigan Oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan talaba - yoshlar hamda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog va boshqa xodimlarning ta'sis (konferensiyasi) yoki umumiy yig'ilishi qaroriga asosan ta'lim muassasasi qoshida sport klub tuziladi.

5.6. Sport klub O'zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan namunaviy nizom asosida faoliyat yuritadi.

5.7. Sport klubida sport to'garagi ishlari sport klub tashkil etilgan Oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari (yo'riqchilar) tomonidan olib boriladi. Sport to'garagi ishlarini samarali tashkil etgan Oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari (yo'riqchilar) sport klub rahbari tomonidan moddiy rag'batlantirilishi mumkin.

5.8. Oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari (yo'riqchilar)ning yillik ish rejiali, sport to'garagi ishlari, sport tadbirlari hamda o'quvchi va talabalar bilan ishslashni ko'zda tutgan bo'lishi zarur.

5.9. Sport klub tomonidan ommaviy sport tadbirlar taqvim rejasiga o'quv yili uchun ishlab chiqiladi. Sport klubining ommaviy sport tadbirlari taqvim rejasiga mutaxasislar tomonidan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

### **VI. Sport klubining mol-mulki va ularni shakllantirish manbalari**

6.1. Sport klublarining mol-mulkleri quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:  
- a'zolik badallari;

- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ravishda bergan homiylik va boshqa turdag'i mablag'larini va mulklari;

- nizomga asosan seminarlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni o'tkazishdan tushgan mablag'lar;

- sport klubi tarkibida tuzilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatlaridan tushadigan daromadlar;

- yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya ehsonlari, xorijiy va xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning grantlari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

6.2. Sport klubining a'zolik badallari miqdorini belgilash, sarflash hamda homiylik va boshqa turdag'i mablag'larini shakllantirish mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan nizom bilan tartibga solinadi.

- talaba yoshlar orasida yetim, chin yetim, nogironlar, shu bilan birga nafaqadagi shaxslar a'zolik badallari to'lashdan ozod etiladi.

- a'zolik badallari tushumi, homiylik va xarajatlar, shuningdek, boshqa turdag'i moliyaviy munosabatlar mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan nizom asosida tartibga solinadi.

## **VII. Sport klubining hisob va hisoboti**

7.1. Sport klubi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi asosida o'z faoliyati natijalarining moliyaviy hisobini amalga oshiradi, statistik hisobot olib boradi va hisobotni ishonchligini ta'minlaydi.

7.2. Sport klubi belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlari hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa organlarga hisobotlar taqdim etadi.

## **VIII. Sport klubining nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi**

8.1. Sport klubi nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish muassis tashkilotlarning yig'ilishi qarori bilan amalga oshiriladi.

8.2. Nizomga kiritilgan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi.

## **IX. Sport klubining faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish tartibi**

9.1. Sport klubini qayta tashkil etish mutaxassislar qaroriga binoan

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9.2. Sport klubni faoliyatini to‘xtatib qo‘yish sud qaroriga asosan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Sport klubini tugatish mutaxassislar qaroriga binoan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

9.3. Sport klubini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organ ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

9.4. Sport klubini tugatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

9.5. Kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk mazkur nizomda ko‘rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi.

9.6. Sport klubni faoliyatida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal etishning imkonи bo‘lmasa, qonunda belgilangan tartibda sud organlari tomonidan hal qilinadi.

9.7. Sport klubni ta’sis hujjatlarida o‘z ifodasini topmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

**O‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish uchun savollar:**

1. Sport klubining a’zolik badallari miqdori qanday tartibda belgilanadi?
2. Sport klubining huquq va majburiyatları nimalardan iborat?
3. Nodavlat notijorat tashkilotlariga qaysi tashkilotlar kiradi?
4. Sport klublarining o‘rnini va ahamiyati nimadan iborat?

**11- Modul: Jismoniy tarbiya bo'yicha pedagogning kasbiy faoliyatida ommaviy –sport tadbirlarini tashkil etish kursi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar.**

**11.1. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishi tizimida ommaviy-sport tadbirlarini tashkil qilish.**

**11.2. Jismoniy tarbiya bo'yicha pedagogning kasbiy faoliyatida ommaviy-sport tadbirlarini tashkil qilish kursi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalari.**

**11.3. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishi tizimidagi sport o'yinlari. Asosiy tushunchalar.**

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'ligini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyatga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarini ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarini shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka, bilimlarini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish maqsadida, davlatimiz rahbariyati tomonidan quyidagilar jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari etib belgilab berildi:

- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkiloti va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;
- davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarining sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich

80 foizgacha yetkazish;

- joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli-tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida «Bolalar sport o'yinlari»ni o'tkazish orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida «Talabalar sport o'yinlari»ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalg etish;

- aholining keng qatlamlari, jumladan, umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida «Umumta'lim mакtab sporti» festivali, «Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa» ko'rik-tanlovini bosqichma-bosqich (tuman, shahar, hudud, respublika) o'tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, professional va oliy ta'lim muassasasi nominatsiyasini joriy etish;

- 2020 yildan boshlab sport sohasida «Tashkent Marathon» xalqaro marafoni, «Save Aral» xalqaro ekomarafoni, avtoralli va motokross sport musobaqalarini tizimli o'tkazish orqali sport turizmini rivojlantirish; aholining barcha qatlamlari o'rtasida «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sinovlarini o'tkazishni joriy etish; sport turlari bo'yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriylar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sport sohasida samarali tibbiy va farmakologik ta'minotni yo'lga qo'yish;

- sport turlari bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan hududiy terma jamoa a'zolarini hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining o'smirlar bo'limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a'zolarini tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib borish mexanizmini joriy etish;

- 2020 yil 1 fevraldan boshlab bosqichma-bosqich olimpiya sport turlari bo'yicha respublika sport musobaqalarida doping-test namunalarini olish tizimini joriy etish; qishki Olimpiya sport turlari infratuzilmasini

yaratish, ushbu sport turlarini ommalashtirish orqali professional sportchilarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

- O'zbekiston sport delegatsiyalarini nufuzli sport musobaqalariga tizimli tayyorlash bo'yicha Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida Olimpiya tayyorgarlik markazini tashkil etish; xorijlik sportchi va muxlislarni keng jalb qilish hamda sport infratuzilmasidan samarali foydalanish maqsadida «xospitaliti xizmatlari»ni yo'lga qo'yish, «Sport Visa» qo'shimcha (elektron bo'lmanan) kirish vizasini joriy etish; sport sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish, shu jumladan, sport tashkilotlarida davlat ulushini kamaytirish bo'yicha zarur choralar belgilash; sport lotereyalarini tashkil etish orqali sportni qo'shimcha moliyalashtirish tizimini kengaytirish;

- huquqni muhofaza qilish organlari va Qurolli Kuchlar tizimidagi ta'lim muassasalarini, jumladan, «Temurbeklar maktabi» o'quvchi-talabalari uchun «Armiya o'yinlari» dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish;

- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport inshootlari va muassasalarining boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jumladan, «Sport.uz» axborot tizimi orqali sport inshootlarining telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash; milliy sport turlarini rivojlantirish va Osiyo va Olimpiya o'yinlari dasturlariga kiritish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari qo'yildi.

### **11.2. “Jismoniy tarbiya bo'yicha pedagogning kasbiy faoliyatida ommaviy-sport tadbiralarini tashkil qilish” kursi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar.**

Kontsepsiya nazarda tutilgan maqsadli ko'rsatkichlar va asosiy yo'nalishlar har yili O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga asosan, shuningdek, ushbu tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan byudjet mablasqlari doirasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan «Yo'l xaritasi» orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Sohani rivojiga qaratilgan aniq tartib o'rnatilishi ta'kidlandiki, unga muvofiq: 1) har yili 1- noyabrga qadar kelgusi yil uchun sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbiralarining respublika kalendar rejasidagi

sport turlari bo'yicha federatsiyalar (uyushmalar) taqdimnomasi asosida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan shakllanriladi va Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritiladi;

2) respublika kalendar rejasida belgilangan xarajatlar tarkibida O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar (uyushmalar)ning faoliyati bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, sportchilarni sug'urtalash xarajatlari nazarda tutiladi;

3) tasdiqlangan respublika kalendar rejasiga asosan hududiy hamda tuman (shahar) sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejaliari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) hokimliklari tomonidan har yili 1- dekabrga qadar tasdiqlanadi;

4) sportchi yoshlarni saralash va katta sportga iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya), sport zaxirasini shakllantirish tizimini yo'lg'a qo'yish, yoshlar orasida sportni ommalashtirishda yuqori natijalarga erishish maqsadida hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholining qiziqishi va xohish-istiklaridan kelib chiqib, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari kamida bittadan ustuvor, istiqboldagi, rivojlanayotgan, shu jumladan, milliy sport turlariga ixtisoslashtiriladi;

5) ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilarini biriktirilgan hududlarda, shu jumladan, mahalla fuqarolar yig'inlarida aholini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish bo'yicha mas'ul etib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining vazirlik markaziy apparati tuzilmasidagi jismoniy tarbiya va sport sohasida monitoring boshqarmasi negizida Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasini tashkil etish hamda sport pasportini rasmiylashtirish va berish uchun yig'imni pul to'lovi amalga oshirilayotgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida belgilash, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda ta'lim muassasalarining sport inshootlarini, ularda rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha investitsiya majburiyatini olgan holda, o'quv mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtida tadbirkorlik subyektlariga foydalanishga berish tastiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda sport lotereyalarini tashkil etish va yuridik shaxslar tomonidan sport lotereyalarini o'tkazishdan olingan daromadning 10 foizigacha bo'lgan qismini byudjetdan tashqari «Sport» maxsus hisob raqami mablag'larini shakllantirishning qo'shimcha manbasi etib belgilash to'g'risidagi takliflari ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Turizm va sport vazirligining tuman va shahar bo'limlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tizimdagи sport maktablari va kollejlari o'quv sinf va laboratoriya xonalari hamda yotoqxonalarini jihozlash uchun Jismoniy tarbiya va sport vazirligining byudjetdan tashqari «Sport» maxsus hisob raqamiga 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan 50 milliard so'm mablag' ajratgan.

**O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:**

1. O'zbekiston sport delegatsiyalarini nufuzli sport musobaqalariga tizimli tayyorlash qanday tartibda olib boriladi?
2. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtaida «Talabalar sport o'yinlari»ni tashkil etishning ahamiyati nimada?
3. Olimpiya sport turlari infratuzilmasini yaratish, ushbu sport turlarini ommalashtirish orqali professional sportchilarni tayyorlash tizimini yo'liga qo'yishning ahamiyati nimada?
4. Musobaqaqlar qanday tartibda tashkillashtiriladi?
5. Hozirgi kunda sport klublarining ahamiyati nimadan iborat?
6. Sport klubiga a'zolik badallari qanday shakllantiriladi?
7. Boshlang'ich tashkilot faoliyati haqida fikringiz qanday?
8. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishi tizimida ommaviy-sport tadbirlarini tashkil qilishning ahamiyati nimada?

## **12-Modul. Umumta'lim maktablarida ommaviy sport va sog'lomlashtirish ishlarining pedagogik ahamiyati.**

### **1.1. Mustaqillik yillarda jismoniy madaniyat va sportga qaratilgan e'tibor**

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, millat genofondini yanada sog'lomlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash borasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ahamiyati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgilangan. Qisqa muddatda bu sohada olib borilgan keng ko'lamli amalii harakatlar o'z samarasini bera boshladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz sporti 1991- yilgacha sobiq Ittifoq bo'yicha amal qilingan hukmron tizimning bir qismi bo'lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o'z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo'limgan. Mamlakatimiz sanoqli sportchilarigina Olimpiya o'yinlari, Yevropa, jahon miqiyosidagi nufuzli musobaqalarda qatnasha olardi. Asosiy e'tibor mahalliy aholi o'rtasida malakali sportchilar tayyorlash, jismoniy tarbiyani ommalashtirishga emas, balki boshqa respublikalardan tayyor sportchilarni taklif qilib, xo'jako'rsinga muayyan natijalar olishga qaratilar edi. Shu bois respublikaning faqat markaziy shaharlarida birmuncha ishlar qilinib, chekka hududlarida sportni rivojlantirishga yetarli ahamiyat berilmadi. 1991- yilgacha O'zbekistonda jahon andozalari talablariga javob beradigan birorta ham yirik sport inshooti bunyod etilmagan, hatto Toshkent shahrida ushbu talablarga mos sport majmuasi bo'limganligi bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Mustaqillikka qadar O'zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qariyb yopiq edi. Futbol va tennis bo'yicha o'smirlar o'rtasida sobiq sotsialistik davlatlar sportchilari ishtirokida o'tkazilgan turnirlarni hisobga olmaganda, mamlakatimizda boshqa xalqaro musobaqalar deyarli o'tkazilmadi.

Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o'z asoratlarini qoldirdi, bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1.O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nisbatan past darajada yo'lga qo'yildi, sport harakatiga yetarli aholi ommaviy ravishda jalb qilinmadı, ular orasidan yuqori malakali

sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi, oqibatda aksariyat yoshlarning jismonan sog'lomligi talab darajasida bo'lmay, ular orasidan katta sportga sanoqli sportchilar chiga oldilar;

2. Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman, sportning moddiy-texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi.

3. Soha uchun oliy va o'rta ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsada, musobaqlarda milliy sportchi kadrlar turli sun'iy to'siq va saralashlardan o'tishga majbur edi. Milliy kadrlarni tayyorlash va mahalliy sportchilar iqtidorini ro'yobga chiqarishdagi bunday noxolis siyosat asorati mustaqillikning birinchi yillarda ko'pchilik sportchi va murabbiylarning boshqa joylarga ketib qolishiga sabab bo'ldi .

4. O'zbekiston sportiga adolatsiz munosabat tufayli juda ko'p sportchilarimiz Yevropa, Juhon va Olimpiya musobaqalarida ishtirot etish imkoniyatididan mahrum etildi;

5.O'zbekiston sportchilarining jahon miqiyosiga mustaqil chiga olmaganligi mazkur sohaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borishiga ham katta to'sqinlik qildi.

O'zbekistonda mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat rahbarining tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bosqichma-bosqich qabul qilinib, ular joriy etildi.

Qisqa muddatda:

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;

- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar tashkil qilindi;

- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi; jismoniy tarbiya va sport sohasini mablag' bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektor rivojlantirildi;

- jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitilishlari amalga oshirilmoqda.

1992-yil 21 -yanvarda mamlakatda sohani rivojlantirishning huquqiy asosi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi.

Respublikada jismoniy tarbiya va sportni boshqaruvi tizimini muvofiqlashtirish maqsadida, Qo‘mitaga sport sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, o‘z vakolati doirasida vazirliklar, idoralar, Milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ), sport turlari bo‘yicha milliy federatsiyalar hamda mulkchilik shakllari va idoraviy bo‘ysunishdan qat’iy nazar, turli tashkilotlar ustidan nazorat qiluvchi organ maqomi berildi.

Sport sohasida o‘quvchilarning iste’dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan «O‘zbekiston o‘quvchi-yoshlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>17</sup>gi Prezident Farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1993 yildan iqtidorli yosh sportchilar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va jismoniy tarbiya fakultetlariga imtiyozli ravishda o‘qishga kirish huquqiga ega bo‘ldilar.

Yurtni bitta maqsad atrofida birlashtira oladigan, xalqning g‘urur va tuyg‘usini oshiradigan, yoshlarni o‘ziga jalb qila oladigan sportning ommaviy o‘yin turi-futbolni yanada rivojlantirish maqsadida 1993 yilda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» va 1995 yilda «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Natijada mamlakatimizda sportni keng miqyosda ommaviy ravishda rivojlantirish harakatlari jonlanib, respublikamizning barcha o‘quv muassasalarida futbol maydonchalari tashkil etildi, Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri markazlaridagi barcha stadionlar qayta ta’mirlandi, joylardagi futbol maydonlari xalqaro standartlar darajasida rekonstruksiya qilindi, barcha viloyatlarda futbol maktab- internatlari tashkil etildi va tegishli mutaxassis kadrlar bilan to‘ldirildi hamda katta futbolni professional klublar tizimiga o‘tkazilishiga asos bo‘ldi.

Mamlakat sportchilari Olimpiya o‘yinlarida ilk marotaba mustaqil jamoia sifatida Amerikaning Atlanta shahrida 1996-yilda ishtiroy etdilar.

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida” Qarori. Toshkent sh., 2008-yil 13-oktabr, 226-son

O'zbekiston hukumati sportchilarimizni xalqaro musobaqalar, Olimpiya, Osiyo o'yinlarida muvaffaqiyatlari qatnashishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Mustabid tuzum davrida, O'zbekistonda yozgi Olimpiya o'yinlarida atigi 40 nafar sportchi ishtirok etgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin bиргина AQShning Atlanta shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida mamlakatimizning 76 nafar sportchisi qatnashib, dzyudochi Armen Bogdasarov kumush, bokschi Karim To'laganov bronza medallarini qo'lga kiritdilar. 1994-yilda Lillixamerda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlarida Liina Cheryazova oltin medalga sazovor bo'ldi.

2000-yilda Avstralaliyaning Sidney shahrida o'tgan Olimpiya o'yinlarida esa, 77 nafar sportchimiz Vatanimiz sharafini himoya qilib, bokschilardan Muhammadqodir Abdullayev oltin, Rustam Saidov bronza, erkin kurashchi Artur Taymazov kumush medallar sohibi bo'ldilar.

Qisqa davrda sport sohasida amalga oshirilgan ishlar ko'lamni, O'zbekistonning bu boradagi tajribasi jahonda e'tirof etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga hamda Xalqaro olimpiya harakatiga qo'shgan katta hissasi uchun 1996 yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining oliv mukofoti – Oltin Olimpiya ordeni bilan taqdirlandi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan 1996 yilda Toshkent shahrida «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi tashkil etilib, muzeyning ochilish marosimida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti X.A.Samaranch qatnashdi.

Respublika Prezidentining tashabbusi tufayli sportning o'yin turlari bilan birgalikda, taraqqiy etgan davlatlardagina rivoj topgan katta tennis mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy ravishda, tez sur'atlar bilan o'sdi. Bir necha yilda jahon andozalari talablariga javob beradigan tennis saroylari va kortlari Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarida bunyod etildi, ular negizida turli darajadagi xalqaro musobaqalar o'tkazilib kelinmoqda.

1994 yildan Toshkentda ATR tasnididan joy olgan «Prezident Kubogi» xalqaro turniri, «Toshkent Open» xalqaro ayollar turniri, shuningdek, Farg'on, Samarqand, Guliston, Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlarda «Chelenjer», «Fyuchers» va «Satellit» turkumidagi xalqaro tennis turnirlari o'tkazilib kelinmoqda. 1997 yilda mamlakatimizda tennisni nirivojlantirish va uni

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus jamg'arma tashkil etildi. Mamlakat aholisiga o'tasida tennisni targ'ib etish va jalb qilish, shug'ullanuvchilarga tegishli sharoitlar yaratish maqsadida «O'zbekiston Respublikasida tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari»<sup>18</sup> to'g'risida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi (1998 yil). Qarorga muvofiq, viloyatlarda tennis federatsiyalari, klublari tashkil etildi, ushbu sport turi yuqori bosqichga olib chiqildi.

Olimpiya o'yinlari dasturidan o'rinni olgan sport turlarini mamlakatda rivojlantirish bilan birga, milliy sport turi «Kurash»ni jahon sport arenalariga olib chiqish borasida mislsiz ishlar amalga oshirildi. O'zbek milliy sporti – kurashni yanada rivojlantirish, uning xalqaro maydonda mustahkam o'rinni egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1999 yilda «Xalqaro Kurash Assosiasiyanini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, yurtimizda Xalqaro kurashni rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. Xalqaro kurash assotsatsiyasi hamda Xalqaro kurash akademiyasiga davlat tomonidan huquqiy va amaliy jihatdan katta e'tibor ko'rsatildi. Mamlakat birinchi Prezidenti I.Karimov Xalqaro Kurash Assosiasiyanining faxriy prezidenti etib saylandi.

O'zbekistonning sport sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri milliy kurashning dunyo miqiyosiga chiqishi bilan bog'liqdir. Jahonning 76 mamlakatida kurash federatsiyalari tuzildi. Bu milliy sport turi bo'yicha dastlabki Osiyo, Yevropa, Afrika qit'alararo jahon championatlari o'tkazilmoqdi.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni kompleks rivojlantirish maqsadida «O'zbekstonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining qarori 1999-yilda qabul qilindi. Qarorga binoan, «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Davlat dasturi konsepsiysi» tasdiqlanib, uning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar qabul qilindi:

1.Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish;

2.Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari va sportning milliy turlarini rivojlantirish;

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi-da tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.Toshkent sh.,1998-yil 11-sentabr, 392-son

- 3.Jismoniy tarbiya hamda sportni ilmiy-uslubiy va tibbiy ta'minlash;
- 4.Jismoniy tarbiya va sport tizimi imkoniyatlarini rivojlantirish;
- 5.Jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish;
- 6.Jismoniy tarbiya va sport sohasida mablag‘ bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, nodavlat sektorini rivojlantirish.

2000 yilda Dastur tadbirlari asosida «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahriri Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi. Toshkent shahrida boksni, milliy sport turlarini rivojlantirish, Shahrishabzda kurashni rivojlantirish respublika markazlari tashkil etildi. Aholining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beradigan «Alpomish» va «Barchinoy» testlari ishlab chiqilib, amaliyatga joriy etildi. Mamlakatimizdagи barcha sport inshootlari ro‘yxatdan o‘tkazildi. Viloyat markazlarida olimpiya zaxiralari kollejlari ishga tushira boshlandi.

O‘zbekistonda sportchi va murabbiylar mehnatini ma’naviy va moddiy rag‘batantirishga katta e’tibor berilib, «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustasi» va «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi» faxriy unvonlari ta’sis etildi (1992 yil). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Olimpiya o‘yinlari va jahon championatlarida sovrinli o‘rinnlarni egalagan sportchilarga beriladigan «O‘zbekiston iftixori» faxriy unvoni (1998 yil) ta’sis etildi.

O‘zbekiston sportchilari nufuzli xalqaro musobaqalarda qatnashib, barcha qiymatdagи medallarni qo‘lga kiritdilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan Norvegiyaning Lillixamer, AQShning Atlanta, Avstraliyaning Sidney shaharlarida bo‘lib o‘tgan Olimpiya va Osiyo o‘yinlarida hamda jahon championatlarida muvaffaqiyatli qatnashgan respublika sportchilari va ularning ustozlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Olimpiya o‘yinlarida, jahon championatlarida yuqori natijalarga erishgan mamlakat sportchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yuzasidan qator choratadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, Olimpiya o‘yinlarida birinchi o‘rinni egallagan sportchiga 100 ming, ikkinchi o‘rin uchun 50 ming va uchinchi o‘rin uchun 25 ming AQSH dollarari miqdorida mukofotlar belgilandi. Mamlakat terma jamoa a’zolariga jahonning nufuzli musobaqlariga

sifatli tayyorgarlik ko'rish maqsadida istalgan sport inshootlaridan bepul foydalanish huquqi, zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Ana shunday imkoniyatlar O'zbekiston sportchilarining Sidney va Afina Olimpiadalarida muvaffaqiyatlari qatnashishini ta'minladi.

Mamlakatda yosh avlodning jismoniylarini ma'naviy barkamolligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish hamda sport uskunalarini va jihozlari bilan ta'minlanishini yanada faollashtirish maqsadida, 2002-yilda «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqolpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesh raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar homiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzlusiz jalg qilishni tashkil etish maqsadida, 2003 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalg qilishga qaratilgan uzlusiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi.

Bolalar sport tovarlari turlarini ko'paytirish hamda mintaqalar, maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan «Bolalar sportini targ'ib qilish va bolalar uchun sport tovarlari ishlab chiqarish turlarini kengaytrish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining (2003-yil) qarori qabul qilinib, uning asosida mamlakatda sport kiyimlari va anjomlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, uning mohiyatini mamlakat aholisiga keng yetkazish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2003-yilda «Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, unga binoan,

O'zbekiston televideniyesida maxsus «Sport» kanali tashkil etildi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir qonun, farmon va qarorlar bu sohaning tez sur'atlar bilan taraqqiy etishiga, xalqaro maydonda O'zbekiston nufuzi va obro'sining oshishiga, qolaversa, aholining, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarning sportga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga olib keldi. Mamlakatda sog'lomlashtirish ishlari barcha ijtimoiy va ishlab chiqarish soha muassasalarida jonlandi, boshlang'ich sport jamoalarining ishlari faollasha boshladi.

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan 504 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari va ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari maktablari, 11 ta olimpiya o'rribosarlar bilim yurti hamda 8 ta Respublika oliv sport mahorati mакtabida yuqori malakali, iste'dodli sportchilar tayyorlanmoqda. Malakali sportchilarni tayyorlash bilan birga, ommaviy sportni rivojlantirishda sport jamoalari, federatsiyalar va boshlang'ich sport jamoalari tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirildi. 1991-yilda yurtimizda 52 sport turi mavjud bo'lsa, 2000 -yilga kelib ularning soni 70 taga yetdi. Bugungi kunda amalda bo'lgan 70 ta sport turidan 25tadan ortig'i barcha hududlarda keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun tegishli sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur ishlar evaziga sport bilan shug'ullanayotganlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Futbol, tennis, kurash, voleybol, basketbol, gandbol, yengil atletika bilan shug'ullanuvchilar soni yildan-yilga tez sur'atlar bilan, ayniqsa, yoshlar orasida, ommaviylishib bormoqda. Jumladan, 2003 -yilda futbol bilan shug'ullanuvchilarning soni 1992-yildagiga nisbatan 172 foizni tashkil etgan bo'lsa, kurash bilan shug'ullanuvchilar esa 4,6 barobarga ko'paygan. Ta'kidlash joizki, barcha hududlarda ana shunday o'sish holati kuzatilmoqda.

Joylarda sport turlarining jadal rivojlanishi shug'ullanuvchilar sonining mutnazam oshishiga va aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan turli musobaqlarning tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Bu musobaqlar orqali o'quvchi-yoshlar, nogironlar, ishchi va xizmatchilar, barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilindi. Har yili umumta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey o'quvchilari, talabalar, ishchi va xizmatchilar, huquq-targ'ibot, mudofaa xodimlari o'rtasida basketbol va voleybol bo'yicha «Kamolot kubogi», milliy sport o'yinlari musobaqlari,

harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar o'rtasida «Shunqorlar» harbiy sport musobaqlari, nogironlar o'rtasida «Jasorat-iroda g'alaba» musobaqlari, shuningdek, ayollar, qishloq xotin-qizlari spartakiadalarini va boshqalar muntazam o'tkazib kelinayapti.

2000- yildan boshlab uzlusiz sport musobaqlari tizimi asosida talabalar o'rtasida «Universiada», o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida «Barkamol avlod» va o'quvchilarning «Umid nihollari» sport musobaqlari o'tkazila boshlandi.

### **1.1. Bolalar va o'smirlar sportini rivojlantirish masalalari.**

Yosh avlodni sport bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarziga amal qilishi, ma'naviy va jismoniy kamolotga intilishi, Vatanga mehr-muhabbat, o'z yurti bilan g'ururlanishi ruhidagi tarbiyalasnislari asosiy yo'naliish sifatida belgilandi. O'zbekistonda bolalar ommaviy sportini rivojlantirishni ta'minlash maqsadida joylarda sport muassasalarining barpo etilishi, yangi sport turlaridan to'garaklar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ularni tegishli jihozlar bilan ta'minlanishi, sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va o'smirlar sonining yildan yilga ortib borishiga asos bo'lmoqda.

Mamlakat birinchi Prezidenti boshchiligidagi «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» homiylik kengashi o'z faoliyatini joylarda bolalar jismoniy tarbiya va sportining moddiy bazasini shakllantirish, aholi manzilgohlarida zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etishdan boshladi. Bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish maqsadida, mamlakat va hududlar miqiyosida sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va o'smirlar soni aniqlanib, ilmiy va tibbiy asoslar hamda hududlarning tabiiy sharoitlari hisobga olingan holda istiqbolli sport turlari rivojlantirila boshlandi. Jamg'arma orqali sport inshooti qurilishi va ta'mirlanishi yo'lga qo'yildi. Respublikada tibbiy va ilmiy asoslangan 2,8 mingdan ortiq sport to'garaklari tashkil qilinib, ularga 85 mingdan ortiq bolalar jalb qilindi.

Bolalar ommaviy sport mahorati bo'g'inidagi tadbirlar, ommaviy razryadlar ko'rsatkichidan ikkinchi-sportning yuqori mahorati bo'g'iniga, o'smir-yoshlar sporti orqali tayyorlanadigan 1-chi razryadli, sport ustasi nomzodi va sport ustasi darajasiga chiqish imkoniyatlarini yaratdi. Mamlakatda ommaviy va yuqori sport tizimi doirasidagi Bolalar va o'smirlar

sport maktablari, olimpiya o'rribosarlari kollejlari, Respublika oliy sport mahorati maktablarida yuqori malakali va iste'dodli, o'z Vatani ishon-shuhrati uchun kurasha oladigan sportchilar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Malakali sportchilarni tayyorlashdagi birlamchi chora-tadbirlar Turizm va sport vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Kasaba uyushmalari tizimida faoliyat ko'rsatayotgan 504 bolalar va o'smirlar sport maktablarida (BO'SM) amalga oshirilmoqda. Yoshlar, bolalar va o'smirlar sport maktablarida malakali sport murabbiylari qo'l ostida o'qishdan tashqari vaqtida sport bilan shug'ullanib, yuqori bilim va sport mahoratiga ega bo'lganlari sport kollejlariiga o'qishga qabul qilindilar. Zamonaviy o'quv va sport bazasiga ega bo'lgan ana shunday kollejlar Jizzax, Xorazm, Andijon, Farg'onan shaharlarida foydalanishga topshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 17-yanvardagi «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 27-sonli qaroriga muvofiq, Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida futbol mакtab-internatlari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1999-yil 27 - maydagи 271-sonli qaroriga asosan viloyatlar markazlarida olimpiya o'rribosarlari kollejlari tashkil etilmoqda.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida ommaviy uch bosqichli musobaqlardan tashqari, har yili 60 dan ortiq sport turlari bo'yicha mamlakat, viloyat, tuman birinchiliklari o'tkazib kelinmoqda.

### **1.2. Milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish masalalari**

Mustaqillik xalqimizning milliy sport o'yinlarini qayta tiklash va xalqaro maydonga olib chiqish imkoniyatini berdi. Mamlakatda 1992-yildan buyon milliy sport turlari va xalq o'yinlari festivali o'tkazilib, 1999 -yildan ayollar o'rtasida ham «To'maris» milliy sport musobaqlari va xalq o'yinlari festivali o'tkazila boshlandi.

Mamlakatimiz rahbariyatining doimiy e'tibori tufayli xalqimizning faxri bo'lgan o'zbek kurashi xalqaro maydonda tan olindi. 1992-yildan Termiz, Buxoro, Urganch, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlarda o'zbek kurashi bo'yicha Amir Temur, At-Termizi, Bahovuddin Naqshband,

Bobur Mirzo, Pahlavon Mahmud xotiralariga bag'ishlangan xalqaro turnirlar o'tkazib kelinmoqda. O'zbek kurashining yangi qoidalar, yangi kiyimi tasdiqlanib. 1992 -yilda Janubiy Koreyada, 1993-yilda Kanadada, 1994 -yilda Yaponiyada, 1995- yilda Hindistonda, 1996-yilda Atlantada, 1998-yilda Monako va Moskvada o'tgan xalqaro turnirlar targ'ib qilinib, ilmiy tizimga asoslangan tarzda dunyo miqyosiga olib chiqildi.

1998- yilda Xalqaro kurash assotsatsiyasi tashkil etilib, 1999 - yilda Toshkent shahrida kurash bo'yicha birinchi, 2000- yilda Turkiyanining Antaliya shahrida ikkinchi, 2001-yilda Vengriyaning Budapesht shahrida uchinchi, 2002- yilda esa Jahon championatlari o'tkazildi.

Shu bilan birga, belbog'li kurash, turon yakka kurashi, ko'pkari-ulqoq kabi milliy sport turlari ham xalqaro sport maydonlarida munosib o'rinnegallay boshladidi. Mazkur sport turlari bo'yicha ham xalqaro musobaqalar tashkil etilmoqda.

Toshkent shahrida Milliy sport turlarini rivojlantirish markazi tashkil etilgani bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish imkonini bermoqda.

Uzoq tarixga ega bo'lgan milliy kurashimiz umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirishi, usullarining boyligi bilan qisqa vaqt ichida ko'pgina mamlakatlar sport jamoatchiligi e'tiborini tortdi. Mamlakatimiz Prezidenti va sport faollari sa'y-harakati tufayli xalqaro miqyosda tobora ommalashib borayotgan sportning bu turi yaqin kelajakda Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilishi, shubhasiz.

### **1.3. Katta sport**

O'zbekiston sportchilari eng yirik xalqaro musobaqlarda – Olimpiyada va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo championatlarda mustaqil davlat vakili sifatida qatnashishdek ulkan va mas'liyatlari sharafga tuyassar bo'ldi.

Mamlakat sportchilari xalqaro sport maydonlarida mustaqil O'zbekiston bayrog'I ostida ilk bor 1992-yilda Barselonada o'tkazilgan Olimpiadada qatnashdilar. O'sha yilning o'zidayoq 17 nafar vakilimiz 3 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medalni qo'lg'a kiritib, sport dunyosida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan yangi davlatning salohiyatini namoyish etdilar. 1992 yilda Milanda bo'lib o'tgan Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi yuzdan ortiq mamlakat vakillarini ortda qoldirib, jahon championi G.Kasparov boshchiligidagi Rossiya terma

jamoasidan so'ng faxrli ikkinchi o'rinni egallagani kata voqeа bo'lgan edi. 1991 yilgacha mamlakatimizdan faqat bitta xalqaro grossmeyster - Georgiy A'zamov yetishib chiqqan bo'lsa, o'n bir yillik mustaqillik davrida 10 nafar grossmeyster yetishib chiqdi. Shuningdek, o'smirlar o'rtasida Jahon championi degan sharafga musharraf bo'lgan I.Hamroqulov, dunyo reytingida yuqori o'rinni egallab turgan 2004 -yil Tripolida o'tgan jahon championati g'olibi sifatida shaxmat tojini kiygan R.Qosimjonov kabi iste'dodli shaxmatchilar ham yetishib chiqdi.

O'zbekiston sportchilari yozgi va qishki Olimpiya, birinchi osiyo va Butunjahon o'smirlar o'yinlarida hamda eng yirik xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirot etib, birgina bokschilarimiz orasida 1 ta Olimpiyada championi, 3 ta Olimpiya o'yinlari sovrindori, 5 ta Osiyo o'yinlari g'olibi, 5 ta jahon championati sovrindori, 5 ta Osiyo o'yinlari g'olibi, 13 ta Osiyo championi, 3 ta jahon Kubogi g'olibi, 1 ta «Yaxshi niyat» o'yinlari g'olibi yetishib chiqqani ham bu fikrning tasdig'idir.

O'zbekistonda xalqaro sport tadbirlari Mustaqillikka qadar deyarli o'tkazilmagan bo'lsa, so'nggi yillarda respublika eng yirik xalqaro musobaqalarni yuksak tashkiliy darajada o'tkazishga qodir bo'lgan mamlakat sifatida shuhrat topdi. Zamonaviy sport inshootlarining bunyod etilishi diyorda eng yirik xalqaro musobaqalarni o'tkazish imkoniyatini bermoqda. 1995- yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda birinchi marta Markaziy Osiyo o'yinlari tashkil qilinib, musobaqalar Xalqaro Olimpiya qo'mitasi prezidenti X.A.Samaranch ishtirokida o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Kubogi uchun 1994-yildan buyon an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan tennis bo'yicha xalqaro turnir 1999 va 2000- yillar yakunlariga ko'ra, Professional Tennischilar Assosiatsiyasi (ATR) maqomi ostida o'tkazilgan 77 ta xalqaro turnirlar orasida tashkiliy jihatdan eng yaxshisi deb topildi.

#### **1.4. Sport inshootlari**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yuzasidan katta ishlар amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg'on'a, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. Toshkent shahridagi «Jar», «Yunusobod», Milliy

bank, Namangan shahrida «Pahlavon», Jizzax shahridagi olimpiya zaxiralari kolleji sport majmualari shular jumlasidandir. 2000- yilga kelib mamlakatda sport inshootlari soni 7407 taga yetdi, yoki 1992 yildagiga nisbatan 19 foizga ko'paydi. Ularni bonyod etishda murakkab sport inshootlari-stadionlar, suzish havzalari, sport zallariga alohida e'tibor berilayapti. 2003- yildan 1991- yilga nisbatan stadionlar soni 177 taga yoki 96 foizga, sport zallari 1950 taga yoki 44 foizga, suzish havzalari 100 taga yoki 87 foizga oshdi. Bundan tashqari, futbol maydonlari soni 2114 taga - qariyib 4 barobarga ko'paydi. Asosiysi, yangidan barpo etilgan yoki rekonstruksiya yo'li bilan qayta tiklangan barcha sport- sog'lomlashtirish maskanlari zamонави loyiҳalar, sharqona uslubi va yuqori samaradorlik asosida tashkil etilayotgani, barcha sport turlari bo'yicha texnik malakalarni egallash imkonini beruvchi vositalar bilan jihozlanayotgani tahsinga loyiқdir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bunday amaliy ishlar yaqin kelajakda yanada ko'proq natijalar berishi shubhasiz.

**O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:**

1. Mustaqillik yillarda jismoniy madaniyat va sportga qaratilgan e'tibor borasida fikringiz?
2. O'zbekistonda sportchi va murabbiylar mehnatini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimi qoniqarli darajada yo'lga qo'yilganmi?
- 3.O'zbekistonda katta sportni rivojalantirishning ahamiyatli tomonlari nimada?
- 4.Milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish masalalari borasida fikringiz?

## 13-Modul. Darsdan tashqari ommaviy jismoniy va sport-sog'lomlashtirish ishlarining mazmuni va tashkillashtirish uslubiyati.

### 13.1. Ta'lim muasasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkillashtirish.

Ma'lumki, jismonan sog'lom, bilimli va ma'naviy yetuk insonni tarbiyalash masalalari jahon, ayniqsa, Sharq faylasuflari hamda mutafakkirlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Chunonchi, Arastu, Farobi, Ibn Sino, Ibn Rashid, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' allomalarning asarlari va nazariy ta'limotlari shular jumlasidandir.

Qolaversa, yurtimizda azaldan yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan uygun tarbiyalashning milliy an'ana va qadriyatlarimizga mos qoidalari, ularni amalga oshirishning sharqona uslub va shakllari bo'lgan.

Yosh avlodni ham jismoniy, ham aqliy jihatdan yetuk va komil etib tarbiyalash vazifasi qo'yilgan davrlarda ikki tarbiyaviy yo'naliishi uyg'un holda olib borish va samaradorligini ta'minlash bosh masala hisoblangan. Shu tufayli ajdodlarimiz o'z milliyligini, ma'naviy boyligini saqlabgina qolmasdan, ezgulik, taraqqiyot, ma'rifat, mustaqillik sari intilganlar. Millatimizga xos ana shunday obyektiv intilish, millatparvarlik,vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar Cho'lpon, Behbudiy, A.Avloniy kabi buyuk mutafakkir hamda ma'rifatparvarlar hatti-harakatlari tufayli sayqal topib bordi, xalqimiz har qanday og'ir sharoitda ham sog'lom va yetuk farzandlar tarbiyalash ustuvor hisobladi.

Bu faollik nafaqat dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilikni, sanoat va qurilishni rivojlantirishda, balki jamiyat va oila hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zaro uyg'unlashtirishda ham namoyon bo'lgan. Jismoniy va intellektual yetuk insonning faolligi, aql-zakovati, kuch-qudrati quyidaga yo'naliishlarda zarur va samaralidir: Birinchisi - haqiqatni bilish; ikkinchisi - Sobiq tuzum davrida siyosiy, mafkuraviy va ijtnmoiy muhit yoshlarning jismonan sog'lom, har tomonlama komil inson bo'lib voyaga yetishlariga to'sqinlik qilardi. Qishloq hududlaridagi maktablarning moddiy-tehnik bazasi nochor bo'lgani, milliy sport o'yinlarining deyarli yo'qotilgani jismoniy tarbiya va sportning darajasiga, bu boradagi tarbiyaviy ishlar saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan boshlab yoshlarning jismoniy-intellektual resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va tashkiliy shart-sharoit yaratish imkoniyatlari ham paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz ta'lif va sport tizimida islohotlarni uyg'un tarzda jismonan sog'lom, aqlli va bilimli yoshlarni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirish bo'yicha kuppina amaliy ishlar qilinmoqda. Ishlab chiqarishda esa mehnat unumdorligini oshirish omili sifatida tabiiy resursdan olinadigan mahsulot hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Eng muhimmi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning barkamol avdodni tarbiyalash to'g'risidagi quyidagi fikrlari ijtimoiy tafakkurni ham o'zgartirmoqda: «Yana ming yillardiki davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, intellektual, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy boylik hal qiladi. Bunday boylik ustuvor bo'lgan joyda moddiy boylikking o'zi oqib keladi»

Biz mazkur yo'nalishda insonning barkamollik darajasini sifat na miqdor jihatdan ko'rsatuvchi «jismoniy-intellektual resurs» degan tushunchani qabul qildik.

U, asosan, foydadanish mumkin bo'lgan boylik va imkoniyat, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash uchun ishlatiladigan zaxira ma'nosida qo'llanilgan. «Intellekt» so'zi esa aql-idrok, zehn ma'nosini bildirib, kishilarning ma'naviy yetukligini ham ifoda etadi.

Shunga ko'ra, jismoniy va intellektual resurslarni bir-biridan ajratmagan holda, o'zaro uyg'unlikda rivojlantirish yoshlardagi yillar davomida shakllangan har ishga jismoniy-intellektual salohiyatdan yaratuvchanlik, salomatlik, barkamollik va go'zallik manbayi, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini, xalq-turmushi tobora yaxshilanib, Vatan xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi. XXI asrda qaysi davlat qudratli, qanday xalq kuchli bo'ladi?

Mamlakatimizda ijtimoiy faol fuqaro, mustaqil shaxs, barkamol inson tarbiyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'sib kelayotgan yosh fuqarolarning avvalo o'z haq-huquqini taniyidigan va buning uchun kurasha oladigan, ikkinchidan, o'z kuchi va imkoniyatlariiga (resurslariga) tayanadigan, uchinchidan, atrofda bo'layotgan voqealarga hodisalarga mustaqil

munosabat bildira oladigan, to'rtinchidan esa, mamlakat va xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan yuqori qo'yadigan insonlar.

Bu talablarga to'liq javob bera oladigan komil insonlarni tarbiyalash uchun ularning jismoniy-intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini oshirish lozim. Mazkur talab ommaviy sportni Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida bosqichma-bosqich keng rivojlantirish va amalga oshirib borishni taqozo qiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos ravishda shakllantirilgan uzluksiz ommaviy sport harakati jismoniy-intellektual resurslarni vujudga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri sifatida umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi.

### 13.2. Sport musobaqalarini tashkillashtirish tartibi.

**Musobaqa** – bu o'quv-tayyorlov (trenirovka) jarayonining tarkibiy qismidir. Trenirovka jarayonida odatda, sportchining yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradigan hamma sifatlarni yuksak darajada namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish imkoniyati yo'q.

Musobaqlarda har bir sportchi o'z raqibini yengishga intiladi va bu intilish sportchidan butun kuchni safarbar etishni talab qiladi. Bu nafaqat insonning funksional imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradi, balki ularni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Musobaqlar quydagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- sport jamoasida o'quv-trenirovka ahvolini aniqlash;
- kurashchilar tayyorgarligi darajasini aniqlash;
- u yoki bu tayyorgarlik bosqichida o'quv-trenirovka ishiga yakun yasash;

- kurashni tarjiba qilishga va shug'ullanuvchilar sonini oshirishga yordam berish.

Kurash musobaqalarini o'tkazish xususiyatiga ko'ra ular quydagicha bo'ladi:

- a) shaxsiy;
- b) jamoa;
- v) shaxsiy-jamoa;

g) toifalash.

Shaxsiy musobaqlarda ishtirokchilarning har bir vazn toifasida egallagan o'rnlari aniqlanadi; jamoa musobaqalarida jamoalar o'rnani aniqlanadi; shaxsiy-jamoa musobaqalarida bir vaqtida ishtirokchilar va jamoalarning egallagan o'rnlari aniqlanadi. Toifalash musobaqalari ishtirokchilarning egallagan o'rnlarini aniqlamasdan o'tkazilishi mumkin. Ishtirokchilar tomonidan ko'rsatilgan natijalar sport toifalariga muvofiq unvonlar hamda toifalarni (razryadlarni) berishda yoki tasdiqlashda hisobga olinadi.

Musobaqalarni o'tkazish usuliga ko'ra ular quyidagi turlarga bo'linadi;

- a) aylanma usul;
- b) chetlatish bilan aylanma usul;
- v) aralash usul.

Musobaqalarni o'tkazish usullari xususiyatlari musobaqalar nizomida belgilab berilgan.

**Tayyorgarlik musobaqalarining** asosiy maqsadi-kurashchilarni musobaqa sharoitlariga moslashtirish, musobaqa faoliyatining oqilona texnik-taktik harakatlarini mustahkamlash, musobaqa tajribasini egallahdir.

**Nazorat musobaqalarida** sportchining imkoniyatlari tekshiriladi, uning tayyorgarlik darajasi, bosib o'tilgan tayyorgarlik bosqichi samaradorligi aniqlanadi. Ko'rsatilgan natijalar orasida kurashchilarning kelgusidagi tayyorgarlik dasturi ishlab chiqiladi.

**Saralash musobaqalari** natijalari bo'yicha asosiy musobaqalarning ishtirokchilari aniqlanadi.

**Asosiy musobaqalarning** bosh maqsadi g'alabaga erishish yoki imkonini boricha yuqori o'rnlarni egallahdan iborat.

Musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish uchun ikkinchi muhim hujjat – bu musobaqa nizomidir.

Musobaqa kalendar reja va kurash bo'yicha musobaqa qoidalari asosida tuziladi. Musobaqa nizomi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

**Musobaqa maqsadi va vazifalari.**

Bu bo'limda musobaqa o'tkazayotgan tashkilotning o'z oldiga qo'yadigan asosiy maqsadi va vazifalari ochib beriladi:

- sport jamoalarida o'quv-trenirovka va tarbiyaviy ishlarning ahvolini

tekshirish;

- terma jamoa tarkibini to'ldirish maqsadida eng yaxshi kurashchilarni vazn toifalari bo'yicha saralab olish;
- sport tashkilotlari va sportchilar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlash;
- aholi o'rtasida sport kurashini ommalashtirish va yoshlarni kurash bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish.

### **Musobaqalarni boshqarish.**

Bo'limda musobaqalarni tayyorlash va o'tkazishga umumiylah rahbarlikni amalga oshiradigan tashkilot, shuningdek, musobaqani o'tkazish aniq kimga yuklatilishi; musobaqalar joyini tayyorlash, sportchilar va hakamlarni kutib olish, joylashtirish, ovqatlanirish, ularga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun kim javobgar bo'lishi ko'rsatiladi.

Ishtirokchilar va qatnashuvchi tashkilotlar. Bo'limda musobaqalarda qatnashish uchun qaysi tashkilotlar va ishtirokchilarning qanday yosh guruhlariga ruhsat berilishi, trenerlar va vakillarning son tarkibi ko'rsatiladi.

### **Musobaqalarni o'tkazish shartlari va tartibi.**

Ushbu bo'limda musobaqalarni o'tkazish xususiyati va usullari ko'rsatiladi. Kunlar bo'yicha musobaqalar dasturi va turli vazn toifalaridagi bellashuvlar jadvali taklif qilinadi.

Shaxsiy, shaxsiy-jamoa va jamoa musobaqalarida sinov tizimi belgilanadi. Egallangan o'rinalar uchun ochkolarni berish jadvali tavsiya qilinadi.

### **Talabnomalarni berish muddatlari va tartibi.**

Dastlabki talabnomalarni berish muddatlari, shuningdek, oxirgi talabnomalarni berishning aniq muddati belgilanadi va mandat komissiyasiga taqdim etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi.

### **Ishtirokchilar va hakamlarni qabul qilish shartlari.**

Ushbu bo'limda sportchilarning kelish vaqtini, joylashtirilishi, ovqatlanish tartibi, yetib kelish muddati aytib o'tiladi, shuningdek, moliyaviy xarajatlar kimning hisobidan bo'lishi ko'rsatiladi.

### **G'oliblarni taqdirlash.**

Bu bo'limda mukofotlar sanab o'tiladi: musobaqa ishtirokchilari, jamoalar hamda ularni tayyorlagan trenerlar qaysi o'rinni uchun hamda nima bilan taqdirlanishlari ko'rsatiladi. Mukofotlarning maxsus turlari

ko'rsatiladi, ya'ni eng yaxshi texnika uchun, g'alabaga bo'lgan irodasi uchun, ko'p marta g'alaba qozonganligi uchun.

Musobaqalar nizomlariga bo'lgan asosiy talablar quyidagilardan iborat: aniqlik, ravshanlik, muayyanlik va asosiy bandlarda tushunchalarning turli xilda talqin qilinmaslidi. Ushbu hujjat amaldagi qoidalarga asoslanib tuziladi va musobaqa o'tkazadigan tashkilot tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangandan so'ng u ishtirokchilar va hakamlar kollegiyasi uchun majburiy hisoblanadi.

Hakamlar kollegiyasi (hay'ati) tarkibi va hakamlarning majburiyatları. Musobaqlarda xizmat ko'rsatish uchun hakamlar kollegiyasi kurash federatsiyasining hakamlar komissiyasi tomonidan tayinlanadi va musobaqa o'tkazayotgan sport tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi. Hakamlar kollegiyasi bosh hakam, bosh kotib, gilam rahbari, arbitr, yon hakam, sekundomerchi-hakam, axborotchi-hakam, musobaqalar shifokoridan tashkil topadi.

**Bosh hakam hakamlar** kollegiyasiga rahbarlik qiladi, musobaqa o'tkazayotgan tashkiloti va tegishli kurash federatsiyasi oldida musobaqalarning o'tkazilishiga javobgar bo'ladi.

Bosh hakam musobaqalar boshlanishidan oldin xonalar, jihozlar, asbob-anjomlar, zarur hujjatlarning yaroqliligini, ularning amaldagi qoidalarga muvofiqligini tekshirishi shart. Bosh hakam musobaqalar arafasida hakamlar kengashini o'tkazadi va hakamlar o'ttasidagi majburiyatlarni taqsimlaydi, ishtirokchilar vaznlarini aniqlash uchun komissiya tayinlaydi, shuningdek, gilamlar soniga qarab hakamlar brigadasini tuzadi.

Bosh hakam musobaqalar davomida musobaqalarning qoidalari va musobaqa nizomiga muvofiq ularning o'tkazilishini boshqarib boradi.

Ayrim hollarda, ya'ni agar musobaqalar boshlanishidan oldin musobaqa o'tkazish joyi, jihozlar yoki asbob-anjomlar yaroqsiz holatda bo'lsa, bosh hakam musobaqalarni bekor qilishi yoki noqulay meteorologik sharoitlarda yoki musobaqalarni o'tkazishga xalaqit beradigan boshqa qandaydir sabablarga ko'ra vaqtinchalik tanaffus berishi mumkin.

Bosh hakam musobaqalarning oxirgi kunida hakamlar, jamoa vakillari, trenerlarning yakuniy majlisini o'tkazadi, natijalarni tasdiqlaydi va hamma bajarilgan ishlarga baho qo'yadi.

**Musobaqalarning bosh kotibi** hakamlar kollegiyasi majlisi

bayonnomasini yozib boradi, qur'a tashlash marosimini o'tkazadi va aylana bo'ylab uchrashuvlar tartibini belgilaydi, musobaqalar jadvalini tuzib chiqadi, hamma hakamlik hujjatlarini to'ldirib boradi, arizalar va norozilik bildirishnomalarini qabul qiladi, ular ijrosi haqida bosh hakamga xabar beradi, musobaqlarning o'tkazilishi to'g'risida texnik hisobotni tayyorlaydi.

**Gilam rahbarining** vazifalari ustun bo'lib, u arbitr va yon hakam ishini muvofiqlashtirib turadi. U bellashuvning borishini diqqat bilan kuzatib turishi va musobaqalar qoidalariga muvofiq holda hakamlar hamda sportchilarni baholab borishi shart. Arbitr va yon hakam o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, u o'z qarorini chiqarishga haqlidir, lekin hech qachon u birinchi bo'lib o'z fikrini bildirmaydi, balki yon hakam va arbitr fikrini eshitadi. Agar arbitr va yon hakam sportchilarning harakat vaziyatlarini baholashda bir fikrda bo'lsalar, gilam rahbari hakamlar qaroriga aralashmaydi.

**Arbitr** bellashuvga bevosita hakamlik qilish paytida eng mas'uliyatlari vazifani bajaradi. U bellashuvning borishini boshqaradi, kurashchilar harakatini baholaydi va bellashuvning musobaqalar qoidasiga muvofiq o'tishini kuzatib turadi. U bellashuv boshlanishi to'g'risida signal beradi, bellashuvni to'xtatadi va yakunlaydi, yon hakam yoki gilam rahbarining ma'qullashiga qarab, bellashuvni tik turishda yoki parterda davom ettirishni belgilaydi. Bellashuv paytida arbitr shunday joyda turishi kerakki, u turgan joydan kurashchilar harakatlari yoki amalga oshirayotgan usullarini aniq baholay olish mumkin bo'lishi lozim. U kurashchilarning butun gavda qismini ko'rib turishi, ularning harakatlari va tashlanishlari yo'nalishini oldindan ko'zlay bilishi, ularni to'g'ri baholashi hamda har qanday vaqt dan to'g'ri va xavfli harakatlarni oldini olishga tayyor turishi zarur.

### **Musobaqalarning ahamiyati.**

Sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, ruhiy, funksional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi hamda qilinayotgan mehnatni natijasini ko'rsatadi.

To'g'ri va yaxshi tashkil qilingan musobaqalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki musobaqalar faqat jismoniy sifatlarga (kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik va egiluvchanlik) emas, balki ruhiy-psixologik

sifatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa davrida sportchilarning tashkilotchilik, o'zini tuta biliishlik, jamoa maqsadini o'z maqsadidan yuqori qo'ya olishlik kabi yana bir qancha sifatlari ham takomillashadi.

Musobaqalarda qatnashuvchilar, avvalombor, tajriba almashadilar, trenerlar esa yangi trenirovka usullarini sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sport musobaqlari sport turlarini targ'ib qilishning eng yaxshi va hammabop shakllaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda musobaqalar o'tkazilishi tufayligina sport o'yinlaridan basketbol, voleybol, futbol, gandbol, tennis va boshqalar ommalashdi. Demak, musobaqasiz sportning bo'lishi mumkin emas.

### **Musobaqalarning turlari.**

Musobaqalar qo'yilgan vazifalargagina qarab: birinchiliklar yoki championatlar, kubok musobaqlari, qisqartirilgan, baravarlashtirilgan, klassifikatsiya(tasniflash) va saralash musobaqlari, match va o'rtoqlik uchrashuvlar kabi turlarga bo'linadi.

Birinchiliklar yoki championatlar eng katta musobaqlardan bo'lib, ularda kollektiv, tuman, shahar, respublika championi degan faxriy unvon beriladi. Ular yilda bir marta o'tkaziladi. Birinchilik g'oliblari oltin, kumush va bronza medallari bilan mukofotlanadilar.

Kubok musobaqlari "yutqazgan chiqib ketish" prinsipida o'tkaziladi. Bu musobaqalar ko'p vaqt talab qilmaydi va ko'p qatnashuvchilarni jalgilish imkonini beradi.

Qatnashuvchilarning tayyorgarligi har xil bo'lganligi uchun kuchliroq jamoalarning uchrashuvlarini oxirgi bosqichlarga mo'ljallash kerak.

Qisqartirilgan musobaqalar (blits turnirlar)da ko'p jamoalar qatnashganlari holda bir kunda o'tkaziladi. Buning uchun o'yin vaqtini 30 minutgacha qisqartiriladi. Bunday musobaqalar mavsumming ochilishiga yoki bayramlarga bag'ishlab o'tkaziladi.

Baravarlashtirilgan musobaqalar tayyorgarligi har xil bo'lgan jamoalar orasida o'tkaziladi. Jamoalarning qiziqishini saqlab qolish uchun kuchsizroq jamoaga oldindan yoki uchrashuv tamom bo'lgandan so'ng qo'shimcha ochkolar beriladi.

Klassifikatsiya (tasniflash) musobaqlari jamoalarning (o'yinchilarning) tayyorgarligini aniqlash, sport klassifikatsiyasining razryad (toifa pog'onalar)

talablarini bajarish maqsadida o'tkaziladi.

Saralash musobaqlari tayyorgarligi eng yaxshi jamoalarni (o'yinchilarni) aniqlab, keyingi yirik musobaqlarda qatnashtirish uchun o'tkaziladi.

Match uchrashuvlari musobaqalar kalendarida ko'zda tutilgan va an'anaviy hisoblanadi. Uchrashuvlarda ikki va undan ortiq jamoalar qatnashishi mumkin.

Musobaqlarning bunday turlari alohida shaharlar, viloyatlar hamda chet davlatlar orasida do'stlik munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

O'rtoqlik uchrashuvlari bo'lajak musobaqlarga va sport trenirovkasining ba'zi bir bo'limlari bo'yicha tayyorgarlikni aniqlash maqsadida ayrim jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

### **Musobaqlarni tayyorlash, uning nizomi hamda sistemasi(tizimi).**

Musobaqlarni yuqori saviyada o'tkazish ularni tayyorlash darajasi qanday bo'lganligiga bevosita bog'liqidir.

Tayyorgarlik ishlariga hujjatlarni tayyorlash (ishlab chiqish), musobaqa o'tkaziladigan joylarni tayyorlash, qatnashuvchi jamoalar bilan ish olib borish va shu kabilar kiradi.

Har bir musobaqaga tayyorgarlik unga nizom tuzish bilan boshlanadi. Nizom musobaqa o'tkazishda asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi. U yoki bu tashkilot nizomni oldindan aniq bilishi, unga o'quv-trenirovka ishlarini to'g'ri rejalshtirishiga yordam beradi. Shuning uchun Nizomni o'z vaqtida qatnashuvchi tashkilotlarga oldindan yuborishlari o'ta zarur.

Nizom musobaqani o'tkazuvchi sport tashkiloti tomonidan tuziladi, hamda quyidagilarni ifodalaydi:

O'rtoqlik uchrashuvlari bo'lajak musobaqlarga va sport trenirovkasining ba'zi bir bo'limlari bo'yicha tayyorgarlikni aniqlash maqsadida ayrim jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

### **Musobaqlarni tayyorlash, uning nizomi hamda tizimi.**

Musobaqlarni yuqori saviyada o'tkazish ularni tayyorlash darajasi qanday bo'lganligiga bevosita bog'liqidir.

Tayyorgarlik ishlariga hujjatlarni (ishlab chiqish) va musobaqa

o'tkaziladigan joylarni tayyorlash, qatnashuvchi jamoalar bilan ish olib borish va shu kabilar kiradi.

Har bir musobaqaga tayyorgarlik unga nizom tuzish bilan boshlanadi. Nizom musobaqa o'tkazishda asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi. U yoki bu tashkilot nizomni oldindan aniq bilishi, unga o'quv-trenirovka ishlarini to'g'ri rejalashtirishiga yordam beradi. Shuning uchun Nizomni o'z vaqtida qatnashuvchi tashkilotlarga oldindan yuborishlari zarur.

### **Sport musobaqlarini tizimi.**

Sport musobaqlari o'ziga xos faoliyat bo'lib raqiblarning harakatini tartibga solishda katta rol o'yaydi, ularning ayrim qobiliyatlarini obyektiv ravishda solishtirib ko'rishga va jismoniy sifatlarni yuqori darajada namoyon bo'lishini, musobaqa davomida harakatlanishni yuqori darajada ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Sport hozirgi ko'rinishda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1).Sport musobaqlari raqobat darajasini ketma-ket yutuqlarga bo'lgan talablarini ortib borishi hamda sport musobaqlarining tizimiga asoslanib tashkil etiladi .

2) Musobaqlar bevosita bajariladigan harakatlarning, boshqarilish sharoitlari va yutuqlarning baholash usullarini tenglashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Bu tenglashtirish musobaqa o'tkazishning umumiy me'yorlari sifatida muayyan qoidalar bilan mustahkamlanadi.

3).Musobaqalashuvchilarni hatti-harakatlari raqobat tamoyillariga muvofiq tartibga solinadi.

Sportchi tanlab olgan turdag'i ko'rsatkichlarni, individual holda o'z imkoniyatlariga qarab namoyish qiladi.

Bu natijalar yo jismoniy g'alabani yoki raqibni yutish (ballarda, gollarda, ochkolarda va h.k.) natijasini yaxshilash uchun vaqt birligida, masofada, og'irlikda belgilanishi mumkin.

Sport natijalari har doim ko'p omilli hodisadir (bu esa ko'pgina sababarga bog'liq). Jamiyatdag'i sport natijalari taraqqiyotga ta'sir etuvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

1).Sportchining individual talanti va yuqori natijaga tayyorgarlik darajasi.

2).Sportga tayyorgarlik tizimining samaradorligi, uni mazmuniga, tahlil

etilishiga va material – texnik tomonidan ta'minlanganligiga.

3) Sport harakatining kengligiga va uni rivojlanishining umumiy ijtimoiy sharoitlariga bog'liq.

Sport musobaqalarining xususiyatlarini o'rganish sport sohasidagi mutaxassislarni qiziqtirib kelgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Birinchidan, musobaqa sportni asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ikkinchidan, sport musobaqalari, sport mashg'ulotidan genetik va bo'ysunishi bo'yicha "kattadir". Ma'lumki, inson ma'naviyati va madaniyati rivojlanishida yakkama-yakka kurash va sport turlari o'rtasida o'yinlar dastlab tashkil topgan. Keyinchalik esa ularning shakllari, uslublari va elementlari tashkil topa boshlagandan keyin tayyorgarlik ko'rish yo'llari aniqlana boshlanadi.

Uchinchidan, sport musobaqalari sportchining jismoniy taktik-texnik imkoniyatlarini, zaxiralarini va sport jamoasini imkoniyatlarini aniqlashda "Poligon" (ko'pburchak) bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, faqat musobaqa vaqtida psixologik qarshiliklarni yengish uchun raqobatchilik hosil qilinib, sportchini musobaqa faoliyatini psixologik strukturasi aniqlanadi.

**Musobaqa faoliyati** – bu tartiblashtirilgan raqobat bo'lib, o'z qobiliyatini obyektiv(xolisona) ravishda solishtirish va maksimal darajada natija ko'rsatilishini ta'minlash hamda tartibga solishdir. Bu bir qancha maxsus xususiyatlarga ega:

1. Musobaqa tizimida raqobatni oshib borish darajasiga qarab, yutuqqab o'lgan talabga nisbatan (dastlabki va ofitsial musobaqalarda) faoliyati tashkil qilinadi.

2. Musobaqa o'tkaziladigan vositalarni amalga kiritishda sportchining faoliyati, ma'lum qoidalar musobaqani umumme'yorlari bilan mustahkamlaydi.

3. Musobaqalashuvchilarni xulqi va o'zini tutish tartibiga ham bog'liq.

Sport musobaqalari - his-hayajon holatidagi ko'rinishda bo'lib hozirgi kunda 100 dan ortiq sport turi bo'yicha musobaqa o'tkaziladi. Har qaysi sport turi musobaqa o'tkazish uchun o'zining metodik xususiyati, qatnashish sharti, o'tkazish qoidasi, g'oliblarni aniqlash va boshqa talabarga egadir.

Musobaqa qisman sportchini tayyorlash tizimiga kiradi. Chunki

musobaqani faqat shaxsiy sport tayyorgarligiga ega bo'lmasdan ijtimoiy vazifalarni hisobga olgan (targ'ibot, ko'rgazmalilik va b.q.) holda ham tashkil qilish mumkin.

**Sport musobaqasi** - o'yin shaklida raqobat qilish shakli bo'lib, jismoniy tayyorgarligi, harakat malakasi va mashqlarni bajarish san'ati yoki o'yash va taffakur qilishni rivojlantirishni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

### **13.3. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimining rivojlanishi.**

Bahosiz dori-darmonlardan biri - bu jismoniy mashqlardir. Buni Abu Ali Ibn Sino birinchi bo'lib ilmiy asoslab "Badantarbiya bilan muntazam shug'ullanib borgan odamga, dori-darmonga zaruriyat qolmaydi"- degan.

Yuqorida qayd etilgan talab va vazifalarni amalgalash oshirish o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Agarda boshlang'ich sinflarda - 1-sinfdan boshlab jismoniy tarbiya darslarini mutaxassis o'tkazayotgan bo'lsa bolalarning jismoniy tayyorgarlik holati yaxshi bo'ladi. Aksincha, jismoniy tarbiya mutaxassisligiga ega bo'Imagan boshlang'ich sinf o'qituvchilar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borsalar, amaliyot ko'rsatishicha, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi juda past bo'ladi.

Kollejni bitirgan boshlang'ich sinf o'qituvchilar bu fan bo'yicha yetarli bilimga ega bo'la olmaydi. Shu bois ham, ular o'tkazayotgan jismoniy tarbiya darslarining sifati zamon talabiga javob bera olmaydi. Natijada o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi ham past bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarni-oltin yosh deyiladi. Chunki shu yoshda ular murakkab harakatlarni yengil o'zlashtira oladigan yosh davri bo'ladi. Shuning uchun ko'p sport turlari bo'yicha bolalarni 5-7 yoshdan sport maktablariga qabul qiladi.

Ikkinchini tomondan, "Salomatlik"ning asosiy omili jismoniy tayyorgarlikdir.

Bu masala bo'yicha amaliyot katta tajribaga ega. Ular turli mashqlarni bajarish natijalarini yaxshilash, harakat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, harakat texnikasini o'rgatish sifatini ko'tarish va jismoniy harakat sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Hamma davr pedagoglarining ko'rsatib o'tishicha o'yin bolalarda shodlik, quvonch, tabbassuni ta'minlaydi, bolaning ko'nglini shakllanishiga, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi, bolalar jismoniy kuchini va qobiliyatlarini

rivojlantiradi.

Umuman olganda, o'yin o'g'il va qiz bolalarni nima uchun o'ziga tortadi. Eng avvalo, o'yin holatini har doim o'zgartirib turish va harakat jarayonining o'zini qiziqligi bilan, tasodify holatlardan mustaqil chiqib ketish, o'z kuchini, o'z tezkorligini, chidamliligini ko'rsatish, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lishni maqsad qilib qo'yish bolalarning qiziqishlariga sabab bo'ladi. Hatto o'tkaziladigan harakatli o'yinni nomini o'zi bolalarda ijobiy tabassum, kayfiyat, yoqimli xayajonlanishni olib kelishga ko'maklashadi. Harakatli o'yinlar nafaqat kichkintoy bolalarga, balki kattalarga ham juda yoqadi. Ular ham sevinch bilan o'ynaydilar. Shuning uchun ham, O'zbekiston pedagogikasida bolalar o'yinini rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya dasturiga kiritilgan bo'lib, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida keng o'rin egallaydi, o'tkaziladi va bolalar kun tartibiga kiritiladi. Harakatli o'yinlar bo'yicha musobaqa o'yini "Quvnoq startlar" ni juda yaxshi bilamiz.

Respublikamiz bolalar pedagogikasida o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash uchun o'yin bolaning aqliy va jismoniy jihatdan har tomonlama garmonik rivojlanishiga ko'maklashadi.

Qanday o'yinlar maktabda o'tkazilishi lozim, qanday o'yinlarni musobaqalarga kiritish mumkin. Ko'p o'yinlar uchun murakkab tayyorgarlik talab etilmaydi va bolalar uchun tanish bo'lib, ular uchun sport inshoatlari yoki sport buyumlari ham zarur emas. Shu bilan birgalikda, ishtirot etuvchi bolalar bir-birinining kuch-quvvat, iroda, chaqqonlik va boshqa fazilatlarini yaxshi biladilar.

O'g'il bolalar ko'pincha kuch, tezkorlik va chaqqonlikni ko'rsata oladigan o'yinlarni sevadilar, qizlar esa arqonchalar va kichik koptok bilan o'ynaladigan o'yinlarni yoqtiradilar. Lekin bu o'yinlarda ham chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va boshqa fazilatlarini ko'rsatish mumkin.

"Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdigi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi" (Islom Karimov).

Jismoniy tarbiya dasturlarining nazariy bilim asoslari qismida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish masalasiga

kam e'tibor qaratilgan, deyarli yoritilmagan desa ham bo'ladi. Ayniqsa, o'quvchilar mustaqil o'rganish, mustaqil jismoniy sifatlarni rivojlantirish, mustaqil jismoniy mashqlarni o'tkazish, mustaqil harakatli o'yinlarni tashkil qilish, jismoniy mashqlarni kelib chiqishi, organizmga jismoniy ta'siri, olimpiya o'yinlari haqida sport maydon o'lchamlari, jismoniy sifatlarni tarbiyalash yo'llari kabilar nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Umumta'lim maktablari sharoitida o'quvchilar harakat tartibini to'g'ri tashkil qilish asosida o'quvchilar salomatligi va ishchanligining yaxshilanishi hamda mustahkamlanishi amalga oshiriladi, bu esa mакtab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'quvchilarni har kuni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishini ta'minlaydi va isloh talablariga javob beradi.

#### **13.4. Kun tartibida o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida bolalar jismoniy tarbiyasiga va bolalar sportiga katta e'tibor berilmoqda: "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun, "Sog'lom avlod uchun" – Prizdent farmoni, "O'zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish"- vazirlar mahkamasining qarori va shu kabilar biz - jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga kuch-quvvat, iroda, intilish beradi.

Biz davlatimiz direktiv hujjatlarini amalga oshirish uchun dili-jonimiz bilan nazariy va amaliy bilimlarni yuqori darajada berishga intilamiz, o'quvchilarning salomatligini mustahkamlash yo'llarini qidiramiz, bolajonlarda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularni sog'lom, jismonan baquvvat qilib kamolga yetkazish bizning burchimiz ekanini dildan his qilamiz. Jismoniy tayyorgarlik va "Salomatlik" poydevorini qurishni eng kichik yoshdan boshlash kerak. Bu yoshdagи bolalarda harakat, ko'nikma va malakalarning shakllanishi shiddatli bo'ladi. Ularning bo'yи va muskul kuchlari ortadi, harakat koordinatsiyalari yaxshilanadi. Harakat amplitudiyasini, tezligini, yo'nalishini, ritmini va ifodaliligini ajrata bilish ko'nikmasi takomillashadi, harakatni tahlil qilish qobiliyati ma'lum fazalarga ajratilgan holda rivojlanadi. O'z-o'zini nazorat etish va o'zining hamda o'rtoqlarining harakatlarini baholash qobiliyatları rivojlanadi. Bola harakat

natijalarini bajarish sifatiga bog'liqligini tushunadi, yaxshi natijalarga erishish uchun harakat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim maktablarida bolalar faoliyatining asosiy bo'limlaridan birini jismoniy tarbiya bo'yicha olib boriladigan ishlar tashkil etadi. Bu ish o'qituvchilar tomonidan hamda shifokor va boshqa mutaxassislar (musiqa rahbarlari va boshqalar) qatnashgan holda maxsus dastur bo'yicha amalga oshirildi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash vazifalari O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya tizimining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib 3-ta asosiy:

- a) sog'lomlashtirish,
- b) ta'limiy,
- v) tarbiyaviy guruhlarga bo'linadi.

Bola sog'lomligini ko'rsatgichlaridan biri - tana bo'limlari o'zaro nisbatining to'g'riliqidir: yosh o'sishi bilan og'irligi, bo'yi va ko'krak qafasining aylanasi propotional o'zgarishi lozim.

Oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilishi tufayli bolalar uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda: sport majmuasi, alohida stadionlar, sport zallar, havzalar, tennis maydonchalari, sport anjomlari va uskunalar. Shunday bo'lsa ham, olib borilgan ilmiy- tadqiqot ishlarining tahlili maktab yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligining pastligini, dastur talablariga yetarlicha javob bera olmasligini ta'kidlaydi. Eng kichik yoshdan boshlab harakatsizlik oshib bormoqda. Buning asosiy sababi maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratilmaganligidir. Bog'cha tarbiyachilari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu masala bo'yicha nazariy va amaliy bilimi yetarli darajada emas. Jismoniy tarbiyaning hamma shakllari amalga oshirilmaydi, bajarilsa-da, yetarli darajada emas. Jismoniy tarbiya mashg'ulotidan tashqari, kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari muntazam, qat'iy tartibda olib borilishi lozim.

### 13.5. Maktab kun tartibida sog'lomlashtirish tadbirlari

Birinchi navbatda mashg'ulotgacha o'tkaziladigan gimnastika, katta tanaffuslarda o'tkaziladigan o'ynilar, umumta'lim darslarida o'tkaziladigan

“Quvnoq daqiqalar” mustaqil jismoniy mashqlarga kiradi va kuni uzaytirilgan guruhlarning sport soatlarini tashkil etadi. Bular, albatta, bolalarda harakat faolligini nisbatan oshiradi. Ta’lim muassasalari kun tartibida olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlariga: “Mashg‘ulotgacha gimnastika”, ya’ni 1- dars boshlanishdan oldin o‘tkaziladigan gimnastika, umumta’lim dars jarayonida olib boriladigan “Quvnoq daqiqalar”, “Uzaytirilgan tanaffuslarda o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar”, kuni uzaytirilgan guruhlardagi “Sport soatlari” kiradi.

**Mashg‘ulotgacha gimnastika** – har kuni birinchi dars boshlanishidan oldin o‘tkaziladigan jismoniy mashqlardir. Ma’lumki, mактабга bolalarning ba’zi birlari oldinroq kelsa, boshqalari gimnastika boshlanish paytiga yetib keladilar. O‘quvchilarning ba’zi birlari maktabga kelgunga qadar o‘ynab, yugurishlarga ulgurgan bo‘lsa, ba’zilari kechikmaslik uchun shoshilib kelishadi, ayrimlari shoshilmasdan, lanj holatda keladilar va hali uyquda bo‘ladilar.

Demak, dars boshlanishidan oldin hamma o‘quvchilarning holati, diqqati har xil bo‘ladi. Shuning uchun “Mashg‘ulotgacha gimnastika”ni o‘tkazishdan maqsad hamma bolalar diqqatini aqliy mehnatga (darsga) jalb etishdir, ya’ni birini tinchlantirish bo‘lsa, boshqasini esa uyg‘otishdir. Ana shuning uchun o‘tkaziladigan mashg‘ulotgacha gimnatika ayni muddaodir. Maxsus tanlab olingan mashqlar bolalarni tinchitadi, ulardagi hayajonlanish holatini bosadi, bolalarni tetiklashtiradi.

Mashg‘ulotgacha gimnastika mashqlar kompleksini tuzishda o‘quvchilar kiyimini iflos qilmaslikni hisobga olish kerak, chunki ular mактаб formasida mashq bajaradilar. Tanlangan mashqlar tanish va oddiy bo‘lishi kerak.

Mashg‘ulotgacha o‘tkaziladigan gimnastikaning har bir majmuasi:

- muskul va yurak – tomir tizimiga har tomonlama ta’sir qilishi;
- o‘quvchilarning qaddi –qomatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi;
- jismoniy yuklanishning uzviyligi;
- mashqlarning o‘quvchilarga tanish bo‘lishi va yengil bajarilishi;
- emotsiонал holatni oshirishi;
- o‘tkazish joyining talabga javob berishini taqozo etadi.

Darsdan oldin bajariladigan mashg‘ulotgacha gimnastikaning ahamiyati va uning qiymati juda katta. Bu bolalarning dars materiallarini to‘g‘ri va

yaxshi o'zlashtirishiga imkoniyat yaratadi, o'quvchilarni emotsional holatini, kayfiyatini ko'taradi. Shuning uchun har bir shahar, tuman va qishloq mакtablarida darsdan oldin bajariladigan mashg'ulotgacha gimnastikani tashkil qilish hamda o'tkazish shart.

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollej ma'muriyati va jismoniy tarbiya o'qituvchilari bu tadbirdarni yaxshilab yo'lga qo'yish uchun o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar faoli va ota-onalar bilan bиргаликда tayyorgarlik ishini olib borishi kerak.

Bunday ishlar o'quvchilar hayotiga kirib borish uchun uni har bir ta'lim muassasasi pedagogik jamoasida jiddiyroq muhokama qilib chiqish kerak va direktor buyrug'iغا binoan bu tadbirdni muntazam tashkil qilish va o'tkazish lozim, chunki bu holda o'quvchilarning intizomi yaxshilanib, muhim tadbirga butun pedagogik jamoasi safarbar qilinadi.

Respublikamizning iqlim sharoitini hisobga olib, muassasa maydonchasiga qum – shag'al yotqizib shibalash va atrofiga daraxtlar o'tkazilsa, yoki yomg'irdan saqlaydigan va issiq kunlarda salqinlik beradigan soyabonlar bo'lsa juda yaxshidir.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi darsdan oldin o'tkaziladigan gimnastika mashqlarini samarali olib borish uchun eng faol sportchi o'quvchilardan o'ziga yordamchilar tayyorlashi lozim.

Mashg'ulotgacha gimnastika mashqlarini o'tkazuvchilarni tayyorlashdagi eng yaxshi usul seminar o'tkazishdir. Seminarda quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

1. Har bir yoshdagи o'quvchilarning jamoatchi instruktorlari bilan mashqlar majmuasini alohida-alohida o'rganish;
2. Har bir mashqni nomini aytib, uning qanday bajarilishini o'quvchilarga ko'rsatish, ularga mashqni bajarib ko'rishni taklif qilish, mashqning ta'sirini tushuntirib, bajarishda yo'l qo'yiladigan xatolarni eslatib o'tish;
3. Instruktorlar (o'qituvchilar) hamma mashqlarni belgilangan tartibda bajartirib, har bir harakat va holatlarni to'xtab-to'xtab, aniq ijro etish;
4. Harakatlarni aniq bajara olmagan o'quvchilarga shu harakatni puxta o'rganib olgunlariga qadar harakatlarni takrorlash;
5. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sinf rahbarlari dars jarayonida

mashqlar majmuasini o'rgatayotgan paytlarida o'quvchilarni jamoatchi instrukturlik talablarini to'g'ri bajarishlariga ko'maklashishi lozim.

O'quvchilarga mashqlar majmuasi jismoniy tarbiya darslarida o'rnatildi. Shuningdek, bu majmua chiroyli yozilib, ko'zga ko'rinarli joyga osib qo'yilishi lozim. O'quvchilar bu majmuani uyda o'zlari mustaqil ravishda takrorlaydilar.

Ko'pchilik maktablarning tajribasiga asosan, o'quvchilarda darsdan oldin o'tkaziladigan gimnastikaga havas uyg'otish uchun sinflararo musobaqa tashkil etilib, maxsus salomatlik burchagini tuzish, unga natijalarni yozib borish shart. Buning uchun eng faol o'quvchilardan hakamlar tanlanib, ular har bir sinfning mashqlarni bajarishi, xulqi, faolliklarini baholaydilar. O'quvchilarning uyushqoqligi ko'p jihatdan ular bilan olib borilgan tayyorgarlik ishlariga bog'liq bo'ladi.

Tanlab olingan mashqlar majmuasini bajarish uchun har bir sinfga maydonda alohida doimiy joyni ajratib qo'yish lozim. Gimnastika mashqlari musiqa bilan o'tkazilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Darsdan oldin o'tkaziladigan "Mashg'ulotgacha gimnastika" mashqlari majmuasi boshlang'ich sinflarda 7-8 daqiqqa davom etadi. Har bir mashqlar majmuasi o'quvchilar bilan bir hafta davomida bajarilishi mumkin. O'quvchilarda mashqlarni bajarishga bo'lgan havasni oshirish maqsadida har 2-3 kundan keyin mashqlar majmuasining biror qismini o'zgartirib turish lozim.

Jismoniy mashqlar majmuasini jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'zi ishlab chiqadi. Keyinchalik esa bu ishni jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazorat ostida jamoatchi instruktor yoki sportchi- tashabbuskor, iqtidorli o'quvchilarga topshirish mumkin. Jismoniy mashqlar majmuasini asosiy muskullarga ta'sir etadigan qilib tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Darsdan oldin o'tkaziladigan gimnastikaning asosiy mazmunini buyumlarsiz olib boriladigan oddiy umumrivojlantiruvchi mashqlar tashkil qiladi. Hamma o'quvchilarni bir maydonga joylashtirish imkoniga ega bo'lgan muassasalar hamma yoshdag'i o'quvchilar bilan bir joyda o'tkazadilar. Agar bunday imkoniyatlар yo'q bo'lsa, unda guruhlarga bo'linib imkoniyati bor joylarda har guruh bilan alohida o'tkaziladi. Shu jumladan, boshlang'ich sinflar bilan: 1- sinflar, 2 -sinflar, 3- sinflar, 4- sinflar alohida juftlangan holda o'tishlari mumkin. Iloji bo'lsa 1-2- sinf o'quvchilari va

3-4- sinf o'quvchilari uchun alohida olib boriladi yoki 1-4 -sinf o'quvchilari bilan bir joyda o'tkaziladi. Agarda pedagogik va metodik nuqtayi nazardan hamda gigiyenik va sanitariyaga rioya qilgan holda to'g'ri tashkil qilib o'tkazilsa, hammasi o'quvishiga faqat ijobjiy ta'sir etadi. Lekin bu tadbir yil davomida muntazam- uzlusiz olib borilishi shart.

Bu unitilmaydigan zarur sog'lomlashtirish tadbiridir. Bunga katta mas'uliyat va e'tibor bilan qarash lozim, chunki umumta'lim darslarida, ayniqsa, birinchi soatda materiallarni o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Mashqlarni tanlashda bolalarni yoshi, jinsi hisobga olinadi. Masalan, oyoqlarni oldinga ko'tarish mashqida qiz bolalar sport formasida bo'limganligi tufayli bajarishga uyaladilar yoki qo'llarga tayanib yotgan holda qo'llarini bukib -yozish mashqlari. Bu mashqlarni bajarishga toza va chiroylar kiyimlari iflos bo'lishi mumkin.

Mashg'ulotgacha gimnastika turgan joyida yurish, nafas olish va qomatga to'g'ri rivojlantiruvchi mashqlardan, shu jumladan, nisbatan organizmga ham ta'sir etadigan mashqlardan iborat bo'ladi.

### **13.6. Quvnoq daqiqalar.**

Bolalar tomonidan aqliy vajismoniy topshiriqlarning har jihatdan to'g'ri bajarilishi ularni charchashdan saqlaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari buni hamisha nazar-e'tiborda tutishlari lozim. Chunki 7 yoshdagagi bolalar o'zlarining anatomik-fiziologik xususiyatlariga ko'ra tez o'sadilar. Ularda muskullar tizimi hali bo'sh va notekis rivojlangan holda bo'lib, yirik muskullar (quyi qismlar va yelka kamari), kichik muskullarga (masalan, panja muskullariga) qaraganda tezroq rivojlanadi.

Bu yoshdagagi bolalarni, ayniqsa, gavdaning ko'p vaqt bir vaziyatda bo'lishi yoki bir xil harakatlarni bajarish tez charchashga olib keladi. Bolalarning ayrim vaqtlar harakatsiz o'tirishi organizmning quyi qismlarida, qorinda qon yurishmay qolishiga, bosh miyaning esa qon bilan to'la ta'minlanmasligiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida nerv hujayralarining hayotiy faoliyatiga shikast yetkazadi va natijada bolaning diqqati ham beqarorlashadi. Bundan tashqari, bola ko'p vaqt bir joyda qimirlamay o'tirganda, uning beli toliqadi, ruchkani ko'p vaqt qo'lda tutganidan barmoqlari qotib qoladi. Oqibatda bola charchaydi, uning ish qobiliyati susayadi. U tez-tez darsdan chalg'iydigan,

diqqatsiz va parishonxotir bo'lib qoladi, o'quv materiallarini o'zlashtira olmaydi. Aqliy va jismoniy yuklanishni mohirona almashtirib turish quyi sinf o'quvchilarining ish faoliyatida muhim rol tutadi.

**Quvnoq daqiqalar** – bu umumta'lim darslari jarayonida o'tkaziladigan jismoniy mashqlardir. To'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilgan quvnoq daqiqalar bolalarning charchog'ini yo'qotadi, ularning diqqati va faolligini, o'quv materiallarini o'zlashtirish savyasini oshiradi. Bolalar organizmiga ijobjiy ta'siri ham kuchayadi.

Olimlarning ko'rsatishicha, birinchi sinf o'quvchilari 15-20 daqiqa davomida diqqat bilan o'tirishilari mumkin ekan. 35 daqiqli mashg'ulotdan keyin ularda ish qobiliyati keskin susayadi. Dars paytida ko'rish va eshitish organlari, tana, ayniqsa, orqa kurak qismi muskullari (chunki bu qism uzoq vaqt statik holatda bo'ladi), qo'l barmoqlari ko'proq jismoniy yuklanishni oladi.

Charchashning boshlang'ich holatida markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi jarayonida o'quvchilar hulqi tez o'zgaradi: o'quv faoliyatidan chetlashadilar, o'quvchining tushuntirishini e'tiborsizlik bilan tinglaydilar, gaplashadilar, o'rinlaridan turib yuradilar va h.k.

Mana shunday holatda 2-3 ta jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash va o'quvchilar bilan bajarish charchashni bartaraf etadi, ularning ishslash qobiliyatini oshiradi.

Quvnoq daqiqalar oddiy, murakkab koordinatsiyani talab etmaydigan 2-3 ta yoki 4 ta mashqlar majmuasidan iborat bo'lib, ular qo'llar, tana, bosh, oyoq uchun mo'ljallangandir. Muskullarning katta qismini qamrab oladigan va statik kuchlanishni yo'qatadigan, nafas olishni faollashtiradigan, qon va limfa aylanishlarini kuchaytiradigan mashqlar majmuasi tanlab olinadi va ishlab chiqiladi.

Quvnoq daqiqalarni hamma darslarda o'tkazish zarur. O'quv faoliyatining turiga qarab mashqlar o'tirgan yoki turgan holda bajariladi. 1-2 daqiqa davom etadigan 3-4 ta mashqning har biri 3-4 marta takrorlanadi. Bu mashqlar majmuasini tanlash va tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin: 1-mashq qo'llarni harakatlantiradigan holda turlicha dastlabki holatdan cho'zilish, kerishish, to'g'ri qomat his qilish mumkin;

2-mashq tanani o'ngga, chapga burish, oldinga va orqaga engashish;

3-mashq oyoqlarni bukish va to‘g‘rilash, oyoqlarni bukib ko‘tarish, partada o‘tirgan holatda turish va dastlabki holatga qaytish;

4-mashq esa tinchlantruvchi va oddiy mashqlardir. Mashqlar aniq, to‘g‘ri, chiroyli, nafas olish ritmiga mos bajarilishi zarur.

Umumta’lim darslari jarayonida quvnoq daqiqalar o‘tkazish bo‘yicha amaliyot bir qancha boy tajribalarga ega. Uni o‘tkazish metodikasi ham turlichadir.

Tajribalar ko‘rsatishicha, quvnoq daqiqalarni darsga zarar yetkazmasdan o‘tkazish mumkin ekan. Masalan, 15-20 daqiqa davomida o‘quvchilar o‘tilgan materiallarni takrorlash, uy vazifasini tekshirish bilan mashg‘ul bo‘ladilar, so‘ngra o‘qituvchi dastlabki yangi mavzuni boshlaydi. Bu oldindan kelishilgan bo‘yicha quvnoq daqiqani o‘tkazish uchun signaldir, ya’ni o‘qituvchi doskaga yangi mavzuni yozishni boshlashi bilan oldindan tayyorlangan navbatchi bola sinf oldida turib 3-4 ta o‘rganilgan mashqlarni hamma bilan birga bajaradi.

Ikkinchi guruh o‘qituvchilar tajaribasi bo‘yicha, ayrim she‘r va ashulalar ohanggiga mos ravishda bolalarning qo‘li, oyoq, bosh va tanalarini harakatlantiradilar. Bunda o‘qituvchi bolalarning charchaganini sezib oldindan tanish bo‘lgan she‘r yoki ashulaning nomini aytadi, hamma bolalar jo‘r bo‘lishib, turli harakatlar bilan shu she‘r yoki ashulani aytga boshlashadi.

Uchinchi guruh o‘qituvchilarining tajribalari esa musiqa ohanglari ostida o‘tkazishni avzal ko‘radilar. Bu raqs elementlari, ritmik gimnastika mashqlaridan iborat bo‘ladi.

Oxirgi yillarda televizor orqali quvnoq daqiqalarni o‘tkazishning yangi - yangi metodlari ko‘rsatib borilmoqda, bundan o‘qituvchilar ijobiy foydalanishlari mumkin.

### 13.7. Katta tanaffuslarda o‘yinlar o‘tkazish.

O‘quvchilar mактабда 2-3 saat aqliy ishlardan so‘ng charchaydilar. Ularning diqqat - e’tibori va o‘zlashtirish qobiliyati susayadi. Shuning uchun o‘rta umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya dasturida katta tanaffuslarda faol dam olishning zarurligi ko‘rsatilgan. Bunday uzaytirilgan tanaffusdan foydalanib bolalar o‘zicha har xil dam oladilar: bir guruh o‘quvchilar ulgurmagan ishlarni yozib o‘tiradilar, ikkinchilari esa qiziqarli badiiy kitob

o'qib o'tiradilar, uchinchi guruh o'quvchilari juft-juft bo'lib yoki 3-4 kishi bo'lib gaplashib yuradilar, nihoyatda to'rtinchilari tengdoshlari bilan turli harakatli o'yinlarda ishtirok etadilar. Olib borilgan pedagogik kuzatishlar ko'rsatishicha, eng yaxshi dam olish shakli to'rtinchi guruh o'quvchilarida bo'lib chiqdi. Faol harakat dam olishdir. Shu boisdan katta tanaffuslarda faol dam olishni taklif qilish va o'tkazish shart, deb jismoniy tarbiya dasturiga kiritilgan.

Katta tanaffuslarda harakatli o'yinlarni va jismoniy mashqlarni o'tkazishni direktor (tashkilotchi) – o'rindbosarlari boshqarib boradilar. Bunday tanaffuslarni tashkil qilish va o'tkazish bevosita jismoniy tarbiya o'qituvchisiga, sinf rahbarlariga, kamolot jamg'armasiga, jamoatchi instruktorlarga va maktab ota-onalar qo'mitasi zimmasiga yuklanadi.

Uzaytirilgan tanaffuslarda harakatli o'yinlarni va jismoniy mashqlarni o'tkazish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun quyidagilarni amalga oshirishga yordam beradi:

- Harakat faolligini oshirishga;
- mazmunli va faol dam olish va hordiq chiqarishni tashkil etishga;
- butun organizm tonusini va ish qobiliyatini tezroq tiklanishini ta'minlashga;
- Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirishga.

O'yinlarni va jismoniy mashqlarni quiyi sinf o'quvchilari organizmini, psixologik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakatli o'yinlarni mustaqil tashkil etish uchun yetarlicha tajribaga ega emaslar, shuning uchun sinf rahbarlari jamoatchi tashkilotchining roli birinchi darajada bo'lishi kerak. Katta tanaffuslarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarga to'p, arqoncha bilan mashqlar, tirmashib chiqish va oshib o'tish, raqs elementlari, ritmik gimnastika, rolikli konkida uchish, quvnoq konkurslar va attraksion o'yinlari kiradi. Sport mashqlarini va o'yinlarini o'tkazadigan maktab faoli haftasiga bir marta yangi o'yinlar, mashqlar, ularni o'tkazish xususiyatlarini muhokama qilish uchun yig'iladilar. Bunday yig'ilishlar seminar mashg'uloti sifatida olib boriladi. Bu mashg'ulotni jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'tkazadi, ularning vazifasi o'yinlar va boshqa mashqlarni o'tkazishni va tashkil etilishini nazorat qilib

borishdir.. Bolalarning katta tanaffuslarda o'tkaziladigan o'yinlarga bo'lgan qiziqishlari samaradorligi ko'p jihatdan sport qurollari va jihozlarining turiga bog'liq bo'ladi.

Bular: bayroqchalar, lattali koptokchalar, barerlar, arqonchalar, gardishlar, gimnastik tayoqchalar, turli to'plardir. Ko'pgina jihozlarni o'quvchilarning o'zлари, ota-onalari yoki yuqori sinf o'quvchilari yordamida yasashlari mumkin. Harakatli o'yinlar o'tkaziladigan tanaffus dars emasligi, u o'quvchilar uchun faol dam olish vositasi ekanligini aslo unutmaslik kerak.

Katta tanaffuslarda harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar o'tkazilishning ahamiyatini bolalarga muntazam tushuntirib borish lozim. Katta tanaffuslarda bolalar mustaqil o'zлари guruh-guruh bo'lib o'ynashga va turli mashqlarni mustaqil bajarib, faol dam olishga o'rghanishlari kerak.

Misol tariqasida katta tanaffuslarda o'tkaziladigan harakatli va jismoniy mashqlarni keltiramiz: "Biz sportchimiz" deb ataladi bu o'yin. O'qituvchining "Stadionga" yugur!" signali bo'yicha bolalar butun maydon bo'ylab yengil yuguradilar. "To'xta!" signali bo'yicha esa bolalar biror bir sportchini turish holatini ko'rsatgan tarzda to'xtaydilar, bu bilan sportning qaysi turi unga ko'proq yoqishini aniqlash mumkin. Shu paytda o'qituvchining topshirig'iga ko'ra bir bola "Sportchilarga" qarab turadi va kim birinchi qimirlaganni aniqlaydi. Qimirlagan o'quvchi chetga chiqadi va o'yin takrorlanadi.

"Mergan bo'l" harakatli o'yini. Bolalar 2-3 guruhgaga bo'linib, doira hosil qilib turadilar. Doira o'rtasida 4-6 m masofada cho'qmar qo'yiladi. O'qituvchi har bir doirada turgan bittadan o'quvchiga to'p berib signali bo'yicha koptok bilan cho'qmarni urib yiqitishga ruxsat beradi. Ko'proq cho'qmar yiqitgan guruh g'olib hisoblanadi. Bolalarning tayyorgarligiga muvofiq ravishda koptokni dumalatish yoki otish hamda masofani uzoqlashtrish, yaqinlashtrish mumkin. Bu katta tanaffuslardagi o'yinlardan bir lavhadir.

Arqoncha bilan bajariladigan o'yin va mashqlar keyingi paytlarda borgan sari keng qo'llanmoqda. Arqoncha faqat bolalar uchun o'yingina bo'lib qolmay, balki eng zarur sport qurollaridan biri hamdir.

Uzunligi 2 m va 4-5 mli arqonchalarda bajariladigan sakrashlardan namunalari keltiramiz:

1-mashq. Bolalarni har biriga bittadan arqoncha beriladi. Bolalar

ixtiyoriy yo'nalishda maydon bo'ylab harakatlanadilar. Arqonchani bosh ustidan olib har tomonga aylantirib, bir va ikki oyoqda sakraydilar.

2-mashq. Bolalar juft-juft bo'lib, bir-biriga qarab turadilar. Har juft bolada bittadan arqon. Turgan joyda arqonchani aylantirib birgalikda sakrashadi. Ixtiyoriy arqonni aylantirishni almashib turishadi.

3-mashq. O'quvchilar doira yasab turadilar. Doira o'rtasida turgan boshlovchi arqonni soat ko'rsatkichi yo'nalishi bo'ylab yer ustidan aylantiradi. Qolgan bolalar arqon ustidan sakraydilar. Boshlovchini almashtirib turish lozim.

4-mashq. Ikki o'quvchi arqonni ikki uchidan ushlab soat strelkasi bo'ylab aylantiradilar. Qolgan bolalar 4-5 marta sakrab o'tadilar. Arqon aylantiruvchilarni almashtirib turish lozim.

5-mashq. Aylanayotgan uzun arqon tagidan kalta arqoncha bilan sakrab o'tish.

6-mashq. Aylanayotgan uzun arqon tagidan yugurib o'tish. Bunda arqon aylanishiga qarab yugurvuchni harakat qiladi, avval qiyalab yugurgan bo'lsa, keyin to'gridan yugurib kelib 170-180 sm.li yo'lakdan o'tadi.

Cherta o'yinlari. Maktab maydonida bolalarning xohishiga ko'ra, turli shakllardagi "chertalar" chiziladi. O'yin davomida bolalar o'zlarini erkin turishlari, bir qatorda tartibni ham saqlab turishlari kerak. Bolalarning hammasini cherta o'yinida ishtirok etishini majbur etish kerak emas, lekin hamma bolalarning ochiq havoda bo'lishlari shart. Chiziq o'yinining turlari juda ko'p.

Ikkinci sinfdan boshlab maydonchalarda uzaytirilgan tanaffuslarni nostandart buyumlar yordamida o'tkazish mumkin. Mashqlar majmuasini mavjud bo'lgan qurollarga mos ravishda tanlash kerak.

### **13.8. Bolalar bilan olib boriladigan sport ishlarining pedagogik asoslari.**

O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimida sport o'quvchilarning har tomonlama jismoniy tarbiyasining asosiy vosita va metodlari sifatida qaraladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasida ham sport katta o'rinni egallaydi. Sport jismoniy tarbiya vositasi sifatida

balolarning sog'ligini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlarga egadir. To‘g‘ri tashkil etilgan sport mashg‘ulotlari markaziy nerv tizimini (MNT) takomillashtirishga, o‘pka, yurak tomiri tizimining ishlarini yaxshilashga, muskul hajmining, qon tarkibining, modda almashuvining yaxshilanishiga imkon yaratadi.

Sport bilan shug‘ullanish jarayonida tarbiyaviy masalalarning bir qatorini, eng avvalo, ijobjiy -axloqiy va irodalilikni tarbiyalashni hal etish uchun sharoitlar yaratiladi.

Ilmiy kuzatishlar, amaliy tajribalar shu narsani ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarni umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘zlashtirishni yaxshilashga imkon beradi, bolalarni mehnatga o‘rgatadi, irodali xarakterni tarbiyalaydi, axloq, madaniyati, intizomini oshiradi va xarakterining boshqa ijobjiy tomonlarini tarbiyalaydi.

Bolalik davrida sport bilan o‘z vaqtida shug‘ullanish sport ustalari o‘rinbosarlarini yetishtirishga imkon beradi. Bularning hammasi o‘quvchilarni sportni - jismoniy tarbiyani almashtirib bo‘lmaydigan vositasi bo‘lib qolishiga olib keladi.

Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi sport elementlarining bolalar o‘quv mashg‘ulotlarida, maktabdan tashqari va kundalik hayotida o‘z o‘rnini egallaydi. Bu mashg‘ulotlar: a) ayrim sport turlarining sport texnikasini egallahsha; b) bolalarni uzoq vaqt bir tizimda mashg‘ulot talab etmaydigan oddiy sport musobaqlarida qatnashishga olib keladi.

Sport elementlari mакtab dasturiga kiritilgan. Bolalar darsda gimnastika mashqlarining, yengil atletikaning, voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi, badiiy gimnastika, milliy kurash, suzishning texnik asoslarini o‘rganadilar. O‘quv normalarini topshirish sport musobaqlar shaklida o‘tkaziladi. Umumiyligida, jismoniy mashqlarni bajarishning ixtiyoriy ko‘rinishiga (ertalabki gigienik gimnastika, quvnoq daqiqa va boshqalar) musobaqa elementlarining kiritilishi mashg‘ulotning qiziqarli (emotsional) o‘tishiga ko‘maklashadi, mashqlarni yaxshiroq sifatli bajarilishiga imkon yaratiladi.

Musobaqlar, mashq texnikasini o‘rganish guruh va jamoalar yig‘ilishlarida, sog‘lomlashtirish kunlari, maktabda jismoniy tarbiya bayramlarini o‘tkazishda bo‘lishi mumkin.

Maktabdan tashqari musobaqlarda, turar joylarda, mahallalarda,

parklarda eng yaxshi yuguruvchilar, balandlikka sakrovchilar, irg'ituvchilar, suzuvchilar musobaqasi keng o'tkaziladi.

Bolalar bilan olib boriladigan sport ishlarini 2 yo'naliishga ajratish mumkin: 1) sport elementlarining jismoniy tarbiyada qo'llanilishi – sportga bo'lgan qiziqish va yaqinlashishni dastlabki bosqichidir; 2) sportning ayrim turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar.

Sportning ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlari yuqori malakali yosh sportchilarni, ommaviy sport ishlari tashkilotchilarini, sport bo'yicha jamoatchi hakam, instruktorlarni(o'qituvchilarni) tayyorlashga qaratilgan.

### **13.9. Sport musobaqalari, bayramlarni tashkil qilish va o'tkazish qoidalari.**

Jismoniy tarbiya jamiyat tarixining barcha bosqichlarida xalq madaniyatining tarkibiy va muhim qismi bo'lib kelgan. Xususan, unga O'zbekiston hududida yashayotgan xalqlar ma'naviy va jismoniy barkamollik mezoni sifatida qarashgan. Jismoniy tarbiya va harbiy san'at XIV-XV asrlarda ham ancha rivoj topgan. Amir Temur olib borgan siyosat jamiyatning hamma sohalarida bo'lgani kabi jismoniy tarbiya mohiyatini yuqori bosqichga ko'targan. Temuriylar davrida harbiylarni jismonan tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Kurash, kamondan otish, ot sporti o'yinlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

“O'zbekiston Respublikasida bolalar sportini rivojlantirish” to'g'risidagi qarori, hamda “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” hamda “Maktabgacha tarbiya va bolalar sporti” fakultetlarida qo'shimcha ikkinchi mutaxassislikning kiritilishi (boshlang'ich sinf o'qituvchisi va jismoniy tarbiya o'qituvchisi), bolalar sportiga e'tibor qaratildi. Jismoniy tayyorgarlik, musobaqalarda qatnashish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni eng kichik - bog'cha yoshidan boshlash kerak. Afsuski, bog'chalarda bunga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Bog'chalarda qanday sport musobaqalarini o'tkazish mumkin va unga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak? Nimalarni e'tiborga va hisobga olish lozim?

Tuman va shahar birinchiligidagi: futbol, 10-20 m. ga tez yugurish, estafetalar, velosipedda yurish, sport konkurslari, quvnoq startlar, 4x10

m. mokkisimon yugurish va turli musobaqalar dasturga kiritilgan. Shu musobaqlarda yuqoridan

(tuman, shahar, respublika) kelgan musobaqalar kalendariga ko'ra o'qituvchilar, tarbiyachilar o'z tayyorgarligini boshlaydilar.

Bunday tayyorgarlik jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, kun tartibida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya jarayonida olib boriladi, o'yinlar orqali musobaqaga oid harakatlar hisobida o'tkaziladi. Masalan, "Estafeta o'yini" yoki "Kim uzoqqa sakraydi?", "Eng mergan", "Mokkisimon yugurish" va boshqalar.

3-4 yoshdagি bolalar uch g'ildirakli velosipedda uchishni juda yoqtiradilar, 5 yoshdan yuqori bolalarga ikki g'ildirakli velosipedda uchishni o'rgatish mumkin. Velosipedda uchishning .qiymati shundaki, bola ko'p vaqt ochiq havoda bo'ladi, muskullari, ayniqsa, oyoq muskullarini mustahkamlaydi. Bulardan tashqari, velosiped bolaning muvozanat saqlash qobiliyatini rivojlantiradi, koordinatsion qobiliyatları, jasurlik va dovyuraklik fazilatlarini tarbiyalaydi.

Bog'cha bolalariga va boshlang'ich sinf o'quvchilariga sayr qilish ham yoqadi. Sayrda bolalarda tabiatga, atrof-muhitga qiziqish oshib boradi, organizm chiniqtiriladi, qiziquvchanligi rivojlanadi. Bunday sayrlar 3-4 yoshli bolalarda 15- 20 daqiqa davom etadi, 5-6 yoshli bolalar kattaroq masofani charchamay bosib o'tadilar va 30-40 daqiqagacha davom ettiradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari esa 60-90 daqiqagacha masofani bosib o'tadilar.

Xalq ta'limi tizimini takomillashtirish masalalari, pedagog kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash va o'qitish-o'rgatish metodlari davlat ahamiyatidagi masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.Chunki u Milliy davlat dasturining vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan, hamda shaxsni har tomonlama garmonik rivojlantirishiga qaratilgan.

Hozirgi texnikaning rivojlanishi islohotlar o'zgarishi, zamon talabiga binoan har bir odam o'z bilimlarini mustaqil boyitishga ega bo'lishlari kerak. Bunday ko'nikma, malakalarni eng kichik yoshdan boshlash lozim. Shu boisdan kichkintoy bolalarning salomatligi, jismoniy tayyorgarligi, o'qishga bo'lgan ehtiyoji, uning dunyoqarashi va boshqalar bog'cha tarbiyachilarining ish mahoratiga bog'liqdir. Shulardan biri bolalar kun

tartibini har xil harakatlar bilan boyitish. Masalan, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim muassasalarida sport bayramlarini o'tkazish, bolalarda jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishi, sport bilan oshno bo'lishi do'stlashish harakat -faoliyatini oshiradi. Maqsad ham shulardan iborat. Lekin bu maqsadni amalga oshirish uchun sport bayramlarini tashkil qilish, uni samaradorligini oshirish va o'tkazishga katta tayyorgarlik kerak.

Misol tariqasida, (bog'chada) maktabda sport bayramini tashkil qilish va o'tkazish to'g'risida tajriba asosida bayon etiladi. Eng avvalo, har bir o'tkaziladigan sport tadbirlari rejaga kiritilgan bo'lishi kerak, reja pedagogik kengashda tasdiqlanadi, so'ng olib boriladigan sport bayramiga ssenariy yoziladi. Ssenariy ham pedagogik kengashda muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Bu bayramga tayyorgarlik ko'rvuchi guruh tuziladi. Chunki o'tkazilayotgan sport bayramining samaradorlik ta'sirini oshirish maqsadida bolalarning safda yurish turlari (chiziqlar bo'ylab yurish, o'rtadan 2-3-4 tadan bo'lib yurish, diogonal bo'ylab yurish, 2 tomondan diogonal bo'ylab qarama-qarshi yurish, hosil qilib yurish va h.k.), yurish turlarini ko'rsatish (oyoq uchlarida, tovonlarda, kaftni ichki va tashqi tomonlarida yurish, askarcha yurish, katta qadam tashlab yurish, oyoqlarni chalkashtirib yurish, tizzalarini baland ko'tarib yurish va h.k.).

Bolalarning jismoniy tayyorgarligini, hamda mashg'ulotlarda o'tilgan materiallarni o'zlashtirgan holatini aniqlash va nazorat qilish maqsadida yakkama-yakka bellashuv tarzda yugurishlar, estafetalar, sakrashlar, to'plar bilan mashqlar bajarish, turli o'yinlarni o'rganish va bajarish. Shular qatorida aralash mashqlarni ham musobaqa tarzda bajarish lozim.

Bunday tayyorgarliklar tuzilgan ssenariy-reja asosida olib boriladi. Ushbu bayramlarni o'tkazishda hakamlar xizmatini ham yoddan chiqarmaslik kerak va ularni tayyorlash lozim. Hakamlar sifatida tarbiyachilar, o'quvchilar va ota-onalarni jalg qilish mumkin.

Sport bayramlari musiqasiz o'tmaydi. Shuning uchun eng kichik bolalarga tanish va yoqimli musiqalarni tanlash kerak. Bularidan keyin sport bayramlarida qo'llaniladigan sport uskunlari, inshootlarni tayyorlash lozim. Ular rangba-rang bo'lishi bolalar kayfiyatini, qiziqishini, emotsiyonal holatini oshiradi. So'ng sport bayramini o'tish joyini bezatish va ular sanitariya-gigiyena talabalariga javob berishi kerak.

Sport bayramlariga ota-onalarni taklif qilish lozim. Yuqorida qayd etilgan tayyorgarliklar ko'p vaqt talab qiladi.

**Tashkil qilish qonun-qoidalari.** Har xil bayramlar, shu jumladan, sport bayramlari ham bolalar hayotida mustahkam o'rinn egallagan. Bu bayramni bolalar yuqori darajali kayfiyat bilan kutadilar va unda ishtirot etadilar. Ma'lumki, har bir bayram jismoniy mashqlar va sport musobaqalarisiz yoki sportchilarsiz o'tmaydi. Albatta sportchilar ham ishtirot etadilar. Ommaviy sport chiqishlari bayram sanalariga to'g'ri keladi. Masalan, xotin-qizlar bayrami, askarlar kuni, Navro'z bayrami, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni va shu kabilalar. Ushbu bayramlarda gimnastika chiqishlari an'anaga aylangan. Jismoniy tarbiya va sport bayramlarini mактабгача tarbiya muassasalaridan boshlab, boshlang'ich sinflarda o'tkazish katta ahamiyatga ega: targ'ibot qilish hamda sport bayramlari orqali bolalarni ommaviy jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga jalb qilish va ularga qiziqish uyg'otish masalalarini hal qiladi.

Sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish murakkab masalalardan biri. Uni tashkil qilish bog'cha mudirining qarori asosida tashkiliy qo'mita tuziladi. Unga mudira muovuni, metodi yoki katta pedagog (rais), jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassis-tarbiyachisi, boshqa tarbiyachilar, ota-onalar qo'mita a'zolalari va boshqalar. Tashkiliy qo'mita ish rejasini tuzadi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi, o'tkazish joyini va vaqtini belgilaydi.

Tayyorgarlik ko'rish jarayonida ota-onalarni, sponsor tashkilotlardan yoki sport maktabalaridan yordamchilarni so'rash mumkin. Bajariladigan har bir ishda mas'uliyat bilan qarash kerak.

Eng asosiy vazifalardan biri - bu bayramli chiqishlar dasturi, jismoniy mashqlar majmuasini tuzish, har bitta guruh bilan chiqish mashqlarini o'rganish, ayrim sport elementlarini o'rganish, raqs mashqlarini tanlash va o'rganish, repititsiya o'tkazish, chiqishlarni musiqaviy bezatish, sport anjomlari, uskunalar(to'plar, gardishlar, gimnastik tayoqchalar, sharlar, arqonchalar) va sport formalarini ta'minlash hamda emblemalar tanlash. Bulardan tashqari, sport bayramini o'tkazish joyini bayramona bezatish, har xil ko'rgazmalar bilan boyitish, foto mantajlar va hakozo.

Tashkiliy qo'mita o'z ishini sport bayramini o'tkazish to'grisidagi muhokama bilan yakunlaydi.

Sport bayramini muvaffaqiyatli o'tishi dasturni aniq tushunarli va tayyorlanishiga bog'liq. Dasturni ishlab chiqilishi bayramning g'oyasi, mavzusi va mazmunidan kelib chiqishi lozim. Shu jumladan, bog'chaning moddiy tamonlarini, ishtirok etuvchilarning jismoniy va sport tayyorgarligi, sport tadbirining katta–kichikligi, o'tkazish joyi va vaqtlarini hisobga olish zarur.

Sport bayrami dasturini shunday tuzish kerakki, hamma chiqishlar bir-biri bilan bog'langan bo'lishi kerak, orada uzilish bo'lmasligi, takror hamda zerkarli bo'lmasligi lozim, har xil yurishlar, saf mashqlari, gimnastika, akrobatika, turli bellashuvlar, ashula va raqs mashqlari, savol-javoblar va shu kabilar dasturga kiritilgan bo'lishi lozim. Shular qatorida mashqlarni va chiqishlarni juda ko'paytirib yuborish yaxshi natijaga olib kelmaydi, bolalarda qiziqish, tabassum pasayadi.

Gimnastik chiqishlarni, mashqlarni, kombinatsiyalarni yoshiga to'g'ri, tayyorgarligiga nisbatan tanlash katta ahamiyatga ega.

Sport musobaqa yoki bayramlarni yutug'i ko'pincha musiqani to'g'ri tanlashga, mashq mazmunini ochib beradigan, uni xarakteri va shakllariga javob beradigan bo'lishi kerak. Musiqa nafaqat sport bayramini to'laqonli o'tishiga, balki har hil chiqishlarga, turli mashqlarni samarali bajarishda ta'sir ko'rsatadi. Musiqa ijro etuvchilarga va taklif qilingan mehmonlarga yoqimli bo'lishi uchun bolalarga va kattalarga tanish bo'lgan musiqani, melodiyani(ohangni) tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **O'z-o'zini sinovdan o'tkazish uchun savollar:**

1. Musobaqalarni tashkil etishdan maqsad nima?
2. Sport musobaqalarining o'tkazilishini tartibga soluvchi asosiy hujjalarni ko'rsatib, ularga tavsif bering?
3. Sport musobaqalarining kalender rejasи mazmuni va ushbu hujjat ahamiyatini yoritib bering.
4. Musobaqalarning har xil turlarini sanab bering va tavsiflang.
5. Musobaqa nizoming asosiy bulimlarini ayting va ularning mohiyatini tushuntirib bering.
6. Hakamlar kollegiyasi tarkibi haqida ma'lumot bering?

## 14-Modul. Sport o'yinlarida rejalashtirish (dasturlashtirish) va nazorat qilish –boshqarish funksiyasi sifatida

### 14.1. Sport mashg'ulotining tarkibiy qismlarini rejalashtirish va dasturlash.

